**Аннотация:** *В данной статье освещены вопросы анализа стандарта ISO 9001:2008 и ISO 9001:2015 в сфере деятельности по оценке соответствия в нашей стране на основе международных стандартов*

**Annotation:** *This article covers the issues of ISO 9001: 2008 and ISO 9001: 2015 standard analysis in the field of conformity assessment activities in our country on the basis of international standards.*

Халқаро стандартлар ҳамма томонлама уйғунлаштириш ва даражали тан олиними савдода техник тўсиқларни бартараф этиш ва рақобатни ривожлантиришнинг самарали воситаларидан биридир. Фан-техниканинг шиддатли ривожланиши, ишлаб чиқариш ва иқтисодий тизимларини ягона иқтисодий сиёсат асосида ўзаро боғланган ҳолда ривожланиши ҳамда халқаро савдо-сотикни кенгайтиришда мувофиқликни баҳолаш тизими ва бажариладиган жараёнларни бирхиллаштириш зарурияти юзага келмоқда. Шунинг тасдиқлаб ўтиш керакки, барча тизимлар ва мувофиқликни баҳолаш жараёнларида ҳамма қизиқувчи томонларни жалб қилиш, очиқ-ойдинлик ва

савдода ортикча тўсиқларни яратмаслик, ҳақ-ҳуқуқларини чекламаслигини кўзда тутиб мақсадли ҳаракат қилиниши керак. Шу мақсадда дунё бўйича тан олинган стандартлаштириш бўйича халқаро ташкилоти барча мамлакатлар, яъни ривожланаётган давлатлар учун ҳам мувофиқликни баҳолаш тизимида катор халқаро стандартларни амалий аниқлаб берган.

Мувофиқликни баҳолашнинг асосий тамойиллари ИСО/МЭК 60 халқаро қўлланмасида аниқлаб берилган. Мувофиқликни баҳолаш фаолиятида катнашувчи барча ташкилотлар жумладан, мувофиқликни баҳолаш ва аккредитлаштириш бўйича идоралар қўйидаги шартларни бажаришлари лозим:

- ўз фаолиятини халқаро стандартлар ва ИСО/МЭК қўлланмаларига асослаши;
- ўзининг техник лаёқатлигини ушлаб туриш, яъни мувофиқликни баҳолаш натижаларини тан олишни соддалаштириш ва маҳсулот, жараён, тизим, шахс ёки идораларни ўрнатилган талабларга мувофиқлигини етарли даражада кафолатлаши;
- барча махфий маълумотларни ҳимоялаши;
- ўз фаолиятини касбий ҳалоллик билан амалга ошириши, ахлоқ-одоб тамойилларига риоя қилиш ва камситмасликка қаратилган тарзда ва томонларни барча низоларидан ўзини четга олиши;
- адолатли ва самарали тарзда тезкорлик билан ишлаши, аризани кўриб чиқиши ва баҳолашни бажариши;
- шикоят ёки апелляция ҳолатларини кўриб чиқишда адолатли ва самарали тарзда, тезкорлик билан тўғриловчи амалларни амалга ошириши зарур;
- мувофиқликни баҳолаш, мувофиқлик гувоҳномасини бериш ҳақидаги тасдиқловчи қарор ёки уни рад этилиши, бекор қилиш, тўхтатиш ва фаолиятга чек қўйиш бўйича фаолиятлари ҳақидаги ёзувларни юритиш ҳамда сақлаши;

– барча аризачиларга таклиф этилаётган хизматлар ва унинг учун тўлов шартлари тўғрисидаги маълумотларни такдим қилишга тайёрлиги ҳамда бериладиган сертификатлар, аккредитлаш соҳаси ва ҳоказолар тўғрисида маълумотлар мавжудлиги;

– ўзининг лаёқатлилигини мувофиқ механизмлардан (масалан, аккредитлаш, эксперт баҳолаш) фойдаланиш йўли билан намойиш қилиши;

– мувофиқликни баҳолаш жараёни ҳақида мувофиқ хужжатлаштирилган кўрсатма билан ҳисоботни, зарурият бўлса, аниқланган номувофиқликларни ёки талаб қилинган тўғриловчи амалларни аризачига такдим этиши;

– мувофиқлик белгисидан фойдаланилган ҳолатларда бу белги билан боғлиқ бўлган нотўғри фойдаланишлардан ҳимоя қилиш учун қўллаш қоидалари ёки шартларини таъминлаши;

– ривожланаётган мамлакатлар иштироки билан боғлиқ бўлган муаммоларни ва ривожланган мамлакатлар фаолияти натижаларидан фойдаланишни ҳисобга олиш.

### Сифат менежменти тамойиллари

ISO 9001:2008	ISO 9001:2015
1. Истеъмолчиларга мўлжаллаб иш кўриш	1. Истеъмолчиларга мўлжаллаб иш кўриш
2. Раҳбариятнинг пешқадамлиги	2. Пешқадамлик
3. Ходимларни жалб қилиш	3. Ходимларни жалб қилиш
4. Жараёнли ёндашув	4. Жараёнли ёндашув
5. Менежментга тизимли ёндашув	5. Яхшилаш
6. Доимий яхшилаш	
7. Далилларга асосланиб қарор қабул қилиш	6. Далилларга асосланиб қарор қабул қилиш
8. Таъминотчилар билан ўзаро манфаатли муносабатлар	7. Ўзаро муносабатларни бошқариш

ISO 9001:2015 стандартининг 0-5 бўлимлари фарқи

ISO 9001:2015 DIS бўлимлари	ISO 9001:2008 бўлимлари
01. Умумий қоидалар	01. Умумий қоидалар
02. Сифат менежменти принциплари	03. О'z DSt ISO 9004 билан боғлиқлиги.
03. Жараёнли ёндашув	02. Жараёнли ёндашув
04. PDCA цикли (Режалаштир – Бажар – Текшир – Ҳаракат қил)	02. Жараёнли ёндашув
05. Хавфга йўналтирилган тафаккур	01 Умумий қоидалар
06. Менежмент тизимлари учун мўлжалланган бошқа стандартлар билан ўзаро боғлиқлиги	04. Менежмент тизимлари учун мўлжалланган бошқа стандартлар билан ўзаро боғлиқлиги
1. Қўлланиш доираси	1. Қўлланиш доираси 1.1 Умумий қоидалар
2. Норматив ҳужжатларга ҳаволалар	2. Норматив ҳужжатларга ҳаволалар
3. Атамалар ва таърифлар	3. Атамалар ва таърифлар
4. Ташкилот муҳити. Янги бўлим	Мавжуд эмас
4.1 Ташкилот ва унинг муҳити тўғрисида тушунча.	Мавжуд эмас
4.2 Манфаатдор томонларнинг эҳтиёжлари ва кутилмалари тўғрисида тушунча.	Мавжуд эмас
4.3 Сифат менежменти тизимини қўллаш доирасини белгилаш.	1.2 Қўлланилиши.
4.4 Сифат менежменти тизими ва унинг жараёнлари.	4.1 Умумий қоидалар.
5. Пешқадамлик Бўлимнинг янги номи	5. Раҳбариятнинг жавобгарлиги.

5.1 Пешқадамлик ва тарафдорлик Бўлимнинг янги номи	5.1 Раҳбариятнинг мажбуриятлари.
5.1.1 Сифат менежменти тизимида пешқадамлик ва мажбуриятлар	5.1 Раҳбариятнинг мажбуриятлари.
5.1.2 Истеъмолчилар талабларига мослашиш.	5.2 Истеъмолчилар талабларига мослашиш.
5.2 Сифат соҳасида сиёсатни ишлаб чиқиш.	5.3 Сифат соҳасида сиёсатни ишлаб чиқиш.
5.3 Ташкилотдаги вазифалар, жавобгарлик ва ваколатлар.	5.5.1 Жавобгарлик ва ваколатлар. 5.5.2 Раҳбариятнинг вакили.
6. Режалаштириш Бўлимнинг янги номи	5.4.2 Сифат менежменти тизимини режалаштириш.
6.1 Хавф ва имкониятларга нисбатан ҳаракатлар.	Мавжуд эмас
6.2 Сифат соҳасидаги мақсадлар ва уларга эришишни режалаштириш.	5.4.1 Сифат соҳасидаги мақсадлар. 5.4.2 Сифат менежменти тизимини режалаштириш.
6.3 Ўзгартишларни режалаштириш	5.4.2 (б) сифат менежменти тизими режалаштирилса ва унга ўзгартишлар киритилса, сифат менежменти тизими яхлитлиги сақланишини таъминлаши керак.

### 2.3.2. ISO 9001:2015 стандартининг 7-8 бўлимлари фарқи

Солиштириш учун ISO 9001:2015 стандартини ISO 9001:2008 стандартидан фарқи қуйидагича:

ISO 9001:2015 DIS бўлимлари	ISO 9001:2008 бўлимлари
7. Таъминлаш воситалари. Янги бўлим	Мавжуд эмас

7.1 Ресурслар Номи ўзгартирилган.	6. Ресурслар менежменти.
7.1.1 Умумий қоидалар.	6.1 Ресурслар билан таъминлаш.
7.1.2 Инсон ресурслари Человеческие ресурсы.	6.2 Инсон ресурслари.
7.1.3 Инфратузилма.	6.3 Инфратузилма.
7.1.4 Жараёнларнинг ишлаши учун муҳит.	6.4 Ишлаб чиқариш муҳити а.
7.1.5 Мониторинг ва ўлчашлар учун ресурслар.	7.6 Мониторинг ва ўлчашлар учун асбоб-ускунани бошқариш.
7.1.6 Ташкилотнинг билимлари.	Мавжуд эмас
7.2 Лаёқатлилик.	6.2.2 Лаёқатлилик, тайёргарлик ва хабардорлик.
7.3 Хабардорлик.	6.2.2 Лаёқатлилик, тайёргарлик ва хабардорлик. 5.3 Сифат соҳасидаги сиёсат.
7.4 Ахборот алмашиш.	5.5.3 Ички ахборот алмашинуви.
7.5 Ҳужжатлаштирилган ахборот 7.5.1 Умумий қоидалар 7.5.2 Яратиш ва долзарблаштириш. 7.5.3 Ҳужжатлаштирилган ахборотни бошқариш.	4.2 Ҳужжатларга қўйиладиган талаблар. 4.2.1 Умумий қоидалар я. 4.2.2 Сифат бўйича қўлланма. 4.2.3 Ҳужжатларни бошқариш. 4.2.4 Ёзувларни бошқариш.
8. Жараёнлар. Бўлимнинг номи ўзгарган	7. Маҳсулот ишлаб чиқариш (маҳсулотнинг ҳаётий цикли).
8.1 Маҳсулотлар ва хизматларнинг ҳаётий цикли босқичларидаги фаолиятни режалаштириш ва бошқариш.	7.1 Маҳсулотлар ва хизматларнинг ҳаётий цикли босқичларидаги фаолият



<p>8.2 Маҳсулотлар ва хизматларга доир талаблар</p> <p>8.2.1 Истеъмолчилар билан алоқа.</p> <p>8.2.2 Маҳсулотлар ва хизматларга тегишли бўлган талабларни белгилаш.</p> <p>8.2.3 Маҳсулотлар ва хизматларга доир талабларни таҳлил қилиш.</p>	<p>7.2 Истеъмолчи билан боғлиқ бўлган жараёнлар.</p> <p>7.2.1 Маҳсулотга тегишли талабларни аниқлаш.</p> <p>7.2.2 Маҳсулотга тегишли талабларни таҳлил қилиш.</p> <p>7.2.3 Истеъмолчилар билан алоқа.</p>
<p>8.3 Маҳсулотлар ва хизматларни лойиҳалаштириш ва ишлаб чиқиш.</p> <p>8.3.1 Умумий қоидалар.</p>	<p>7.3 Лойиҳалаштириш ва ишлаб чиқишни режалаштириш.</p>
<p>8.3.2 Лойиҳалаштириш ва ишлаб чиқишни режалаштириш.</p>	<p>7.3.1 Маҳсулотлар ва хизматларни лойиҳалаштириш ва ишлаб чиқиш</p>
<p>8.3.3 Лойиҳалаштириш ва ишлаб чиқиш учун кириш маълумотлари.</p>	<p>7.3.2 Лойиҳалаштириш ва ишлаб чиқиш учун кириш маълумотлари</p>
<p>8.3.4 Лойиҳалаштириш ва ишлаб чиқишни бошқариш воситалари.</p>	<p>7.3.4 Лойиҳалаштириш ва ишлаб чиқишни таҳлил қилиш.</p> <p>7.3.5 Лойиҳалаштириш ва ишлаб чиқишни верификатлаш.</p> <p>7.3.6 Лойиҳалаштириш ва ишлаб чиқишни валидатлаш.</p>
<p>8.3.5 Лойиҳалаштириш ва ишлаб чиқишнинг чиқиш маълумотлари</p>	<p>7.3.3 Лойиҳалаштириш ва ишлаб чиқиш учун чиқиш маълумотлари.</p>
<p>8.3.6 Лойиҳалаштириш ва ишлаб чиқишдаги ўзгаришлар.</p>	<p>7.3.7 Лойиҳалаштириш ва ишлаб чиқиш ўзгаришларини бошқариш.</p>
<p>8.4 Ташқи таъминловчилар томонидан етказиб бериладиган жараёнлар, маҳсулотлар ва хизматларни бошқариш.</p>	<p>7.4 Сотиб олиш.</p>

8.4.1 Умумий қоидлар.	7.4.1 Сотиб олиш жараёни.
8.4.2 Бошқариш тури ва даражаси.	7.4.1 Сотиб олиш жараёни. 7.4.3 Сотиб олинган маҳсулотни верификатлаш.
8.4.3 Ташқи таъминловчиларга тақдим қилинадиган ахборот.	7.4.2 Сотиб олиш бўйича ахборот.
8. Маҳсулотни ишлаб чиқариш ва хизматлар кўрсатиш. Бўлим номи ўзгарган	7.5 Ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатишни таъминлаш.
8.5.1 Маҳсулотни ишлаб чиқариш ва хизматлар кўрсатишни бошқариш.	7.5.1 Ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатишни бошқариш. 7.5.2 Ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатишни таъминлаш жараёнларини валидатлаш.
8.5.2 Идентификатлаш ва кузатувчанлик.	7.5.3 Идентификатлаш ва кузатувчанлик.
8.5.3 Истеъмолчилар ёки ташқи таъминловчиларнинг мулки.	7.5.4 Истеъмолчилар мулки.
8.5.4 Сақлаш.	7.5.5 Маҳсулотни сақлаш.
8.5.5 Етказиб беришдан кейинги фаолият.	Мавжуд эмас
8.5.6 Ўзгартишларни бошқариш.	Мавжуд эмас
8.6 Маҳсулотлар ва хизматларни ишлаб чиқариш	8.2.4 Маҳсулотни мониторинг қилиш ва ўлчаш.
8.7 Жараёнларнинг номувофиқ натижаларини бошқариш.	8.3 Номувофиқ маҳсулотни бошқариш.

### 2.3.3. ISO 9001:2015 стандартининг 9-10 бўлимлари фарқи

Солиштириш учун ISO 9001:2015 стандартини ISO 9001:2008 стандартдан фарқи қуйидагича:

<b>ISO 9001:2015 DIS бўлимлари</b>	<b>ISO 9001:2008 бўлимлари</b>
9. Фаолият натижаларини баҳолаш.	8. Ўлчаш, таҳлил қилиш ва яхшилаш.
9.1 Мониторинг, ўлчаш, таҳлил қилиш ва баҳолаш	8. Ўлчаш, таҳлил қилиш ва яхшилаш.
9.1.1 Умумий қоидалар	8.1 Умумий қоидалар.
9.1.2 Истеъмолчиларнинг қониққанлиги.	8.2.1 Истеъмолчиларнинг қониққанлиги.
9.1.3 Таҳлил қилиш ва баҳолаш.	8.4 Маълумотларни таҳлил қилиш.
9.2 Ички аудит.	8.2.2 Ички аудит.
9.3 Раҳбарият томонидан таҳлил қилиш	5.6 Раҳбарият томонидан таҳлил қилиш.
10. Яхшилаш	8. Ўлчаш, таҳлил қилиш ва яхшилаш.
10.1 Умумий қоидалар.	8.1 Умумий қоидалар.
10.2 Номувофикликлар ва тузатиш ҳаракатлари	8.5.2 Тузатиш ҳаракатлари.
10.3 Доимий яхшилаш.	8.5.1 Доимий яхшилаш.

Халқаро миқёсда сертификатлаштиришнинг ташкилий-услубий таъминотини Халқаро стандартлаштириш ташкилоти (ISO)нинг Сертификатлаштириш ва сифат бўйича Қумитаси (CASCO) амалга ошириб келади. CASCO ишларида 50 га яқин мамлакат ва қарийиб 20 та кузатув мамлакатлар иштирок этишади. Қумита фаолиятининг асосий йўналишлари қуйидагилар:

– турли мамлакатларда сифатни таъминлаш тизими ва маҳсулотларнинг мувофиқлигини баҳолаш усуллариغا ўрнатилган талабларини ўрганиш;

– маҳсулот, жараёнлар, хизматларни сертификатлаштириш ва инспекцион назорати, синашлар бўйича шунингдек, сифатни таъминлаш тизимлари ва сертификатлаштириш бўйича идорлар, синов лабораторияларини баҳолаш ва фаолияти бўйича қўлланмалар тайёрлаш;

– миллий ва ҳудудий сифатни таъминлаш тизимларини қабул қилиш ва ўзаро тан олинисига кўмаклашиш ҳамда сифат тизими, сертификатлаштириш, текшириш, синашга халқаро стандартлардан фойдаланишга ёрдамлашиш.

ISO ташкилоти сертификатлаштириш соҳасидаги услубий муаммоларни бартараф этиш бўйича чора-тадбирларни ишлаб чиқиш билан шуғулланади. Сертификатлаштириш соҳасида асос бўлувчи ISO/IEC 28 «Учинчи томон маҳсулотни намунавий сертификатлаштириш тизимлари умумий қондаси» қўлланма ҳисобланиб, сертификатлаштириш миллий тизимларини яратиш бўйича тавсиялар келтирилган. Қўлланма ISO ва Халқаро электротехника комиссияси (IEC) ҳамкорлик қилишига мисол бўла олади. Бу ҳамкорлик халқаро савдони ривожлантириш мақсадида икки томонлама ва кўп томонлама келишувни тузишга кўмаклашишга йўналтирилган. Яратилган сертификатлаштириш миллий тизимларини уйғунлаштириш тамойиллари асосида иккита йўл билан бунга эришиш мумкин. Биринчиси, IEC халқаро сертификатлаштириш тизимига мамлакатларни қўшиш бўлса, иккинчиси эса, ISO тавсия этаётган ягона сертификатлаштириш ташкилий-услубий тамойилларидан кенг фойдаланиш лозим.

Сертификатлаштиришни ривожлантириш ва бошқа тизимларни билан уйғунлаштириш учун қуйидаги ишларни амалга ошириш лозим:

Худудий сертификатлаштириш ва худудий даражада сертификатлаштириш қоидаларини уйғунлаштириш

Мамлакатда амалдаги сертификатлаштириш тизимини такомиллаштириш концепциясни ишлаб чиқиш.

Техник тўсиқларни бартараф этиш савдода мувофиқликни тасдиқлаш бўйича ишлар натижаларини ўзаро тан олиш тўғрисидаги келишувни осонлаштиради, яъни мамлакатлар сонига боғлиқ ҳолда, бошқа томонлар фаолияти натижаларини бир томонлама, икки томонлама ва кўп томонлама тан олиниши мумкин.

Тан олиш бўйича келишув, яъни бошқа томонлама тақдим қилинган мувофиқликни баҳолаш тизимларида ўрнатилган функционал элементларининг бир нечтаси ёки биттасини қўллашдан олинган бир томонли натижаларни қўллаш асосидаги келишув деб юритилади.

Бу мувофиқликни тасдиқлаш натижаларини тан олишнинг мазмуни умумий натижаларга алоқадорлик, нафақат синовга (синов бўйича келишув) ёки фақат назоратга (назорат бўйича келишув) сифатида тан олиш мумкин. Тан олиш бўйича келишув халқаро, худудий ва миллий даражаларда бўлиши мумкин. Бир томонлама келишув бир томон ишларининг натижаларини кўп томонли қабул қилишдан иборат бўлади. Икки томонлама келишув мазмуни, ўзаро тан олиш бўйича келишув бўлиб, у ҳар бир томон ишлари натижаларини бошқа томонлар қабул қилинишини қамраб олади. Кўп томонлама келишув бу ишлар натижаларини икки томондан кўпроқ ўзаро тан олиш тўғрисидаги келишишдир. Бунга стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш ва аккредитлаштириш бўйича Евроосиё доирасида давлатлараро кенгаши 1992 йилда мустақил давлатлар ҳамдўстлиги (МДХ) мамлакатларининг ҳукуматлари Келишув қабул қилишди.

Ушбу маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва технологик жараёнларининг параметрларини сифат ва хавфсизлик нуқтаи назардан назорат қилиш орқали тайёр маҳсулотнинг сифати ва хавфсизлиги таъминланади. Буни асослаш ва истеъмочиларга тақдим этишда ушбу маҳсулотлар учун техник регламентлар ва тегишли талабларни ўрнатиш муҳим ўрин тутади.

Юқорида келтирилганлардан келиб чиқиб, ушбу битирув малакавий ишида қандолат маҳсулотларининг синфланиши, тавсифлари ва ишлаб чиқиш

технологик жараёнларининг таҳлили асосида сифат ва хавфсизлигини таъминлаш масалари кўриб чиқилади.

Ҳозиги кунда сертификатлаштириш масалалари бўйича қуйидаги ташкилотлар шуғулланишмоқда: Халқаро стандартлаштириш ташкилоти (ИСО) ва унинг қисми бўлмиш мувофиқликни баҳолаш бўйича Қумита ИСО/КАСКО, Халқаро электротехника комиссияси (МЭК) ва бу билан алоққада ишловчи Электр қурилмалари мувофиқлигини сертификатлаштириш бўйича Халқаро комиссия (СЕЕ); Савдо ва тариф бўйича Бош келишуви (ГАТТ); Халқаро савдо ташкилоти (ВТО); БМТ нинг Европа иқтисодий комиссияси (ЕЭК. ООН); Халқаро савдо маркази (МТЦ); Ривожланиш ва савдо бўйича БМТ Конференцияси (ЮНКТАД); Синов лабораторияларини аккредитлаш бўйича Халқаро конференция (ИЛАК) ва бошқалар.

#### **Фойдаланилган адабиётлар руйхати**

1. ISO 9000:2015 Сифат менежменти тизими. Атамалар ва тушунчалар».
2. ISO 9001:2015 Сифат менежменти тизими. Талаблар.
3. Мазур, И. И. Управление качеством: учеб. пособие для вузов по специальности "Управление качеством" И. И. Мазур, В. Д. Шапиро. - 5-е изд., стер.. - М.: Омега-Л, 2008. - 399 с.
4. Менеджмент качества экспорта: Книга ответов для предприятий-экспортеров малого и среднего бизнеса. – Б.: Аль Салам, 2005.-318 с. (Секреты торговли).
5. ISO/IEC 90003 Software engineering — Guidelines for the application of ISO 9001:2008 to computer software

## KATTALIKLAR QIYMATINING ANIQLASH JARAYONINING BAJARILISHI

*Shertaylaqov G.M., dots. JizPI*

*Ziyodullayeva O.M., 2-kurs magistrant JizPI*

**Kalit soʻzlar:** namligini aniqlash, oʻlchovchi asboblar, elektrik singdiruvchanlik, litiy eritmasi, dielkometrik, elektr va mexanik parametr, ermorezistorlar, radioizotop nam oʻlchagichlar.

**Annotatsiya:** Materialning namligi uning massa birligidagi absolut yoki nisbiy namligi bilan belgilanishi. Jismning absolut namligi deb, uning birlik massasidagi suv bugʻlari massasiga, nisbiy namlik deb, absolut namlikning boʻlishi mumkin boʻlgan eng katta namlikka nisbatiga aytilishi yoritib berilgan.

Hayotda mavjud jonli, jonsiz tabiatdagi obʻektlar va hodisalarning tavsiflariga nomlar beriladi. Shu nomlar yordamida bu tavsiflar orasidagi tafovutlar belgilanadi. Shunday qilib “u narsa nima, bu narsa nima?” degan savollarga javob boʻluvchi taʼriflarga ega tushunchalar paydo boʻladi. Tarix davomida tushunchalar soni toʻxtovsiz oshib boradi va hozir ham oshib bormoqda. Baʼzi hollarda tushuncha oʻrniga fizikaviy kattalikni qoʻllash imkoni mavjud boʻladi. Bunda tegishli tavsiflar shunday boʻlishi kerakki, keyin uning uchun birlikni aniqlash va oʻlchashlarni bajarish mumkin boʻlishi lozim. Unda bu kattaliklar uchun matematik ifodalar tarzida tabiat qonunlari shakllantiriladi. Bu matematikaning umumiy qoidalari boʻyicha hisob-kitoblar olib borish imkonini beradi.

Aytish mumkinki kattaliklar oʻlchangan deb qaraladi, agar qandaydir birlik shu kattalik ichida necha marta joylashgani maʼlum boʻlsa. Birlikning kattalik ichida necha marta joylashgani kattalikning sonli qiymati  $\{G\}$  hisoblanadi. Agar ramziy ravishda kattalik  $G$  ning birligini  $[G]$  deb belgilasak (vaqtning birligi 1 sekund, tokning birligi 1 Amper), unda

$$\{G\} = \frac{G}{[G]}$$

Sonli qiymat sof son hisoblanib, unda qandaydir qo‘shimcha ma‘lumot yo‘q yo‘q bo‘ladi. Bu ifodani,

$$G = \{G\}[G] \quad (2)$$

ko‘rinishda ham berish mumkin bo‘ladi.

Shuning uchun kattalik  $G$  ning qiymatini ko‘rsatish (o‘lchangan qiymatini ko‘rsatish) tegishli birlikni ham ko‘rsatishni taqozo qiladi. Ya‘ni o‘tkazgichdagi elektr toki  $I$  uning birligi 1 Amper (1 A) dan 10 marta katta bo‘lsa, unda tok  $I = 10$  A ga teng bo‘ladi (ta‘kidlaymizki,  $10 [A]$  emas, lekin doimo  $10 [I] = 10 A$ ).

Noqulayliklarga olib keluvchi o‘ta katta yoki o‘ta kichik (10 ga nisbatan) tartibli son qiymatlar birlikning eski nomli yangi razryadlari yordamida qo‘shimchalar kiritish bilan qisqartirilib ifodalanadi (shunday yangi birliklar paydo bo‘ladi, masalan,  $1 \text{ mm}^3 = 1 \cdot (10^{-3} \text{ m})^3 = 10^{-9} \text{ m}^3$ ) ko‘rinishda berish mumkin. Fizikaviy kattalikning o‘zi bunda o‘zgarmaydi, chunki

$$G = \{G\}[G] = \{FG\}[G/F] = \{G'\}[G']. \quad (3)$$

Agar birlikni  $F$  marta kichraytirsak, unda sonli qiymat ham  $F$  marta oshadi. Fizikaviy kattalikning bunday invariantliginafaqat birlikni o‘n darajasi qandaydir songa o‘zgartirganda, balki ushbu birlikni boshqa o‘zgaritirishlarida ham, masalan, metrni dyuymga o‘zgartirganda ham saqlanib qoladi.

Kattaliklarning ta‘rifini keltirishdan oldin ularning mohiyatiga muqaddima keltirsak.

Yon-veringizga bir nazar tashlang, har xil buyumlarni, jonli va jonsiz predmetlarni ko‘rasiz. Garchi bu sanab o‘tilganlar bir-birlaridan tubdan farq qilsa ham hozir ko‘rishimiz kerak bo‘lgan xossalar va xususiyatlar bo‘yicha ulardagi muayyan umumiylikni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, ruchka, stol va do‘stingizni olaylik. Bular bir-biridan qanchalik o‘zgacha bo‘lmasin, lekin o‘zlarida shunday bir



umumiylikni kasb etganki, bu umumiylik ularning uchalasida ham bir xilda tavsiflanadi. Agarda gap ularning katta-kichikligi xususida boradigan bo'lsa, biror bir yo'nalish bo'yicha olingan va aniq chegaraga (oraliqqa) ega bo'lgan makonni yoki masofani tushunamiz. Aynan mana shu xossa uchala ob'yekt uchun bir xil ma'noga ega. Ushbu ma'no nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, ular orasidagi tafovut faqat qiymatdagina bo'lib qoladi. Yoki og'irlik tushunchasini, ya'ni misol tariqasida olingan ob'yektlarning Erga tortilishini ifodalaydigan xususiyatini oladigan bo'lsak ham, mazmunan bir xillikni ko'ramiz. Bunda ham ular orasidagi tafovut ularning Erga tortilish kuchining katta yoki kichikligida, ya'ni qiymatidagina bo'ladi. Biz buni oddiygina qilib **og'irlik** deb atab qo'yamiz. Bu kabi xususiyatlar talaygina bo'lib, ularga **kattalik** nomi berilgan.

Kattaliklar juda ko'p va turli-tuman, lekin ularning barchasi ham ikkitagina tavsif bilan tushuntiriladi. Bu sifat va miqdor tavsiflari.

Sifat tavsifi olingan kattalikning mohiyatini, mazmunini ifodalaydigan tavsif hisoblanadi. Gap masofa borasida ketganda muayyan olingan ob'yektning o'lchamlarini, uzun-qisqaligini yoki baland-pastligini bildiruvchi xususiyatni tushunamiz, ya'ni ko'z oldimizga keltiramiz. Buni oddiygina bir tajribadan bilishimiz mumkin. Bir daqiqaga boshqa ishlaringizni yig'ishtirib, ko'z oldingizga og'irlik va temperatura nomli kattaliklarni keltiring... Xo'sh, ularning sifat tavsiflarini seza oldingizmi. Bir narsaga ahamiyat bering-a, og'irlik deganda qandaydir bir mavhum, og'ir yoki engil ob'yektni, aksariyat, tarozi toshlarini ko'z oldiga keltirgansiz, temperatura to'g'risida gap borganda esa, issiq-sovuqlikni bildiruvchi bir narsani gavdalantirgansiz. Aynan mana shular biz sizga tushuntirmoqchi bo'lgan kattalikning sifat tavsifi bo'lib hisoblanadi.

Endi olingan ob'yektlarda biror bir kattalik to'g'risida so'zlaydigan bo'lsak, bu ob'yektlar o'zida shu kattalikni ko'p yoki kam "mujassamlashtirganligini" shohidi bo'lamiz. Bu esa kattalikning miqdor tavsifi bo'ladi.

Mana endi kattalikning ta'rifini keltirishimiz mumkin:

**Kattalik** - sifat tomonidan ko'pgina fizikaviy ob'yektlarga (fizikaviy tizimlarga, ularning holatlariga va ularda o'tayotgan jarayonlarga) nisbatan umumiy bo'lib, miqdor tomonidan har bir ob'jekt uchun xususiy bo'lgan xossadir.

Ta'rifda keltirilgan xususiylik biror ob'jektning xossasi ikkinchisirikiga nisbatan ma'lum darajada kattaroq yoki kichikroq bo'lishini ifodalaydi.

Biz o'rganayotgan metrologiya fani aynan mana shu kattaliklar, ularning birliklari, o'lchash texnikasining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. "Kattalik" atamasidan xossaning faqat miqdoriy tomonini ifodalash uchun foydalanish to'g'ri emas (masalan, "massa kattaligi", "bosim kattaligi" deb yozish), chunki shu xossalarning o'zi kattalik bo'ladi. Bunda "kattalik o'lchami" degan atamani ishlatish to'g'ri hisoblanadi. Masalan, ma'lum jismning uzunligi, massasi, elektr qarshiligi va hokazolar.

Har bir fizikaviy ob'jekt bir qancha ob'jektiv xossalar bilan tavsiflanishi mumkin. Ilm-fan taraqqiyoti va rivojlanishi bilan bu xossalarni bilishga talab ortib bormoqda. Hozirga kelib zamonaviy o'lchash vositalari yordamida 70 dan ortiq kattalikni o'lchash imkoniyati mavjud. Bu ko'rsatkich 2050 yillarga borib 200 dan ortib ketishi bashorat qilinmoqda.

Ko'pincha kattalikning o'rniga parametr, sifat ko'rsatkichi, tavsif (xarakteristika) degan atamalarni ham qo'llanishiga duch kelamiz, Lekin bu atamalarning barchasi mohiyatan kattalikni ifodalaydi.

Muayyan guruhlardagi kattaliklarning orasida o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lib, uni fizikaviy bog'lanish tenglamalari orqali ifodalash mumkin. Masalan, vaqt birligidagi o'tilgan masofa bo'yicha tezlikni aniqlashimiz mumkin. Mana shu bog'lanishlar asosida kattaliklarni ikki guruhga bo'lib ko'riladi: asosiy kattaliklar va hosilaviy kattaliklar.

Asosiy kattalik deb ko'rilayotgan tizimga kiradigan va shart bo'yicha tizimning boshqa kattaliklariga nisbatan mustaqil qabul qilib olinadigan kattalikka aytiladi. Masalan, masofa (uzunlik), vaqt, temperatura, yorug'lik kuchi kabilar.

Hosilaviy kattalik *deb tizimga kiradigan va tizimning kattaliklari orqali ifodalanadigan kattalikka aytiladi*. Masalan, tezlik, tezlanish, elektr qarshiligi, quvvat va boshqalar.

Har bir xossa ko‘p yoki kam darajada ifodalanishi, ya’ni miqdor tavsifiga ega bo‘lishi mumkin ekan, demak bu xossani o‘lchash ham mumkin. Bu haqda buyuk italiyalik olim Galileo Galilei “O‘lchash mumkin bo‘lganini o‘lchang, mumkin bo‘lmaganiga esa imkoniyat yarating” degan edi.

Kattaliklarning sifat tavsiflarini rasmiy tarzda ifodalashda o‘lchamlikdan foydalanamiz.

**Kattalikning o‘lchamligi** *deb, shu kattalikning tizimdagi asosiy kattaliklar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadigan va proporsionallik koeffitsienti 1 ga teng bo‘lgan ifodaga aytiladi*.

Kattaliklarning o‘lchamligini dimension - o‘lcham, o‘lchamlik ma’nosini bildiradigan (ingl.) so‘zga asoslangan holda dim simvoli bilan belgilanadi.

Odatda, asosiy kattaliklarning o‘lchamligi mos holdagi bosh harflar bilan belgilanadi, masalan,

$$\dim l = L; \quad \dim m = M; \quad \dim t = T.$$

Hosilaviy kattaliklarning o‘lchamligini aniqlashda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

1. Tenglamaning o‘ng va chap tomonlarining o‘lchamligi mos kelmasligi mumkin emas, chunki, faqat bir xil xossalargina o‘zaro solishtirilishi mumkin. Bundan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, faqat bir xil o‘lchamlikka ega bo‘lgan kattaliklarnigina algebraik qo‘shishimiz mumkin.

2. O‘lchamliklarning algebrai ko‘payuvchandir, ya’ni faqatgina ko‘paytirish amalidan iboratdir:

2.1. Bir nechta kattaliklar ko‘paytmasining o‘lchamligi ularning o‘lchamliklarining ko‘paytmasiga teng, ya’ni:  $A, B, C, Q$  kattaliklarining qiymatlari orasidagi bog‘lanish  $Q = ABC$  ko‘rinishda berilgan bo‘lsa, u holda

$$\dim Q = (\dim A)(\dim B)(\dim C).$$

2.2. Bir kattalikni boshqasiga bo'lishdagi bo'linmaning o'lchamligi ularning o'lchamliklarining nisbatiga teng, ya'ni  $Q = A/B$  bo'lsa, u holda

$$\dim Q = \dim A / \dim B.$$

2.3. Darajaga ko'tarilgan ixtiyoriy kattalikning o'lchamligi uning o'lchamligini shu darajaga oshirilganligiga tengdir, ya'ni,  $Q = A^n$  bo'lsa, u holda,

$$\dim Q = \dim A^n.$$

Masalan, agar tezlik  $v = l/t$  bo'lsa, u holda

$$\dim v = \dim l / \dim t = L/T = LT^{-1}.$$

Shunday qilib, hosilaviy kattalikning o'lchamligini ifodalashda quyidagi formuladan foydalanishimiz mumkin:

$$\dim Q = L^n M^m T^k \dots,$$

bunda,  $L, M, T, \dots$ , - mos ravishda asosiy kattaliklarning o'lchamligi;  $n, m, k, \dots$ , - o'lchamlikning daraja ko'rsatkichi.

Har bir o'lchamlikning daraja ko'rsatkichi musbat yoki manfiy, butun yoki kasr songa yoxud nolga teng bo'lishi mumkin. Agar barcha daraja ko'rsatkichlari nolga teng bo'lsa, u holda bunday kattalikni **o'lchamsiz kattalik** deyiladi. Bu kattalik bir nomdagi kattaliklarning nisbati bilan aniqlanadigan nisbiy (masalan, dielektrik o'tkazuvchanlik), logarifmik (masalan, elektr quvvati va kuchlanishining logarifmik nisbati) bo'lishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. K.L.Kulikovskiy, V.YA. Kuper. Metodi i sredstva izmereniy: Ucheb. Posobie dlya. VUZOV.-M.
2. A.M. Golovanova, A.V. Kravsov. Teoreticheskie osnovy elektrotexniki. Elektricheskie izmereniya: Uchebnoe posobie dlya studentov elektrotexnicheskix spetsialnostey.-M.: 2006.
3. Shishkin I.F. Metrologiya, standartizatsiya i upravleniye kachestvom. M.,Izd. Standartov.
4. Ismatullayev P.R., To'xtamurodov Z.T., Abdullayev A.X., Saydazova R.A. Standartlashtirish, metrologiya, va sertifikatlashtirishga muqaddima. O'quv qo'llanma. Konstruktor ICHB, Toshkent.

## QATTIQ MODDALARNING NAMLIGINI O`LCHASHDA XATOLIKLARNING MAVJUDLIGI

*Matyakubova P.M., prof., TDTU*

*Murodova S.F., 1-kurs magistrant JizPI*

**Kalit soʻzlar:** qattiq modda, namlig, oʻlchov, elektrik singdiruvchanlik, litiy eritmasi, dielkometrik, elektr va mexanik parametr, termorezistorlar, radioizotop nam oʻlchagichlar.

**Annotatsiya:** Qattiq moddalarning namligi uning massa birligidagi absolut yoki nisbiy namligi bilan belgilanishi. Jismning absolut namligi deb, uning birlik massasidagi suv bugʻlari massasiga, nisbiy namlik deb, absolut namlikning boʻlishi mumkin boʻlgan eng katta namlikka nisbatiga aytilishi yoritib berilgan.

Qattiq moddalarning namligini aniqlash ham ishlab chiqarish sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Qattiq moddalarning namligi uning massa birligidagi absolut yoki nisbiy namligi bilan belgilanadi. Jismning absolut namligi deb, uning birlik massasidagi suv bugʻlari massasiga, nisbiy namlik deb, absolut namlikning boʻlishi mumkin boʻlgan eng katta namlikka nisbatiga aytiladi. Namlikni oʻlchovchi asboblari fiinksiyasiga elektr oʻtkazuvchanlik (konduktometrik), elektrik singdiruvchanlik (dielkometrik) va yordamchi moddalarning elektr va mexanik parametrlarini oʻlchashlar kiradi. Havoning absolut va nisbiy namligini oʻlchashda koʻp hollarda yarim oʻtkazgichli litiy xlorid oʻzgartkichdan foydalaniladi. U himoyalovchi parda (plyonka) bilan qoplangan termorezistordan iborat boʻladi. Termorezistor ustiga litiy xloridning toʻyingan eritmasi shimdirilgan shisha tolali vtulka oʻrnatiladi. Vtulkaning ustiga kumush yoki platina oʻtkazgich oʻrnatilgan. Oʻzgartkich havo kirishi mumkin boʻlgan korpusga joylashtirilgan boʻladi. Oʻzgartkich quyidagicha ishlaydi: maʼlum haroratda litiy eritmasi atrof-muhitning namligini soʻradi. Oʻtkazgichdan elektr toki oʻtganda, litiy xloridning harorati oshadi va u kristallanib, oʻtkazuvchanligi kamayadi. Binobarin, litiy xlorid va uning ichidagi

termorezistoming harorati atrof-muhit haroratiga hamda namligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. Termorezistorlar qarshiligini o'lchash uchun o'zgaras tok kompensatorlaridan foydalaniladi.

Sochiluvchan ashyolar, misol uchun, bug'doy, sholi, dorivorlar, kimyoviy moddalar namligini o'lchash uchun elektrostatik o'zgartkichlar asosida namlik o'lchagichlar ishlab chiqarilgan. Sochiluvchan ashyo(material) namunasi silindrsimon elektrodlar orasiga solinadi. Elektrodlar orasidagi dielektrik singdiruvchanlik o'zgaradi va o'zgaruvchan tok ko'prik muvozanatini buzadi. Ko'prik chiqishidagi kuchlanish dielektrik singdiruvchanlikka, ya'ni namuna namligiga proporsional bo'ladi. Shuning uchun asbob o'lchanayotgan har bir sochiluvchan massa turiga qarab darajalanadi. Hozirgi vaqtda tuproq va boshqa sochiluvchan materiallar namligini uzluksiz o'lchash uchun radioizotop namo'lchagichlar qo'llaniladi. Radioizotop manbai sifatida plutoniy-berilliy birikmalar, qabul qiluvchi uskuna sifatida sekinlashgan neytron hisoblagichlar qo'llaniladi. Radioizotop nam o'lchagichlar bilan tuproq, havo va turli sochiluvchan materiallar namligini 1 dan 100 foiz oraliqgacha, 0,5 foiz xatolik bilan o'lchash mumkin.

Hozirgi vaqtda o'ta yuqori chastotali nam o'lchagichlardan keng foydalanilmoqda. O'ta yuqori chastotali nam o'lchagichning umumiy funksional sxemasi O'ta yuqori chastotali elektromagnit to'lqin hosil qiluvchi generatoridan to'lqin uzatuvchi antenna orqali namligi o'lchanishi lozim bo'lgan ob'ektga beriladi va undan keyin qabul qiluvchi antenna orqali kuchaytirgich kirishiga uzatiladi. Kuchaytirilgan signal tarkibidan namlikka proporsional bo'lgan chastotali signal detektor orqali o'lchash asbobiga beriladi. Antennalar orasiga joylashtirilgan ob'ekt o'ta yuqori chastotali to'lqinda faza bo'yicha siljish hosil qiladi va bu o'lchash zanjiri chiqishidagi signalni o'zgarishiga olib keladi. Shuni aytib o'tish joizki, paxta va uni urug'i hamda boshqa qishloq xo'jalik maxsulotlari va ulaming urug'lari namligini o'ta yuqori chastotali nam o'lchagichlar yordamida aniq o'lchash (sxema va konstruksiyalarini takomillashtirish, mikroprotessor qurilmalari imkoniyatlaridan keng foydalanish, metrologik, ishlatish xarakteristikalarini yaxshilash, metrologik

ta'minotini ishlab chiqish va o'lchash vosita va tizimlarini unifikatsiyalash (bir xillashtirish) dan iborat.

Avtomatik namlikni o'lchash vositasi bevosita o'lchash hamda o'lchash natijalarini hisoblash, qayd qilish, uzatish va boshqaruvchi signallarini ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha ishlami avtomatik tarzda o'zi bajaradigan intellektual o'lchash vositasi bo'lib, xotiraga ega bo'ladi va o'lchash vaqtida berilgan dastur bo'yicha tanlashni, o'lchash natijalariga ishlov berishni, ulami baholashni, shuningdek, boshqa vazifalarni mustaqil ravishda avtomatik tarzda bajaradi. Ma'lumotlar belgilanishiga ko'ra o'lchash vositalari quyidagicha klassifikatsiyalanishi mumkin:

1. Shkalali o'lchash vositalari;
2. Raqamli o'lchash vositalari;
3. O'ziyozar o'lchash vositalari.

Qattiq moddalarning namligini o'lchash vositalarining metrologik tavsiflari O'zRST 8.009-94 da keltirilgan bo'lib, o'lchash vositalarini tanlashda o'ta zarur omillardan hisoblanadi.

Qattiq moddalarning namligini o'lchashda ham xatoliklar o'lchashning asosiy xarakteristikalaridan biri hisoblanadi. GOST (Davlat standarti) 1626-3-70 ga ko'ra o'lchash xatoligi o'lchash natijalarining o'lchanayotgan kattaliklarining haqiqiy qiymatlaridan og'ishidir. O'lchanayotgan kattalikning haqiqiy qiymati uchun namunaviy o'lchash vositalari yordamida aniqlash mumkin bo'lgan qiymat qabul qilinadi. Ba'zan o'lchash vositalari xatoliklarini nolga yaqin ekanligini ko'rsatuvchi va ularning sifatini aks ettiruvchi o'lchash vositalarining aniqligi tushunchasi qo'llaniladi. O'lchash vositalarining xatoligi ifodalanish usuliga ko'ra absolut, nisbiy va keltirilgan xatoliklarga bo'linadi. Qattiq moddalarning namligi o'lchanayotgan kattalikning o'lchash asbobida o'lchangan qiymati bilan shu kattalikning namuna asbob yordamida aniqlangan haqiqiy qiymati orasidagi farq o'lchash asbobining absolut xatoligi deb ataladi. O'lchash asbobining absolut xatoligi o'lchanayotgan kattalik birligida ifodalanadi. Absolut xatolikning teskari ishorasi bilan olingan qiymati tuzatma deb ataladi. Absolut xatolik o'lchash aniqligini yetarli darajada

baholay olmaydi. Haqiqatan ham absolut xatolikka ega bo'lgan har xil aniqliklarga ega. O'lchash aniqligi to'g'risida to'laroq ma'lumotni nisbiy xatolik tushunchasi beradi.

Qattiq moddalarning namligini olchash vositalari xatoliklarning o'zgarish xususiyatiga ko'ra muntazam va tasodifiy xatoliklarga ajratiladi. O'zgarmaydigan yoki ma'lum qonuniyat bilan o'zgaradigan xatoliklar muntazam, tasodifiy qommiyat bilan o'zgaradigani esa tasodifiy xatoliklar deb ataladi. Yuzaga kelish sharoitlariga ko'ra xatoliklar asosiy va qo'shimcha xatoliklarga ajratiladi. Normal sharoitlarda foydalanilayotgan o'lchash vositalarining xatoligi asosiy, o'lchash vositasi ish faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan omillarning birontasining normal qiymatidan og'ishi natijasida yuzaga keladigan xatoligi esa qo'shimcha xatolik deb ataladi. O'lchash vositalari xatoliklari o'lchanayotgan kattalikka bog'liqligiga qarab additiv va multiplikativ xatoliklarga bo'linadi. O'lchanayotgan kattalikning o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan o'lchash vositasining xatoligi additiv (lotincha additio - yig'indi) yoki nol xatolik, o'lchanayotgan kattalikning o'zgarishiga mutanosib o'zgaradigan xatolik multiplikativ (lotincha multiplicatio — ko'paytma) xatolik yoki sezuvchanlik xatoligi deb yuritiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. K.L.Kulikovskiy, V.YA. Kuper. *Metod i sredstva izmereniy: Ucheb. Posobie dlya. VUZOV.-M.*
2. A.M. Golovanova, A.V. Kravsov. *Teoreticheskie osnovy elektrotexniki. Elektricheskie izmereniya: Uchebnoe posobie dlya studentov elektrotexnicheskix spetsialnostey.-M.: 2006.*
3. Шертайлаков F.M.  
<https://turcomat.org/index.php/turkbilmat/article/view/7220/5866>



## HARORATNI O'LCHASH MUAMMOLARIDA ZAMONAVIY YARIMO'TKAZGICHLI HARORAT SENSORLARI

*Isroilov Faxriddin Murodqosimovich. (O'zRes JizPi),*

*Isomiddinov Shohruh O'tkirjon O'g'li<sup>2</sup>. (O'zRes JizPi)*

### **Annotatsiya**

*O'lchash sohasida keng ko'lamda olib borilayotgan ishlar uning fan-texnikadagi va kishilik jamiyatining hayotdagi roli nihoyatda yuqori ekanligidan dalolat beradi. Va, albatta jamiyatning taraqqiyoti o'lchashlarning holati va imkoniyatlari va uning metrologik ta'minoti bilan beligilanadi. O'lchashlar birliligini ta'minlash metrologiyaning eng dolzarb (ustivor) masalalaridan biri hisoblanadi. SHuning uchun ham o'lchashlar natijasida olingan har qanday o'lchash informatsiyasi (o'lchashlar qanday sharoitda, qanday vaqtda, qaerda o'tkazilishidan qat'iy nazar) talab etiladigan aniqlikda o'lchash birliligini ta'minlashda uning ahamiyati va foydasi.*

### **Abstract**

Extensive work in the field of measurement shows that its role in science and technology and in the life of human society is extremely high. And, of course, the development of society is determined by the status and capabilities of measurements and its metrological support. Ensuring the uniformity of measurements is one of the most pressing issues in metrology. Therefore, any measurement information obtained as a result of measurements (regardless of the conditions, time and place of the measurements) is important and useful in ensuring the unity of measurement in the required accuracy.

### **Аннотация**

Общая работа в области измерения показывает , что его роль в науке

технике и в жизни человеческого общества резко высока. И, конечно же, развитие общества определяется состоянием обследования и метрологических наблюдений. Обсуждение единства измерений - одна из самых актуальных проблем метрология. Последовательно, любая информация об измерениях, полученная в результате измерений (независимо от условий, времени и места проведения измерений), важна и полезна для обеспечения единого измерения с требуемой точностью.

Hozirgi vaqtda fan va texnikaning rivojlanishi, resurslarni tejashning texnik vositalari, yoqilg'i -energetika resurslaridan oqilona foydalanish, shuningdek, yarimo'tkazgichli harorat sensorlarisiz ekologik muammolarni muvaffaqiyatli hal etishni tasavvur qilish qiyin. Mavjud termal sensorlar va ularni ishlab chiqarish texnologiyasi amaliy IP - sezuvchanlik va tezlik qobiliyatini o'ziga tortdi. Shu munosabat bilan hozirda olimlar va ishlab chiquvchilar quyidagi ilmiy muammolarga duch kelmoqdalar: harorat sezgichlarining sezuvchanligi va tezligini oshirish; harorat sensori xizmat qilish muddatini uzaytirish; harorat sensorlarining ishlash jarayonini soddalashtirish; haroratni masofadan o'lchash.

Bu muammolar juda yuqori texnologiya fundamental tadqiqot va yangi texnologiyalarni o'z ichiga oladi - harorat sensorlarining yangi sinfini ishlab chiqarishning iCal usullari.

Yuqoridagilarga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkinki, barqaror parametrli, termal va nurlanish qarshiligiga ega kompozit materiallarga asoslangan samarali harorat sensori va namlik ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish dunyodagi o'ta dolzarb vazifa va ayniqsa dolzarb muammo hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi uchun. Degradatsiyasi xususiyatlarini va parametrlari barqarorlikni yaxshilandi bilan bu muammoni hal universal jismoniy miqdor datchiklar mutlaqo yangi sinfini yaratadi - Handaq, kam quvvat iste'moli va minyatürcülük, qo'shimcha yo'qligi - foydalanish uchun qulaylik ta'minlash, Telnyh kuchaytirgich tutashuv, oldindan - sezgirlik va tezlik ostonasida ko'tarilish - mavjud bo'lgan texnologik

sensorlar, chunki ular tashqi ta'sirlarga juda sezgir bo'lgan yangi fizik hodisalar asosida ishlaydi.

Yuqoridagilar bilan bog'liq holda, N va Mn, S atomlarining aralashmalari bilan qo'shimcha diffuzion doping yordamida p va n tipli Si namunalari asosida termal datchiklar yaratish va harorat sezgichlarini olishning optimal texnologik shartlarini aniqlash imkoniyatlarini o'rganish qiziq. takomillashtirilgan xususiyatlar bilan: yuqori sezuvchanlik, past inertlik, o'lchangan harorat oralig'i, tashqi ta'sirlarga yuqori qarshilik, past o'lchov xatosi, kam quvvat sarfi va kichik o'lchamlari.

Umuman olganda, mustaqil amaliy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi natijalarni ajratish mumkin:

-qo'shimcha ravishda Mn, S, Ni qo'shilgan harorat sensorlar ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

- Mn, S, Ni kremniyli harorat sensorlar parametrlariga va ularning degradatsiyalanish xususiyatlariga ta'siri aniqlangan. S -Ni uchun maqbul doping konsentratsiyasi va termodinamik sharoitlar - bu qog'oz, issiqlik sensori samaradorligini oshirishga imkon beradi .

-har xil ekstremal sharoitlarda samarali ishlaydigan harorat sensorlar ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Yarimo'tkazgichli harorat sensorlar (termistorlar)-katta o'tkazuvchanlik qarshilik koeffitsientiga ega bo'lgan yarimo'tkazgichli rezistorlar [1-3]. Eng keng tarqalgani yarimo'tkazgichli harorat sensorlaridir, ularning asosiy xususiyati haroratning ko'tarilishi bilan qarshilikning sezilarli pasayishi, ya'ni qarshilikning salbiy harorat koeffitsientiga ega bo'lgan yarimo'tkazgichli harorat sensorlaridir [2].

Haroratning oshishi bilan yarimo'tkazgich qarshiligining pasayishi turli sabablarga bog'liq bo'lishi mumkin - zaryad tashuvchilar konsentratsiyasining oshishi yoki ularning harakatchanligining oshishi, shuningdek o'zgarishlar o'zgarishi [1].

Birinchi hodisa kovalent yarimo'tkazgichlardan (kremniy, germaniy, silikon karbid,  $A^{III}B^V$  tipli birikmalar va boshqalar) yasalgan yarimo'tkazgichli issiqlik sezgichlariga xosdir . Bunday yarimo'tkazgichlarning salbiy qarshilik koeffitsienti

har qanday ifloslanish ionlanmagan yoki ichki elektr o'tkazuvchanligi bo'lmaganda, harorat oralig'ida kuzatiladi [18]. Ikkala holatda ham yarimo'tkazgichning qarshiligiga bog'liqligi asosan zaryad tashuvchilar konsentratsiyasining o'zgarishi bilan belgilanadi, chunki bu holda ularning harakatchanligining nisbatan zaif o'zgarishini e'tiborsiz qoldirish mumkin. Bu holda yarimo'tkazgich qarshiligining haroratga bog'liqligi ifoda bilan aniqlanadi

$$R = R_{\infty} \exp \frac{B}{T}, \quad (1.1)$$

bu erda  $B$  - harorat sezuvchanlik koeffitsienti;  $R_{\infty}$  - yarimo'tkazgichli harorat sensori materiali va o'lchamlarini doimiy xarakterlovchi. Nopokliklarning to'liq ionlashtirilmaganligi va kompensatsiyasiz bizda:

$$B = \frac{\Delta \mathcal{E}_{\Pi}}{2k} \quad (1.2)$$

qaerda  $\Delta E_{\Pi}$  ifloslik (donorlar yoki Qabul) ning dissotsilanish energiya hisoblanadi.

Nopokliklarning to'liq ionlashtirilmagan kompensatsiyalangan yarimo'tkazgich uchun:

$$B = \frac{\Delta \mathcal{E}_{\Pi}}{k}. \quad (1.3)$$

O'z elektr o'tkazuvchanligi uchun:

$$B = \frac{\Delta \mathcal{E}}{2k} \quad (1.4)$$


bu erda  $\Delta E$  - tarmoqli bo'shliq.

Sanoat tomonidan ishlab chiqariladigan yarimo'tkazgichli harorat sensorlar [3] ning katta qismi ionli bog'lanish ustun bo'lgan o'tish metall oksidlarining polikristalli yarimo'tkazgichlaridan tayyorlanadi. Bu materiallarning elektr o'tkazuvchanligi kovalent yarimo'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanligidan farq qiladi [2]. Qoida tariqasida, bunday yarimo'tkazgichlar to'ldirilmagan elektron qobiqlari va o'zgaruvchan valentligi bilan ajralib turadi [1]. Natijada, ma'lum sharoitlarda oksid hosil bo'lganda (nopokning mavjudligi, stokiyometriyadan chetlanish), har xil zaryadli ionlar bir xil kristallografik pozitsiyalarda paydo bo'ladi. Bu ionlar

orasidagi elektron almashinuvi oksidli yarimo'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanligini tushuntiradi. Bunday almashinuv uchun zarur bo'lgan energiya kichik bo'lgani uchun, bir iondan ikkinchisiga o'tishi mumkin bo'lgan barcha elektronlar (yoki teshiklar) erkin zaryad tashuvchilar hisoblanishi mumkin va ularning kontsentratsiyasi termistorning ish diapazonidagi haroratda doimiy bo'ladi.

Zaryad tashuvchilarning ionlar bilan kuchli o'zaro ta'siri tufayli, oksidli yarimo'tkazgichlarda tashuvchining harakatchanligi ancha past bo'lib, harorat oshishi bilan eksponentli ravishda oshadi. Natijada, oksidli yarimo'tkazgich qarshiligining haroratga bog'liqligi kovalent yarimo'tkazgichlar bilan bir xil bo'ladi, lekin harorat sezuvchanlik koeffitsienti bu holda ularning kontsentratsiyasining o'zgarishini emas, balki zaryad tashuvchilarning harakatchanligining o'zgarishini tavsiflaydi.

Harorat sezuvchanlik koeffitsienti  $B$  - yarimo'tkazgichli harorat sensori haroratining xarakteristikasi ko'rsatkichidagi koeffitsient. Yarimo'tkazgichli harorat sensori moddiy xususiyatlariga qarab, bu koeffitsientning qiymati ish harorati diapazonidagi ma'lum bir harorat sensori uchun deyarli o'zgarmas va har xil turdagi yarimo'tkazgichli harorat sensorlar uchun 700 dan 15000 K gacha.



1-rasm OTK bilan 10 kOm yarimo'tkazgichli harorat sensori qarshiligini o'tkazish .

Harorat sezuvchanlik koeffitsientini yarimo'tkazgichli issiqlik sensori qarshiligini  $T_0$  va  $T$  haroratlarda o'lchash orqali eksperimental tarzda topish mumkin :

$$B = \frac{\ln \frac{R_0}{R}}{\frac{1}{T_0} - \frac{1}{T}} \quad (1.5)$$

Harorat qarshilik koeffitsienti harorat bir darajaga o'zgariganda harorat sensori qarshiligining nisbiy o'zgarishini ko'rsatadi:


$$TKR = \frac{1}{R} \frac{dR}{dT} \quad (1.6)$$

Harorat qarshiligining koeffitsienti haroratga bog'liq, shuning uchun bu qiymat paydo bo'ladigan haroratni ko'rsatuvchi indeks bilan aniqlash kerak. Harorat koeffitsientining haroratga bog'liqligi ifoda bilan tavsiflanadi

$$TKR = -\frac{B}{T^2} \quad (1.7)$$

Har xil yarimo'tkazgichli harorat sensorlaridagi xona haroratidagi qarshilik koeffitsientining qiymati  $-(0,8 \div 6,0) \cdot 10^{-2} \text{ grad}^{-1}$  oralig'ida .

Yarimo'tkazgichli harorat sensori statik tok-kuchlanish xarakteristikasi, termistor va atrof-muhit o'rtasidagi issiqlik muvozanati sharoitida, sensordagi kuchlanish pasayishining u orqali o'tadigan oqimga bog'liqligi bilan belgilanadi.



2-rasm. Yarimo'tkazgichli harorat sensori statik tok-kuchlanish xarakteristikasi.

Guruch. Yarimo'tkazgichli harorat sensorlar 1.6 volt-amperlik xarakteristikalar.

Termistor yordamida haroratni o'lchash uchun u orqali elektr toki o'tishi kerak. Oqim sezgir element (munchoq, disk va boshqalar) orqali o'tishi, ikkinchisining isishiga olib keladi. Sensor elementning ma'lum bir haroratida termal muvozanat yuzaga keladi, ya'ni. harorat sensori ichidagi barcha bo'shatilgan quvvat atrof -muhitga tarqaladi. Shunday qilib, agar biz kichikroq o'lchov xatosini ta'minlamoqchi bo'lsak, kirish quvvatini kamaytirishimiz yoki termistorning atrof -muhit bilan issiqlik uzatish koeffitsientini oshirishimiz kerak, masalan, harorat sensori sezgir elementining sirt bilan yaxshi aloqa qilishini ta'minlash. boshqariladigan ob'ekt haqida.

Maksimal ruxsat etilgan harorat - bu yarimo'tkazgichli harorat sensori parametrlari va xususiyatlarida qaytarilmas o'zgarishlar hali sodir bo'lmaydigan harorat, ya'ni ruxsat etilgan maksimal harorat nafaqat xom ashyoning xususiyatlari, balki uning konstruktsiyasi bilan ham belgilanadi. Xususiyatlari. Maksimal ruxsat etilgan tarqatish quvvati - bu  $20 \pm 1$  °C haroratda sokin havoda joylashgan yarimo'tkazgichli issiqlik sensori oqimning ruxsat etilgan maksimal haroratgacha o'tishi bilan qizib ketadigan quvvat. Atrof -muhit haroratining pasayishi bilan, shuningdek, issiqlik o'tkazuvchanligini yaxshiroq ta'minlaydigan muhitda yarimo'tkazgichli harorat sensori ishlayotganda, tarqatish quvvati ruxsat etilgan

maksimal qiymatdan oshib ketishi mumkin. Termistorlar uchun ruxsat etilgan maksimal quvvat sarflanishi 0,8 dan 1,2 mVt gacha.

Past tok va kuchlanishdagi xarakteristikaning chiziqliligi, yarimo'tkazgichli issiqlik sezgichida chiqarilgan quvvat uning haroratining sezilarli o'zgarishi uchun etarli emasligi bilan izohlanadi. Termistor orqali o'tadigan oqim oshgani sayin, unda tarqalgan quvvat uning haroratini oshiradi. Yarimo'tkazgichli harorat sensori qarshiligi umumiy harorat (atrof -muhit harorati va qizib ketish harorati) bilan belgilanadi. Bu oqimlarda yarimo'tkazgichli issiqlik sensori qarshiligi pasayadi va statik tok-kuchlanish xarakteristikasining chiziqliligi buziladi. Oqimning yanada oshishi va yarimo'tkazgichli issiqlik sezgichining yuqori harorat sezuvchanligi bilan statik volt-amper xarakteristikasining pasayishi kuzatilishi mumkin, ya'ni o'tuvchi oqimning oshishi bilan termistordagi kuchlanishning pasayishi. bu [4].

Yarimo'tkazgichli issiqlik sezgichida chiqarilgan quvvat, sensordan tushadigan kuchlanish pasayishiga qaramay, u orqali o'tadigan oqimning oshishi bilan doimiy ravishda oshib boradi. Natijada, teng quvvatli giperbolalar termistorning joriy kuchlanish xarakteristikasini faqat bitta nuqtada kesib o'tadi. Birinchi turdagi statik tok kuchlanish xarakteristikasiga ega bo'lgan yarimo'tkazgichli harorat sensorlaridagi oqimning oshishi butun xarakteristikada termistorda kuchlanishning oshishiga olib keladi. O'xshash xususiyatlarga ega bo'lgan yarimo'tkazgichli harorat sensorlar, masalan, o'lchash sxemalarida yoki ko'prik pallasida voltajni barqarorlashtirish uchun ishlatiladi [13]. Ikkinchi turdagi statik tok-kuchlanish xarakteristikasiga ega bo'lgan yarimo'tkazgichli harorat sensorlar kuchlanish stabilizatori sxemalarida ishlatilishi mumkin. Uchinchi turdagi statik kuchlanish-tok xarakteristikasiga ega bo'lgan yarimo'tkazgichli issiqlik sezgichlari, odatda, nisbatan katta oqim ko'tarilishi zarur bo'lgan turli xil avtomatik boshqaruv sxemalarida qo'llaniladi.

Haroratni o'lchash muammosining hozirgi holati. Sensor - bu kirish signalini yoki qo'zg'alishni qabul qiladigan va elektr signal bilan javob beradigan qurilma. Datchiklar va tegishli sxemalar har xil jismoniy miqdorlarni, xususan, haroratni o'lchash uchun ishlatiladi. Bu qiymatlar sensorning qo'zg'alishini



belgilaydi va uning chiqishi fizik xususiyatning tegishli o'lchovi bilan shartlanadi va qayta ishlanadi. Sensorlarni bir necha mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin. Signalni sozlash nuqtai nazaridan, sensorlar faol va passiv bo'linadi. Faol sensor tashqi qo'zg'alish manbasini talab qiladi. Yarimo'tkazgichli harorat sensorlar, qarshilik termometrlari kabi rezistorga asoslangan sensorlar faol sensorlardir, chunki ular orqali oqim oqishi kerak va qarshilik qiymatini topish uchun mos keladigan kuchlanish qiymati to'g'ri o'lchanadi.

Passiv (yoki o'z-o'zidan ishlab chiqaruvchi) datchiklar elektr tokini tashqi signal yoki tashqi kuchlanish ishlatmasdan ishlab chiqaradi. Ta'kidlash joizki, bu ta'riflar (faol va passiv) sensordan elektr chiqishini ishlab chiqarish uchun tashqi faol zanjir zarurati bilan bog'liq.

Hozirda mavjud bo'lgan eng keng tarqalgan harorat sensorlar, ularning xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklarini ko'rib chiqing.

Agar siz mutlaqo noldan yuqori haroratda ikkita o'xshash bo'lmagan metallni bog'lasangiz, ular o'rtasida potentsial farq paydo bo'ladi (termoEMF yoki kontakt potentsial farqi), bu ulanish (ulanish) harorati [1,2,3] funktsiyasidir. Ikkita termokupl birikmasini hosil qilish uchun ikkita termojuft simini ikkala uchida bir - biriga ulash lozim. Agar har ikkala ulanish har xil haroratda bo'lsa, u holda kontaktlarning zanglashiga olib keladigan EMF paydo bo'ladi va kontaktlarning zanglashiga olib keladigan EMF qiymati bilan aniqlangan oqim oqadi, agar siz bu kuchlanishni o'lchasangiz, uni harorat farqini hisoblash uchun ishlatishingiz mumkin. birikmalar. Termojuft ikkita birlashma orasidagi harorat farqini o'lchaydi, ulardan birining mutlaq harorati emas. O'lchov birlashmasidagi haroratni faqat boshqa birlashmaning (sovuq) harorati ma'lum bo'lganda o'lchash mumkin. Termojuft tomonidan ishlab chiqarilgan kuchlanishni o'lchash oson emas. Agar siz voltmetrni termojuftga ulasangiz, u holda voltmetrga ulangan simlar ham ulanish nuqtalarida termojuft birikmalarini hosil qiladi. Agar bu qo'shimcha ulanishlarning har ikkalasi ham bir xil haroratda bo'lsa, faqat ular tizimning umumiy EMFida xatolikka yo'l qo'ymaydi.

Termojuftlar - kichik, aniq va nisbatan arzon qurilmalar bo'lib, ular keng harorat oralig'ida ishlaydi [2]. Ayniqsa, agressiv muhitda juda yuqori haroratlarda ( $+ 2300^{\circ} \text{S}$  gacha) o'lchovlarni bajarishda foydalidir. Ular chiqishda millivolt signallarini ishlab chiqaradi va keyingi ishlov berish uchun aniq kuchaytirilishini talab qiladi. Ular, shuningdek, sovuq ulanish haroratini qoplash uchun choralar ko'rishni talab qiladi. Ular boshqa ko'plab sensorlarga qaraganda chiziqli va ularning chiziqli emasligi yaxshi rasmiylashtirilgan. Sanoat termokupllarining [4,5] asosiy xarakteristikalari 1.1-jadvalda ko'rsatilgan (GOST 6616-94 "Termoelektrik konvertorlar").

Termokupllar turli xil ob'ektlarning haroratini o'lchash uchun, shuningdek, avtomatlashtirilgan nazorat va monitoring tizimlarida keng qo'llaniladi. 1.2 - jadvalda har xil turdagi termojuftlarning xususiyatlari va qo'llanilishi keltirilgan. Sensorning mustahkam dizayni, keng harorat oralig'ida ishlash qobiliyati va uning arzonligi tufayli termokupllar yordamida haroratni o'lchash keng tarqalgan. Termojuftlarning keng qo'llanilishi, birinchi navbatda, ularning soddaligi, o'rnatish qulayligi va mahalliy haroratni o'lchash qobiliyatiga bog'liq. Ular boshqa sensorlarga qaraganda ancha chiziqli va ularning chiziqli emasligi hozirda maxsus adabiyotlarda yaxshi o'rganilgan va tasvirlangan. Termojuftlarning afzalliklari orasida past inertlik, kichik harorat farqlarini o'lchash qobiliyati ham bor. Termojuftlar korroziy muhitda yuqori haroratni o'lchash uchun ajralmas hisoblanadi. Termokupllar  $\pm 0,01^{\circ} \text{S}$  darajasida haroratni o'lchashning yuqori aniqligini ta'minlay oladi. Ular mikrovoltdan millivoltgacha bo'lgan diapazonda termoEMF hosil qiladi, biroq ular keyingi ishlov berish uchun barqaror kuchaytirishni talab qiladi.

Hozirgi vaqtda kontakt orqali haroratni o'lchash uchun elektron termometrlar [3] ishlab chiqarilmoqda. Masalan, [4], har xil elektron o'lchagich va har xil konstruktsiyalarda standart xrom-alyuminiy termokupllar (K turi) bo'lgan almashtiriladigan harorat sensorlar to'plamidan iborat bir qator harorat o'lchagichlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. . Seriya uchta asbobdan iborat: ETI-2001, ETI-2002 va ETI-2003 (3-jadval). ETI-2001 qurilmasida 2 ta harorat diapazoni mavjud bo'lib,

ular orasidagi almashish old paneldagi tugmalar yordamida amalga oshiriladi. Tor harorat oralig'i yuqori aniqlik va aniqlik bilan ajralib turadi. ETI-2002 va ETI-2003 asboblarning har biri bitta diapazonga ega. Qurilmalarda HOLD tugmasi mavjud, uning yordamida indikatorlarda o'lchangan harorat qiymatini to'g'rilash mumkin.

3-rasmda ETI-2001 kontaktli termometrining ko'rinishi ko'rsatilgan, uning etkazib berish to'plami termojuftlarni o'z ichiga oladi: sirt (qattiq moddalarning sirt haroratini o'lchash uchun -  $t_{max} = 1000 \text{ }^{\circ}\text{C}$ , suv osti (quyma va suyuqlikning asosiy qismidagi haroratni o'lchash uchun) moddalar -  $t_{max} = 250 \text{ }^{\circ}\text{C}$  va ramkasiz (havo va boshqa gazlarning haroratini o'lchash uchun -  $t_{max} = 250 \text{ }^{\circ}\text{C}$ ).

[1] mualliflari keng foydalanish uchun miniatyura, juda ishonchli va ishlatish uchun qulay bo'lgan Thermapen <sup>TM</sup> termometrini ishlab chiqdilar. Termometrda o'rnatilgan katlanadigan prob mavjud. Haroratni o'lchash diapazoni:  $\sim 49.9 \dots 199.9 \text{ }^{\circ}\text{S}$ .

Haroratni o'lchash uchun faqat harorat sensori bo'lgan maxsus qurilmalar emas, balki haroratni o'lchash funksiyasiga ega universal multimetrlar ham bor [6].



3-rasm. Zamonaviy yarimo'tkazgichli harorat sensorlarining ilg'or dizaynlari

Salbiy harorat koeffitsientli yarimo'tkazgichli termistorlar yoki NTC-termistorlar (NTC-termistorlar) [5] so'nggi paytlarda sezgir harorat sensori sifatida eng ko'p ishlatiladi. Biroq, muammoni umuman hal qilish uchun, ya'ni. nazorat qilinadigan jarayonning harorati oldindan belgilangan qiymatga ko'tarilganda yoki tushganda paydo bo'ladigan elektr signalini olganda, termistor qo'shimcha elektron

sxemalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak, bu esa oldindan belgilangan harorat qiymatini olish muammosini hal qiladi. Rossiya Fanlar Akademiyasi Nazorat fanlari institutida, VZ SENSOR Ltd. bilan birgalikda L shaklidagi tok-kuchlanish xarakteristikasiga ega yarimo'tkazgichli konstruktsiyalar asosida aqlli (funktsional) termistorlar (Z-termistorlar) ishlab chiqilgan. qo'shimcha elektron sxemalarni ishlatmasdan berilgan harorat qiymatini ajratish masalasini hal qila oladi.

## ADABIYOTLAR

1. Guide to the Expression of Uncertainty in measurement: First edition. ISO, Geneva, 1993.
2. Egamberdiev B.E., Nasriddinov S.S., Zikrillaev N.F. «Istochniki pogreshnost izmeritel'naya preobrazovateley na osnove poluprovodnikovyx datchikov i razrabotka metodov ix kompensatsii», «Ximicheskaya texnologiya. Kontrol i upravleniya». 2012, №2.str30-35.
3. ISO/IEC 17025: 1999 General requirements for the competence of testing and calibration laboratories. ISO, Geneva, 1999.
4. Egamberdiev, B. E., Sadiy, SH. A., & Isroilov, M. R. (2021). Elektronno-spektroskopicheskie issledovaniya epitaksialnyx plenok  $\text{cosi}_2$  na kremnii. *Jurnal Fiziko-matematicheskie nauki*, 2(1).
5. Murodkosimovich I. F., Ganisherovich B. A. i Sunnatievich A. B. (2021). Sposob opredeleniya standartnoy pogreshnosti izmereniya izmereniya. *Mejdunarodnyy inzhenernyy Jurnal Issledovaniy i Razrabotok*, 6(ICDSIIL), 5-5.
6. Egamberdiev, B., Isroilov, F., & Rahmatullaev, C. (2020). Humidity sensors based on composite material with nano-dimensional structures. *Euroasian Journal of Semiconductors Science and Engineering*, 2(3), 36.

## СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ МЕТРОЛОГИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ СРЕДСТВ ИЗМЕРЕНИЙ

*Эргашева К.Н.*

*Джиззакх политехнический институт ассистент*

**Аннотация:** На каждом этапе развития человечества все сферы его деятельности претерпевают огромнейшие изменения. Все новые технологии, разработки, входящие в обыденную жизнь человека, становятся более автоматизированными, но в тоже время не более надежными и качественными. Основной тенденцией последних десятилетий является сокращение эксплуатационных затрат для метрологического обеспечения средств измерений. Это реализуется с помощью введения метрологического самоконтроля датчиков - автоматической проверки метрологической исправности в процессе эксплуатации.

**Ключевые слова:** измерение, метрология, внедрение, процесс, результат.

Измерения являются одним из важнейших путей развития научно-технического прогресса, познаний природы и общества человеком. В практической деятельности мы постоянно имеем дело с измерениями, они имеют первостепенное значение во всех сферах производства и потребления, при оценке качества товаров, внедрении новых технологий и управлении ими.

На каждом этапе развития человечества все сферы его деятельности претерпевают огромнейшие изменения. Все новые технологии, разработки, входящие в обыденную жизнь человека, становятся более автоматизированными, но в тоже время не более надежными и качественными. Достижение высокого уровня качества продукции и обеспечение точности и взаимозаменяемости деталей возможно только при

применении технических средств, правил и норм, необходимых для достижения единства и требуемой точности измерения.

Возможность применения результатов измерений для правильного и эффективного решения любой измерительной задачи определяется следующими условиями:

1. Результаты измерений выражаются в узаконенных единицах;

2. Значения показателей точности результатов измерений известны с необходимой заданной достоверностью;

3. Значения показателей точности результатов измерений обеспечивают оптимальное в соответствии с выбранными критериями решение задачи, для решения которой проводились измерения. Если результаты измерений удовлетворяют первым двум требованиям, то о них известно все, что необходимо знать для принятия обоснованного решения о возможности их использования. В этом случае говорят, что обеспечено единство измерений, при котором их результаты выражены в узаконенных единицах, а погрешности не выходят за установленные границы с заданной вероятностью. Третье из перечисленных условий говорит о том, что недостаточная точность измерений приводит к увеличению ошибок контроля, к экономическим потерям, а завышенная – к излишним затратам на приобретение более качественных средств измерений. Следовательно, это не только метрологическое, но и экономическое условие, так как связано с затратами и потерями при проведении измерений, являющихся экономическими критериями. Если соблюдаются все три условия, то говорят о метрологическом обеспечении, под которым подразумевается установление и применение научных и организационных основ, технических средств, правил и норм, необходимых для достижения единства и требуемой точности измерений. Таким образом, метрологическое обеспечение имеет научную, техническую и организационную основы.

Главными проблемами и в тоже время направлениями развития метрологического обеспечения средств измерений, как для Узбекистана, так и для всех стран мира являются:

- 1) стандартизация терминологии,
- 2) систематизация методов метрологического самоконтроля,
- 3) стандартизация методов испытаний.


У всех разработчиков, изготовителей и потребителей средств измерений должен быть один язык общения. В силу быстрого научно-технического прогресса общий язык усилит развитие науки и техники, поставит страны в одинаковое положение с выпуском качественной продукции и добросовестной конкуренции.

Систематизация методов метрологического самоконтроля должна способствовать ускорению разработки новых СИ с метрологическим самоконтролем, акцентировать их особенности, облегчить обмен опытом. К этому направлению примыкает стандартизация требований к СИ с метрологическим самоконтролем. Очевидно, что достоверность его результатов может быть различной в зависимости от принятых разработчиком решений. Для устранения недобросовестной конкуренции важные для потребителя характеристики метрологического самоконтроля, реализованные в датчике, должны быть отражены в документации на него.

Третье направление связано со стандартизацией методов испытаний, доказывающих соответствие характеристик метрологического самоконтроля тем, которые установлены в документации. Стандарт должен обеспечить сопоставимость параметров датчиков, способствовать взаимозаменяемости изделий различных производителей.

Основной тенденцией последних десятилетий является сокращение эксплуатационных затрат для метрологического обеспечения средств измерений. Это реализуется с помощью введения метрологического самоконтроля датчиков - автоматической проверки метрологической исправности в процессе эксплуатации.

Датчик - это конструктивно обособленное устройство, содержащее один или несколько первичных измерительных преобразователей. Метрологический самоконтроль датчика - автоматическая проверка метрологической исправности датчика в процессе его эксплуатации, осуществляемая с использованием принятого опорного значения, формируемого с помощью встроенного в датчик средства (измерительного преобразователя или меры) или выделенного дополнительного параметра выходного сигнала.



Основной задачей, стоящей перед метрологией становится увеличение межкалибровочного интервала до межремонтного интервала установки. Это становится необходимостью в связи с созданием техники, которая должна работать без участия человека несколько лет. В свою очередь при многолетнем использовании датчиков с метрологическим самоконтролем усиливается роль влияющих факторов, что приводит к риску возникновения неисправности. Возникает противоречие. Для уменьшения износа оборудования и снижения риска возникновения брака и аварий проверка метрологической исправности



СИ должна проводиться чаще, а для повышения эффективности эксплуатации оборудования - как можно реже. Принимая во внимание глобализацию рынка СИ и метрологических услуг, необходимо стремиться к тому, чтобы требования, устанавливаемые в национальных стандартах, учитывали зарубежный опыт и содействовали формированию международной нормативной базы.

Для этого и нужно всем разработчикам и пользователям условиться, создать единую нормативную базу, позволяющую в любой момент времени посмотреть использование метрологического датчика с самоконтролем в той или иной области его применения.

Основным решением проблем метрологического обеспечения средств измерения будет являться своевременная, созданная совместно с другими специалистами-метрологами в мире, нормативная база.

Современное состояние метрологического обеспечения требует высокой квалификации специалистов. Механическое перенесение зарубежного опыта в отечественные условия в настоящее время невозможно и специалистам необходимо иметь достаточно широкий кругозор, чтобы творчески подходить к выработке и принятию решений на основе измерительной информации. Это касается не только работников производственной сферы. Знания в области метрологии важны и для специалистов по реализации продукции, менеджеров, экономистов, которые должны использовать достоверно измерительную информацию

ДЕТАЛЛАРНИНГ ЎЛЧАМЛАРИНИ АНИҚЛАШДА ХАТОЛИКЛАР ВА  
УЛАРНИ БАҲОЛАШ

*А.А.Абдурахмонов*

*Жиззах Политехника институти*

**Аннотация:** Ушбу мақолада деталларнинг ўлчамларини аниқлашда хатоликлар ва уларни баҳолаш мамлакатимизнинг барча саноат тармоқлари учун ҳамда турли ҳил жиҳозлар ишлаб чиқаришни тақоза қилиш сабаблари ҳақида маълумотлар ёритилган.

**Аннотация:** В данной статье приведены сведения об ошибках в определении размеров деталей и их оценке для всех отраслей промышленности страны, а также о причинах производства различного оборудования.

**Annotation:** This article provides information on errors in determining the dimensions of parts and their assessment for all industries of the country, as well as the reasons for the production of various equipment.

**Kalit soʻzlar:** namligini aniqlash, oʻlchovchi asboblar, elektrik singdiruvchanlik, litiy eritmasi, dielkometrik, elektr va mexanik parametr, ermoresistorlar, radioizotop nam oʻlchagichlar.

Деталларнинг ўлчамларини аниқлашда хатоликлар ва уларни баҳолаш мамлакатимизнинг барча саноат тармоқлари учун турли ҳил жиҳозлар ишлаб чиқаришни тақоза қилмоқда. Деталларни ишлаб чиқаришнинг вазифаси белгиланган мақсадда фойдаланиладиган, пухталиги, чидамлилиги, ишончилиги, давлат стандартларига ва техник талабларга жавоб берадиган юқори сифатли маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва ишлатишдан иборатдир.

Замонавий ишлаб чиқариш ва эксплуатация шароитида метрологик техник назорат хизматчиларидан фақат маҳсулотнинг ишга яроқлилигини аниқлашгина эмас, энг яхши автоматик назорат ва ўлчаш асбобларини ишлата билиш, текшириш жараёнларини механизациялаштириш ҳамда самарали фойдаланишни тақозо этади .



Ўлчаш воситалари конструкциясининг яхшиланиши, ўлчашнинг янги методларидан фойдаланиш натижасида ўлчаш жараёнларининг автоматлаштиришга имкон берадиган янада аниқ ва унумли воситалар яратилмоқда. Актив воситаларнинг яратилиши ва жорий қилиниши сифатсиз маҳсулотлар ишлаб чиқарилишини олдини олиш имконини беради. Ўлчаш жараёнига ва олинган натижаларни ҳисоблашга замонвий ҳисоблаш техникаси кенг жорий қилинмоқда. Ҳозирги замон ўлчаш воситаларини ўзлаштириш ва кенг қўлламада жорий этишни чуқур назарий билимли мутахассислар амалга оширади. Ўлчаш воситаларининг метрологик кўрсаткичлари стандартга мувофиқ бажарилади. Ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларни сифат кўрсаткичига салбий таъсир этувчи омиллардан бири ўлчаш хатолигидир. Ўлчаш хатолиги, шунингдек, ишлов бериш хатолиги турли сабаблар туфайли юзага келадиган элементар хатоликлар йиғиндисидан пайдо бўлади. Асбоб ҳосил қиладиган ўлчаш хатолиги ишлатиладиган ўлчаш воситаларидаги мавжуд хатоликларга боғлиқ бўлади. Бу хил хатоликлар пайдо бўлишига асбобнинг принципитал схемаси ёки механизми номукамаллиги туфайли уни тайёрлаш жараёнида йўл қўйилган хатоликлар сабаб бўлади. Ўқиш хатолиги ўлчаш воситалари кўрсатувини ноаниқ ўқиш туфайли юзага келади. Параллаксдан бўладиган хатолик шкала сиртидан маълум масофада жойлашган кўрсаткични кузатиш шароити ўзгариши туфайли пайдо бўлади. Параллакс хатолиги шкаладан кўрсаткичгача бўлган масофага ва кўз нурининг шкала сиртига туширилган нормалдан четга оғишига пропорционал бўлади. 1-расмда қабул қилинган белгилашларга мувофиқ параллакс хатолиги  $\Delta_n = htg\varphi$

бўлади. Кийшайишдан бўладиган хатолик Аббепринципи бузилганда пайдо бўлади.

2-расмда рамкаси қийшайган штангенциркуль тасвирланган. Бундай штангенциркул жағлари орасидаги масофа бир хил эмас. Штангенциркул  $a$  ўлчамга ўрнатилганда рамканинг қийшайиши туфайли унинг жағлари орасидаги ўлчамлар  $b$  ва  $c$  бўлади. ай томонга қийшайишига қараб бу ўлчамлар  $a$  дан катта ёки кичик бўлиши мумкин. Бунда пайдо бўладиган хатолик  $\Delta_a = c - a = L\varphi$  формула бўйича ҳисобланади. Аббе принципи бажарилганда  $L=0$ ,  $\Delta A$  ҳам нолга тенг бўлади. Нормал ўлчаш шароитида четга чиқишда сабабли ҳосил бўлган катталик таъсиридан ўлчаш асбобининг кўрсатиши ўзгаради. Масалан, температура нормал қиймати  $20\text{ }^{\circ}\text{C}$  дан четга оғиши натажасида ўлчаш воситалари деталларининг ва текширилаётган буюмнинг узунлиги ўзгаради. Бунда ўлчаш воситаси деталининг материали билан буюм материалларининг чизиқли кенгайиш коэффициентлари турлича бўлганлиги учун бу ўзгаришлар ҳар хил бўлади. Температура таъсиридан пайдо бўладиган хатолик формула ёрдамида ҳисобланади;

$$\Delta_T = l [\alpha_1(t_1 - 20) - \alpha_2(t_2 - 20)]$$

бунда  $\Delta_T$  - температура таъсиридан пайдо бўладиган ўлчаш хатолиги;  $l$  - ўлчанадиган ўлчам;  $\alpha_1$  ва  $\alpha_2$  - мос равишда ўлчаш воситаси детали билан буюм материалларининг чизиқли кенгайиш коэффициентлари;  $t_1$  ва  $t_2$  - ўлчаш воситаси ва буюмнинг температуралари. Ўлчашларда (шунингдек, тайёрлашда) мунтазам пайдо бўладиган хатоликлар аниқланиши ва керакли тузатишлар киритиб ёки асбобни ростлаб йўқотилиши мумкин. Тасодикий хатоликларни деталларни тайёрлаш ҳамда ўлчашда уларнинг пайдо бўлиш эҳтимоли билан боғловчи қонунлар мавжуд. Улар тасодикий қийматларнинг тақсимланиш қонунлари, деб аталади.



**1-расм.** Ўлчаш жараёнида параллакс ҳодисаси  
**2-расм.** Аббе принципи натижасида пайдо бўлган хатоликлар

қонунлари, деб аталади. Деталларни ишлаб чиқаришда тасодифий хатоликларнинг пайдо бўлиши ва тақсимланиши нормал тақсимланиш қонуни бўйича ёки Гаусс қонуни бўйича содир бўлади. Пайдо бўлиши жуда кўп сабабларга боғлиқ бўлган тасодифий катталиклар бу қонунга бўйсунди.

Трактор-автомобил агрегати шинаси протекторининг ишчи қисмини ейилишини аниқлаш бўйича ўтказилган кўзатувлардан маълум бўлишича, 400 та трактор шинасининг протектор ишчи қисмининг ейилиш ўртача ўлчами 5,15 мм га тенг (1-жадвал). Олинган ўлчаш натижалари график кўринишда тасвирланган (3-расм). Бунинг учун тўғри бурчакли координаталарда қуйидаги белгилаш қабул қилинади.

Т/р	Интервал, мм	Частота m	Частотъ m/n
1	5,00-5,05	3	0,03
2	5,05-5,10	12	0,12
3	5,10-5,15	17	0,17
4	5,15-5,20	34	0,34
5	5,20-5,25	19	0,19
6	5,25-5,30	12	0,12
7	5,30-5,35	3	0,03
	<b>Жами</b>	<b>n = Σ m=100</b>	<b>Σ m/n = 1</b>

**1-жадвал.** МТЗ-82Х трактори (18,4/15-30 Я-319) шинасининг протектор ишчи қисмининг ейилиш ўлчами тақсимоти

Вертикал  $Y$  ўқи бўйлаб масштабда шиналар сони  $N$ , горизонтал  $X$  ўқи бўйлаб ҳар бир шина протектори ишчи қисмининг ўлчами кўйилади. Бу графикдан тақсимланиш қонунига ўтиш учун вертикал ўқнинг ўнг томонига ўлчамларни ўлчашда шиналарда пайдо бўлиш эҳтимоллиги  $m$  ни кўямиз. Эҳтимоллик сифатида воқеа (ўлчам пайдо бўлиш имконият даражасини билдирувчи сон қабул қилинади. Эҳтимоллик бизни қизиқтирадиган воқеа (шиналар, ўлчамлар) нинг уларнинг умумий сонига нисбати каби топилади. Эҳтимолликнинг максимал қийматига (ишончли эҳтимоллик), минимал қиймати эса нолга (воқеа содир бўлмаслик эҳтимоли) тенг бўлиши мумкин. Эҳтимоллик процентларда аниқланиши ва у 100 % дан нолгача қийматга эга бўлиши мумкин.

Нормал тақсимланиш эгри чизигининг ташқи кўриниши тасодифий катталиклар (хатоликлар, ўлчамлар) қонуният ҳақида баъзи хулосалар чиқаришга имкон беради.

Бунда мунтазам хатолик барча ўлчашларда ўзгармасдан қолади. ўп марта ўлчашларда мунтазам хатоликни йўқотиш ёки камайтириш учун шундай шароит яратиш керакки, у тасодифий хатоликка айлансин. Бунинг учун битта ўлчам бир неча асбоблар билан бир марта ўлчанади. Бунда бир асбобнинг мунтазам хатолиги ўлчаш жараёнининг тасодифий хатолигига айланади ва олинган натижаларнинг ўртача қиймати мунтазам ва тасодифий хатоликлари камайган ўлчамига мос келади[5].

Тасодифий катталикларнинг тақсимланиши бошқа қонунларга, масалан, тенг эҳтимоллик, тенг ёнли учбурчак (Симпсон), тенг ўсиб боровчи, Релей қонунларига ҳам бўйсунуши аниқланди.

Хулоса: Машинасозлик ишлаб чиқаришида деталларни ўлчашдаги хатоликларни бартараф этиш(камайтириш) ва уларни баҳолаш метрологик таъминотнинг тавсия этилаётган мавжуд усулларидадан фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлади.

### **Фойдаланилган адабиётлар руйҳати**

1. Исматуллаев П.Р. ва бошқ. Метрология, стандартлаштириш ва сертификатлаштириш. Дарслик, Тошкент, 2015, - 423 б.

## UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMI

*Smetova Jumabiyke*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada uzluksiz talim tizimida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari, pedagogik texnologiyaning jahon miqyosida amaliyotda qo'llash usullari haqida yoritib beriladi.*

**Kalit so'zlar.** *Talim, tarbiya, zamonaviy texnologiyalar, pedagogika.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматриваются преимущества использования современных технологий в системе непрерывного образования, способы применения педагогических технологий на практике во всем мире.*

**Ключевые слова.** *Образование, современные технологии, педагогика.*

**Abstract.** *This article discusses the benefits of using modern technologies in the system of continuing education, ways to apply pedagogical technologies in practice around the world.*

**Key words.** *Education, modern technologies, pedagogy.*

Uzluksiz talim g'oyasi zamonaviy sharoitda, agar umumiy talim bo'lsa, amalga oshirilishi mumkin kasb-hunar maktablari to'plangan tajribani yosh avlodga o'tkazish muammolarini samarali hal qila oladi: axborot bilan ishlash usulini, yangi bilimlarni yaratish usulini, eng muhimi, rivojlanayotgan dunyo to'grisida zarur bilim darajasini saqlab qolish usullarini o'rgatish. . Shunday ekan, "o'qitish" va "o'rganish" jarayonlarini o'zlashtirish uchun har bir o'qituvchi va talaba uch tilda: o'z ona tili, fan tili, texnika tilini bilishi maqsadga muvofiqdir.

Texnologiya - yunoncha technyo (san'at, hunarmandchilik, fan) va logos (tushuncha, o'qitish) so'zlaridan iborat. Chet el so'zlari lugatida: «texnologiya -



ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish usullari va vositalari haqidagi bilimlar majmui». San'at sezgiga, texnologiya ilmga asoslanadi. Hamma narsa san'atdan boshlanadi, texnologiya bilan tugaydi, shunda butun jarayon yana boshlanadi. Tálimdagi zamonaviy texnologiyalar yangi tálim paradigmasini amalga oshirish mumkin bo'lgan vosita sifatida qaraladi. Tálim texnologiyalarini rivojlantirish tendentsiyalari bevosita tálimni insonparvarlashtirish bilan bog'liq bo'lib, bu shaxsning o'zini o'zi anglashining o'zini o'zi amalga oshirishiga yordam beradi. «Tálim texnologiyalari» atamasi «o'qitish texnologiyalari» dan ko'ra ko'proq imkoniyatlarga ega, chunki u shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan tálim jihatini ham anglatadi.[3]

UNESKO hujjatlarida tálim texnologiyasi texnik va inson resurslari hamda ularning o'zaro tásirini hisobga olgan holda o'qitish va o'qitishning butun jarayonini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli usuli sifatida qaraladi. Texnologiyaning bu táriifi, shunga o'xshash ko'plab táriflar kabi, yangi (ekologik, kosmik, axborot) texnologiyalar doimiy ravishda paydo bo'lishiga qaramay, to'liq va aniq deb dávo qila olmaydi.

Umumiy ko'rinishda texnologiya - bu «qanday maqsad» mahsulotning muayyan turi yoki uning komponentida mujassamlanishining puxta o'ylangan tizimi. Masalan, ilmiy va uslubiy adabiyotlardan texnologiyani aniqlashning bázi variantlarini nomlaymiz:

- texnik usul amaliy maqsadlarga erishish;
- inson mavjudligi uchun zarur bo'lgan narsalarni olish uchun qo'llaniladigan usullar majmuasi;
- inson faoliyatini tashkil etish tartiblari va usullari majmui;
- inson xatti-harakatlarini modellashtirish uchun foydalaniladigan vositalar.

O'qitishning zamonaviy yondashuvi uni texnologik asosda qurishdir. Texnologiya yaratilgunga qadar individual mahorat ustunlik qiladi.

Hisoblashning individual mahorati takomillashgani sari “kollektiv ijodkorlik”, “jamoaviy mahorat” rivojlanadi, uning konsentrlangan ifodasi texnologiyadir. Tálimda zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish quyidagi tamoyillarga muvofiq amalga oshirilishi kerak:

- didaktik tizimni ifodalovchi texnologiyaning yaxlitligi tamoyili;
- maqsadlarga erishish uchun muayyan pedagogik muhitda texnologiyani takrorlash printsipi;
- pedagogik tuzilmalarning chiziqli bo’lmasligi tamoyili va tegishli pedagogik tizimlarning o’zini o’zi amalga oshirish mexanizmlariga tásir qiluvchi omillarning ustuvorligi;
- o’quv jarayonini talabaning shaxsiyati va uning bilim qobiliyatiga moslashtirish printsipi;
- umumlashtirilgan bilimlarni shakllantirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratadigan o’quv málumotlarining potentsial ortiqchaligi printsipi.

Shunday qilib, texnologiya yordamida bilim, ko’nikma va malakalarni o’zlashtirish jarayonida shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirishda samarali natijaga erishish mumkin. Texnologik va iqtisodiy texnologiyalar bilan bir qatorda ijtimoiy texnologiyalar ham hayotimizga tinmay kirib kelmoqda. Ular uzoq vaqtdan beri xorijda tan olingan. Ularga qiziqish Bolgariyada 70-80-yillarda ikkita yirik asarning paydo bo’lishi munosabati bilan paydo bo’ldi. Bular N.Stefanovning “Ijtimoiy fanlar va ijtimoiy texnologiya” va M.Markovning “Ijtimoiy boshqaruv texnologiyasi va samaradorligi”. Pedagogik texnologiyalar insonparvarlik xususiyatiga ega. Gumanitar texnologiyaning muhim xususiyati muloqotdir.

Gumanitar texnologiyada muloqot uchun shart-sharoitlar o’qituvchi va o’quvchilarning individual-shaxsiy o’zgarishlarining xarakterini belgilaydigan sub’ektiv - sub’ektiv munosabatlarni ataylab qurish orqali táminlanadi. Bunday o’zaro tásirning natijasi pedagogik jarayon ishtirokchilari eshitishlari, bir-birlarining

mánolarini tushunishlari, qulay muloqot tilini rivojlantirishlari mumkin bo'lgan «holatlar» bo'ladi.[1]

Gumanitar texnologiya inson mehnati maqsadlarining ochiqligi, o'qituvchi faoliyatida manipulyatsiyaning yo'qligi bilan tavsiflanadi. Ochiqlik qo'shma harakatlarning mánosini aniqlashtirish, maqsadni shakllantirish va tanlashda kollegiallik, barcha manfaatdor tomonlarga ko'rib chiqish uchun maqsadlarni taqdim etish, dastlab texnologiya algoritmiga kiritilgan ularni tuzatish imkoniyati orqali táminlanishi mumkin.

Pedagogik texnologiya - amaliyotda amalga oshirilgan aniq pedagogik tizim loyihasidir. Pedagogik texnologiyaning vazifalari:

- bilimlarning chuqurligi va mustahkamligini rivojlantirish, faoliyatning turli sohalarida ko'nikma va ko'nikmalarni mustahkamlash;
- ijtimoiy qimmatli xulq-atvor shakllari va odatlarini rivojlantirish va mustahkamlash;
- texnologik vositalar bilan harakat qilishni o'rganish;
- Texnologik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o'quv vazifalari va ijtimoiy foydali mehnatni tashkil etishda texnologik intizom talablariga qat'iy rioya qilish odatini tarbiyalash.

Pedagogik texnologiya - tushunchasi mahalliy pedagogikada eng ko'p qo'llaniladi, ammo ayni paytda u etarli darajada aniqlanmagan. Zamonaviy tálim amaliyotida ushbu tushuncha, qoida tariqasida, qat'iy bo'lmagan ilmiy taqdimotda qo'llaniladi va takrorlanadigan texnikani, o'qituvchilarning ish usullarini bildiradi.

Texnologiya kontseptsiyasining keng tarqalgan murojaati, birinchi navbatda, pedagogik faoliyatning takrorlanuvchanligi belgisiga asoslanadi. Ijtimoiy nuqtai nazardan, bu belgi texnologiyaning yana bir belgisi - uning mumkin bo'lgan ommaviy xarakteri bilan bog'liq. Mahalliy pedagogikada pedagogik texnologiyani yanada jiddiyroq tushunish pedagogik texnologiyaning jahon miqyosida namoyon

bo'lishiga yaqin bo'lib, aniq tashxis qo'yiladigan natijalarga ega bo'lgan o'quv jarayonini qurish sifatida qaraladi.[1]

Pedagogik texnologiyaning xususiyatlaridan biri shundaki, har qanday texnologiya, uni ishlab chiqish va qo'llash o'qituvchi va o'quvchilarning yuqori faolligini talab qiladi. O'qituvchining faoliyati o'quvchilarning psixologik va shaxsiy xususiyatlarini yaxshi bilishida va shu asosda texnologik jarayonga individual tuzatishlar kiritishida namoyon bo'ladi. Talabalarning faolligi o'zaro ta'sirning texnologik jarayonida mustaqillikni oshirishda namoyon bo'ladi. Shunga qaramay, pedagogik texnologiya o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lib, barcha o'quvchilarga o'qish va tarbiyaning bir xil yuksak natijasini bera olmaydi. Zamonaviy kompyuterlashtirilgan ish joyi darslarni yuqori darajada estetik, vizual va qiziqarli qilish imkonini beradi.

“O'qituvchi butun umri davomida o'qiydigan insondir”. Shuning uchun o'qituvchi ishining muvaffaqiyatining muhim mezoni - bu turli darajadagi tayyorgarlikdagi bolalarni o'qitishda yangi texnologiyalar bo'yicha o'z-o'zini o'qitishdir.

Axborot saytlari darslar mazmunini zamonaviy faktlar bilan to'ldirishga yordam beradi, Internet doimo keng imkoniyatlarni taqdim etadi. O'qituvchilardan faqat bitta narsa talab qilinadi - virtual maydonning etarlicha tayyor foydalanuvchisi bo'lish. Pedagogik texnologiyaning maqsadi - yangi ilg'or g'oyalar, talim innovatsiyalari, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga noan'anaviy yondashuvlarni joriy etish orqali ularni modernizatsiya qilish va sifatini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida talim va tarbiyani texnologiyalashtirishning strategik usullarini topishdir. . Pedagogik texnologiyani tahlil qilishga har tomonlama, psixologik-pedagogik qonuniyatlar va tamoyillarni hisobga olgan holda yondashish, uning mazmunini umumiy texnologik pozitsiyalardan emas, balki uning pedagogik tabiatidan kelib chiqib, boshqa texnologiyalardan farqi nuqtai nazaridan aniqlash kerak. , bu inson omili deb ataladigan, shaxsiy munosabatlar va qadriyatlardan

iborat. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yoshlarda tálím-tarbiyaga ijobiy yo'nalishni shakllantirishda nafaqat mazmuni, balki shakllari, tálím texnologiyalari ham muhim ahamiyatga ega. Tálímning yangi uslub va kanallarini ishlab chiqish dolzarb talabga aylanib bormoqda. Tálím sifati, qulayligi, samaradorligini oshirish, uning uzluksiz va innovatsion xarakterini oshirish, yoshlarning ijtimoiy harakatchanligi va faolligini oshirish, ularni turli tálím muhitiga jalb etish tálím tizimini táminlashning muhim omiliga aylantirmoqda.[2]

Innovatsiyaning maqsadi - an'anaviy tizimga nisbatan talaba shaxsini sifat jihatidan o'zgartirish. Bu pedagogik inqirozni bartaraf etishni o'z ichiga olgan amaliyotga málum bo'lmagan didaktik va o'quv dasturlarini kasbiy faoliyatga kiritish tufayli mumkin bo'ladi. Harakatlarni raǵbatlantirish, olingan málumotlarni mustaqil ravishda boshqarish qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy noan'anaviy fikrlashni shakllantirish, fan va amaliyotning eng so'nggi yutuqlaridan foydalangan holda bolalarning tabiiy qobiliyatlarini maksimal darajada ochib berish orqali rivojlantirish innovatsiyalarning asosiy maqsadlari hisoblanadi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

- 1) Manvelov S.G. Zamonaviy darsni loyihalash. - M.: Máfifat, 2002 yil.
- 2) Larina V.P., Xodireva E.A., Okunev A.A. «Zamonaviy pedagogik texnologiyalar» ijodiy laboratoriyasida máruzalar - Kirov: 1999 - 2002 y.
- 3) Petrusinskiy V.V.Irgiy - tálím, tarbiya, dam olish. Yangi maktab, 1994

**BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINI MA'NAVIY YETUK  
QILIB TARBIYALASHDA XALQ MAQOLLARINING AHAMIYATI**

*O.M.Otajonova F.f.nomzodi datsent*

*Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi*

*Baymuratova Adiba Doniyor qizi*

*Nizomiy nomidagi TDPU magistranti*

*Значение народных пословиц в духовном развитии младших  
школьников*

*The importance of folk proverbs in the spiritual development of primary  
school students*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinfdagi o'rganiladigan xalq o'g'zaki ijodi janrlari, ularning mazmun- mohiyati hamda yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama o'stirish jarayoni haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich ta'lim, tarbiya, yoshlar, nutq o'stirish, o'qish kitobi, bolalar adabiyoti, xalq o'g'zaki ijodi, ma'naviy boylik, axloqiy to'qlik, maqol, ibora, latifa, topishmoq, tez aytish, doston.

**Аннотация:** В статье рассматриваются жанры фольклора изучаемые в начальной школе, их содержание и процесс всестороннего развития подрастающего поколения к конкретной цели.

**Ключевые слова:** Начальное образование, воспитание, молодежь, развитие речи, чтение книг, детская литература, фольклор, духовное богатство, нравственная пресыщенность, пословицы, поговорки, анекдоты, загадки, быстрая сказка.

**Annatatsion:** This article discusses the genres of folklore studied in primary school, their content and the process of comprehensive development of the younger generation towards a specific goal.

**Keywords:** Primary education, upbringing, youth, speech, development, reading books, children's literature, folklore, spiritual wealth, moral integrity, proverbs, sayings, anecdotes, riddles, rhetoric, epics

Ma'naviyat qadim zamonlardan inson dunyoqarashini, xatti-harakatini, xalq og'zaki ijodi – insoniyatga tengdosh eng qadimiy san'at. O'zbek xalqi ming yillar davomida yaratgan milliy xazinamizning nodir merosi bo'lgan og'zaki badiiy ijodi hamisha inson kamoloti, yurt farovonligi, jamiyat yetukligi borasida ma'naviy ozuqa bo'lib xizmat qiladi. Yillar to'zonidan omon-eson o'tib, avlod-ajdodlardan meros qolgan folklor janrlari ijtimoiy-siyosiy, ta'limiy-tarbiyaviy sohalarda maktab, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda yo'l boshlovchi vazifasini o'taydi. Xalqning turmush tajribalari, kundalik kuzatishlari natijasida yuzaga kelib, o'z isbotini topgan maqollar, naqlarni hayot maktabi darsligi desak mubolag'a bo'lmaydi. Mustaqil O'zbekistonda milliy qadriyatlar tiklanayotgan hozirgi davrda xalq yaratgan merosini yosh avlod ongi shuurida tasavvur hosil qilish, umuminsoniy qadriyatlarni har tomonlama o'rgatish va tatbiq etish davr talabi. Qolaversa, har bir shaxsning zimmasidagi mas'uliyati hisoblanadi. Ana shu mas'uliyatni his qilgan inson kelajak avlodimizning yangi fikrlaydigan, izlanuvchan, mehr-oqibatli, yurtsevar, elparvar egalarini yetishtirishda, tarbiyalashda o'z hissasini qo'shadi. Buyuk allomalarimizning ibratomuz hayotlari, Vatan, xalq uchun qilgan xizmatlari haqida, aziz avliyolarning ilmi-urfon haqida, mamlakat osoyishtaligi, tinchligi, xalq ornomusi uchun kurashgan sarkardalar haqida, qolaversa, Vatanning har bir go'shasi xususida ota-bobolarimiz yaratgan rivoyatlar o'zining ilmiy, badiiy ahamiyati bilan qimmatlidir.

Jamiyatda tutgan o'rnini, xalqqa, vatanga, atrofidagi odamlarga bo'lgan munosabatini boshqaruvchi omil hisoblanadi. Ma'naviy qashshoq kimsa hayotda ro'y berayotgan voqealarga loqayd bo'ladi. Loqaydlik esa tuzatib bo'lmas oqibatlarga olib keladi. Ma'naviy qashshoq odam uchun Vatan, xalq, oila kabi muqaddas tushunchalar yot. Shuning uchun keksa avlod, avvalo, farzandning

ma'naviy dunyosini shakllantirish chorasini rejalashtirgan. Aslini olganda, xalq dostonlari, ertaklari, qo'shiqlari, maqollari va boshqa o'nlab janrdagi asarlar yosh avlodning ma'naviyatini boyitish, uni haqiqiy inson darajasiga yetishini ta'minlash maqsadini nazarda tutgan holda yaratilgan. O'tgan asrgacha bugungi kundagi matbuot, o'quv dargohlari, madaniyat markazlari, radio, televidenie, internet kabi ta'lim, ma'rifat tizimi bo'lmagan. Bu vazifalarni bajarish, asosan, xalq og'zaki ijodi zimmasiga yuklatilgan. Natijada, xalq og'zaki ijodi xalq pedagogikasi zami'nini tashkil etgan. To'g'ri, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida ham xalq og'zaki ijodidan namunalar beriladi .

Ma'lum bo'ladiki, madaniyat, san'at, til xalqning xalq sifatida ravnaq topishining bosh omili ekan. Xalq ijodi esa madaniyat, san'at, tilning asosini tashkil etuvchi tarkibiy qismidir. Shuning uchun ham 1997-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da "Ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar" alohida bo'lim sifatida tasdiqlanishi bejiz emas. Unda yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'analariga, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi ta'kidlanadi. Qadimdan ota-bobolarimiz o'z orzu-umidlarini turmush haqiqatlari bilan uyg'unlashtirgan holda go'zal mo'jizakor manzaraga, sodda va o'ta teran mazmunga ega ertaklarni yaratganlar. Hayot haqiqati va kishilarning ruhi, psixologiyasini o'zida aks ettirgan ertaklarning badiiy kuchi hanuzgacha kattalar va kichiklar uchun ham birday qiziqarli, jozibali xalq kitobi sifatida ta'sir etib kelmoqda.

Maqol - bu i tushuncha inson tafakkurining shakllanishida katta ahamiyatga ega. Maqollar insonni axloq-odobga o'rgatsa, topishmoqlar uni mantiqiy fikrlashga, topqirlikka, hozirjavoblikka undaydi. Maqol inson nutqini bezaydi (xalqimizda «So'z ko'rki maqol», deb bejiz aytilmagan), uning ta'sir kuchini oshiradi. Biror-bir fikrni uqtirishda ishlatilgan maqol uni chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladi.



Maqollar pand-nasihatlar, tarbiyaviy suhbatlarda o'git sifatida ham keladi. Shuning uchun uni «Otalar so'zi» ham deyishadi. Buning boisi, har bir maqol otabobolarimiz tomonidan yaratilib, bir necha mingyilliklar davomida sayqal topib kelayotgani, yaxshilik, ezgu ishlarga undaydigan bebaho ma'naviy boyligimiz ekanidir. Maqolda mazmun aniq, xulosa tugal, ifoda ravon bo'lib, unda ibratli fikr aytiladi. Bu fikr rad etib bo'lmaydigan hukm shaklida keltiriladi. Masalan, «Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas», «Ona yurtning - oltin beshiging», «Kishi yurtida shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l», «Bulbul chamanni sevar, odam - vatanni» kabi maqollarni hech bir e'tirozsiz qabul qilamiz. Chunki bu maqollarda bolalarni ona-Vatanni sevishga, Vatanga muhabbat Onaga muhabbat kabi muqaddas va yuksak tuyg'uligini uqdirishga qaratilgan.

Ma'lumki, ko'plab maqollardagi yana bir xususiyat ularda so'zlarning qofiyadosh bo'lib kelishidir. Masalan, «Yuz ko'rki soqol, so'z ko'rki maqol», «Aql - yoshdan, odob - boshdan». Shu xislati bilan maqollar topishmoqlarga o'xshab ketadi. «Bir parcha patir, olamga tatir» (oy) topishmog'idagi «patir» va «tatir» so'zlaridek, maqoldagi «yoshdan» va «boshdan» so'zlari bir-biriga qofiyadoshdir. Biroq bu o'xshashlik tashqi shaklda ko'rinadi. Mazmunan ular o'zida boshqa-boshqa ma'nolarni tashiydi. Maqol ibratli fikrni anglatrsa, topishmoq kishini jumboqda yashiringan ma'noni topishga undaydi, idrokini sinaydi. O'qish kitobidagi turli janrlarga xos bo'lgan badiiy asarlarni o'qish va ular ustida ishlash orqali o'quvchilarning borliq, voqelik haqidagi tasavvur tushunchalari kengayadi. Birinchi sinfda o'quvchilar ongli, to'g'ri va bir me'yorda bo'g'inlab o'qish malakalarini egallaydilar. Ayrim nutq tovushlarining talaffuzidagi qiyinchiliklar asta-sekin bartaraf etiladi. O'quvchilar o'qigan matnlarining mazmunini o'qituvchining yordamchi savollari asosida, hamda kichik hajmdagi matn mazmunini unga ishlangan rasmdan foydalanib so'zlab berishga o'rgatib boradilar. **Ikkinchi sinf** o'quvchilarida so'zni butunicha o'qish malakalari shakllanadi va ongli, to'g'ri, ifodali o'qishga intilish yaqqol seziladi, o'qish tezligi ortadi. Ayrim

matnlarni ovoz chiqarmay o'qiy boshlaydilar. O'qituvchi rahbarligida o'qilgan matndagi asosiy fikrni aniqlaydilar, undagi ayrim voqea-hodisalarni so'z bilan tasvirlashga o'rganadilar. **Uchinchi sinfda** o'quvchilar so'zlarni butunicha o'qish malakalarini to'la egallab, ongli va ifodali o'qishga ko'proq e'tibor qaratadilar. O'qilgan matn mazmunini mulohaza qilish, voqealar yo'nalishini aniqlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. 3-sinf o'quvchilariga o'zaro fikr olish jarayonida xalq maqollari va obrazli iboralardan o'rinli foydalanish adabiy talaffuz normalariga rioya qilish o'rgatiladi.

**To'rtinchi sinfda** esa o'quvchilar matndagi so'zlarni butunicha, ma'nosiga tushunib, to'g'ri o'qish malakalarini egallaydilar. O'qiganlari mazmunini qayta hikoyalash, matnlarni qismlarga bo'lish va sodda reja tuzish vazifalarini mustaqil bajara oladilar. Xalq maqollari - boyligimiz. Ota-bobolarimizning siz bilan bizga qoldirgan xazinalaridan biridir. Ulardan kerak o'rinlarda foydalanishni odat qilishimiz kerak. Shunda ular butun umrimiz davomida hamrohimiz bo'ladi. Har bir gapirgan gapning salmog'i oshadi. Sermazmun, ta'sirchan, keskir bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, boshlang'ich sinflarda o'qish asosiy dars, o'quv-predmetlaridan biri sifatida o'qitib boriladi. Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga maqollarni o'rgatish ularga tarbiyaviy ta'sir etish bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilariga darslar davomida bilim berish bilan bir qatorda ularga iroda, e'tiqod va yaxshi xislatlarni tarkib toptiriladi va ularni qiziqish, qobiliyat va iste'dodlarini o'stirish vazifalarini ham bajariladi. O'qish darslaridagi barcha asarlarni o'qitish orqali o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazib boriladi.

Xalq maqollari - boyligimiz. Ota-bobolarimizning siz bilan bizga qoldirgan xazinalaridan biridir. Ulardan kerak o'rinlarda foydalanishni odat qilishimiz kerak. Shunda ular butun umrimiz davomida hamrohimiz bo'ladi. Har bir gapirgan gapning salmog'i oshadi. Sermazmun, ta'sirchan, keskir bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yilning 12 yanvar kuni «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida»gi farmoyishi.
2. Mirzayevning «Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodini o'rganish» risolasida (Toshkent, «O'qituvchi»,1979)
3. M.Jumaniyozova va Sh.Qalandarovalarning «Boshlangich sinf o'qish darslarida dostonlardan parchalarni o'qish metodikasi» maqolasida (Tafakkur ziyosi, XXI tom.-Urganch, 2010, 60-63-betlar),
4. Sh.Jabborovning «Xalq og'zaki ijodidan foydalanish» maqolasida («Boshlangich ta'lim» jurnali, 2011, 2-son 28-29-betlar) Mirzayevning «Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodini o'rganish» risolasida;
5. O.Safarov, R.Barakayev, B.Jamilovalarning «Bolalar adabiyoti» darsligi (Buxoro, «Durдона» nashriyoti. 2019 yil. 420 b.);
6. M.Jumaniyozova va Sh.Qalandarovalarning «Boshlangich sinf o'qish darslarida dostonlardan parchalarni o'qish metodikasi» maqolasida (Tafakkur ziyosi, XXI tom.-Urganch, 2010, 60-63-betlar);
7. Sh.Jabborovning «Xalq og'zaki ijodidan foydalanish» maqolasida («Boshlangich ta'lim» jurnali, 2011, 2-son 28-29-betlar);
8. Zuhra Ilyos qizining «Ma'naviyati yuksak avlod □ Vatan ishonchi» («Boshlangich ta'lim» jurnali, 2019, 10-son, 21-bet)
9. T.G'afforova,Sh. Nurillayeva,Z. Mirzaxakimova 2-sinf «O'qish kitobi» " Sharq nashryoti"
10. M. Umarova, X.Xamrakulova, R.Tajiboyeva 3-sinf "O'qish kitobi" "O'qituvchi" nashriyoti. Toshkent 2019.
11. T. G'afforova,Sh. Nurillayeva,Z. Mirzaxakimova 4-sinf «O'qish kitobi» "Toshkent Yangiyul Poligraph service nashryoti" 2019.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HOLATNI IFODALOVCHI  
SIFATLARNING SEMANTIK TIPOLOGIYASI

*Egamberdiyev Farhod Botirovich*

*Toshkent moliya instituti Tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlar kafedrası*

*Ingliz tili o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada ongning tasniflash faoliyati va tilning munosabat obykti hamda til va og'iz bo'shlig'i turli qismlarining sezuvchanligi, ta'm bilish retseptorlari bilan bog'liq baholovchi tushunchalarning, "ta'm" semantik maydonini hosil qiluvchi so'zlarning turli semantik xususiyatlari ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida yoritib berilgan. Ingliz va o'zbek tilida "ta'm" semantik maydonini hosil qiluvchi so'zlarning turli ma'noviy xususiyatlari hamda turli darajalarini ifodalovchi sifatlar va ularning sinonimlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** semantik maydon, persepsiya, his-tuyg'u, ta'm bilish, ta'm belgilari, mentalitet, ongning tasniflash faoliyati, ta'm retseptorlari.

**Abstract:** The article deals with the classification of the mind and the object of language relations and the sensitivity of different parts of the tongue and oral cavity, the evaluative concepts related to taste receptors, the various semantic features of the words that make up the semantic field of "taste" are explained on the basis of English and Uzbek materials.

**Keywords:** semantic field, perception, emotion, taste, taste traits, mentality, classification function of mind, taste receptors.

Shaxsning va umuman jamiyatning qadriyatlarini va baholari tizimi til yordamida shakllangani uchun baholovchi tasniflash ko'p jihatdan til bilan belgilanadi va shuning uchun aniq milliy o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Til faqat ongimizning tasniflash faoliyati natijalarini aks ettiradi: obyektlarning jismoniy va funksional xususiyatlari ularning nomlariga bog'liq emas. Baholovchi toifalarga ajratishda til

tegishli baho toifalarini shakllantirishda va baholarni o'zgartirishda bevosita ishtirok etadi. Bu baholovchi tushunchalarning tasnifi, vaziyatga bog'liq emasligining namoyonidir. Baholovchi tushunchalar va toifalarning shakllanishi va umuman baholovchi toifalarga asoslangan mezonlar, fikrlar yoki standartlar ko'lami, o'z navbatida, har xil asoslarga ega bo'lishi mumkin. Bu o'ziga xos his-tuyg'ularga - insonning hissiy tajribasiga, mavjud standartlarga va ayrim sezgilarga asoslangan bo'ladi. Ta'm bilish — turli eriydigan moddalarning ta'm bilish retseptorlariga, asosan, tilga (umurtqalilarda) ta'sir etishi natijasida paydo bo'ladigan sezgi. Shirin, nordon, achchiq, chuchuk va sho'r sezadigan maza bilish sezgilari farq qilinadi. Bu sezgi ma'lum moddalarning o'ziga mos keluvchi maza bilish retseptorlarini qo'zg'atishi natijasida namoyon bo'ladi. Til va og'iz bo'shlig'i turli qismlarining sezuvchanligi bir xil emas, masalan, til uchi shirinni, o'zagi achchiqni, chetlari esa nordon va sho'r mazani sezadi. Turli mazaga ega bo'lgan mahsulotlar bir vaqtda yoki ketma-ket iste'mol qilinganda maza bilish sezgisi ovqat ta'mini almashtirib yuborishi mumkin. Maza-ta'mni ifodalovchi va baholovchi sifatlar bir maydonga birlashishida asos bo'luvchi va ularning asosiy ma'nosi tarkibida «ta'm» semasining mavjudligi hisoblanadi. Maydonning asosiy yadrosi ta'm xususiyatlarini bildiruvchi sifatlardan iborat. Odatda, tadqiqotchilar to'rtta asosiy ta'm belgilarini ajratadilar: nordon, shirin, achchiq va sho'r. Qolgan ta'm sezgilari ularning atrofida guruhlanadi. Tadqiqotchilar bir necha bor ta'm bilish xislati hissiyotning obyektiv tuzilishini tasvirlash bilan emas, balki ta'm bilish xislati ma'lumot tashuvchisiga ishora qilish bilan ifodalanishini ta'kidlaganlar. Shuning uchun ta'm bildiruvchi sifatlarning asosiy ma'nosi tuzilishi quyidagi shaklga ega: «ta'm + N + [baho + intensivlik]» bu yerda N – ma'lumot tashuvchining etaloni, o'lchovi. Misol uchun, nordon – «limon – sirka ta'miga ega bo'lgan qizil nordon mevali buta (so'k)». Masalan; Nordon – «limon sirkasi so'ki kabi ta'mida o'tkir bo'ladi». Shu bilan birga, «...har bir xalqning muayyan did haqidagi g'oyasi turli «ma'lumotnoma obyektlari» bilan bog'liq. Shunday qilib, o'zbeklar achchiq ta'mni qalampir bilan, inglizlar apelsin po'sti ta'mi yoki kofe cho'kmasi ta'mi bilan bog'lashadi. «Baholash» va «jadallik» semalari leksik ma'noning yadrosiga ham kiritilishi va uning

сложность в передаче безэквивалентной лексики для обучающихся состоит в том, что в процессе перевода нужно подобрать соответствующие эквиваленты в русском языке

Перевод как явление возник ещё со времен Древнего Египта. На протяжении многих столетий основным предназначением перевода было взаимодействие людей различных этносов. Особенно резко возросла потребность в П в период глобализации. В этот период возникает такая наука как переводоведение, или теория перевода. Надо отметить, что исследователи по-разному рассматривают понятие перевод. Одни понимают его как процесс, другие как результат. В нашем исследовании мы исходили из того, что перевод это, прежде всего целенаправленная деятельность. Поэтому, вслед за Л.К. Латышевым мы считаем, что перевод это вид языкового посредничества, цель которого приблизить как можно ближе двуязычную языковую коммуникацию к одноязычной. Одной из главных проблем переводоведения считается вопрос переводимости. Здесь также нет однозначного мнения. Одни полагают, что перевести полно и правильно невозможно, вторые считают, что можно лишь частично передать текст перевода, третьи же придерживаются мнения, что перевод возможен в полной мере. В этой связи, особую сложность при переводе вызывает БЭЛ.

Понятию БЭЛ существует огромное количество определений. В основном мнения авторов сходятся на том, что БЭЛ – лексические единицы ИЯ, которые не имеют в словарном составе ПЯ эквивалентов. Анализ различных трудов, касающихся данного вопроса, привел нас к выводу, что к БЭЛ относятся фразеологизмы, авторские окказионализмы, неологизмы, случайные лакуны, имена собственные, междометия, сокращения, звукоподражание, термины, реалии. На наш взгляд более полно классификация БЭЛ отражена в трудах О.А. Иванова. Между тем, абсолютно все авторы утверждают, что было бы неправильно понимать безэквивалентность как невозможность перевести данную лексику. Отсюда

логично вытекает то, что концепция «полной переводимости» оправдывает своё существование.

## СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ

1. Акуленко, В.В. Англо-русский и русско-английский словарь «Ложных друзей переводчика» [Электронный ресурс] / В.В. Акуленко; Под общим руководством доцента В.В. Акуленко. – Москва : Сов. Энциклопедия, –Режим доступа:  
<http://rutracker.org/forum/viewtopic.php?t=1661367>.
2. Алексеева, И.С. Введение в переводоведение [Электронный ресурс] : учеб. пособие для студ. филол. и лингв. фак. выс. учеб. заведений / И.С. Алексеева. – Москва : Академия – Режим доступа:  
<http://www.twirpx.com/file/85927/>.
3. Английский язык: Английский язык нового тысячелетия / New Millennium English : учебник для 11 кл. общеобраз. учрежд. / О.Л. Гроза, О.Б. Дворецкая, Н.Ю. Казырбаева, В.В. Клименко, М.М. Мичурина, Н.В. Новикова, Т.Н. Рыжкова, Е.Ю. Шалимова. – 3-е изд., испр. и перераб. – Обнинск : Титул,
4. Ахманова, О.С. Словарь лингвистических терминов : изд. 2-ое, стереотип. [Электронный ресурс] / О.С. Ахманова. – Москва : Советская энциклопедия – Режим доступа:  
<http://rutracker.org/forum/viewtopic.php?t=2644306>.
5. Бархударов, Л. С. Язык и перевод [Электронный ресурс] / Л.С. Бархударов. – Москва : Международные отношения. - Режим доступа: <http://rutracker.org/forum/viewtopic.php?t=2354143>.
6. Белинский, В.Г. «Гамлет» в переводе Полевого» : полн. собр. соч. в 12-ти т. т. III / В.Г. Белинский; Под ред. С. А. Венгерова. – Санкт-Петербург.

**JISMONIY MADANIYAT VA SPORTNING UMUMIY TAMOYILLARI  
VA NAZARIY ASOSLARI**

*Ortiqov Umidjon Xudoyberdiyevich*

*Namangan muhandislik-qurilish instituti, Jismoniy madaniyat  
kafedراسi katta o'qituvchisi*

*Satimov A'zamjon Ikromovich*

*Namangan muhandislik-qurilish instituti, Jismoniy madaniyat  
kafedراسi katta o'qituvchisi*

*Ortiqov Sirojiddin Xoldorjon o'g'li*

*Namangan shaxar 18-o'rta maktab jismoniy tarbiya o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Jismoniy madaniyat va sportning umumiy tamoyillari va nazariy asoslari, jismoniy tarbiya va sport sog'lomlashtirish tadbirlari maqsadi, sog'lom turmush tarzi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Jismoniy tarbiya, sport, sog'lomlashtirish, badantarbiya, mashqlar, mashg'ulotlar, kurash, suzish, yengil atletika.

Jismoniy tarbiya va sport sog'lomlashtirish tadbirlari maqsadi Talabalarni organizmini jismoniy rivojlantirish va sog'lom turmush tarzi kechirish talablariga o'rgatishdan iborat bo'ladi. Shu bilan birga jismoniy tarbiya sport va sog'lomlashtirish tadbirlari mutaxassislik mashg'ulotlarini ijobiy o'zlashtirishga katta yordam beradi.

Talabalar jismoniy tarbiya tadbirlari ertalabki badantarbiya, jismoniy tarbiya darslari, sport to'g'arak mashg'ulotlari, sport sog'lomlashtirish musobaqalari va bayramlari shakllarida bo'ladi. Ertalabki badantarbiya mashg'ulotlari talabalar yotoqxonasida ommaviy xolda, yashash joylari va oilada mustaqil holda bajariladi.

Ertalabki badantarbiya mashg'ulotlari qo'l, oyoq va gavda muskullari uchun mashg'ulotlardan, nafas olish mashqlaridan iborat bo'lishi mumkin. Jismoniy

tarbiya darslari talabalar o`quv rejasiga muvofiq tashkil etiladi. Jismoniy tarbiya darslarida talabalar futbol, basketbol, voleybol, gandbol o`yinlarining texnikasi shakllantiriladi. Shuningdek, yengil atletika, gimnastika, kurash va suzish sporti harakatlari malaka va ko`nikmalari o`rgatiladi hamda shakllantiriladi.

Kun tartibidagi sport bayramlari va musobaqalariga sayyohlik yurishlari, suv muolajalari qabul qilish, suzish va cho`milish mashg`ulotlari, guruhlar o`rtasidagi bellashuvlar va musobaqalarni kiritish mumkin. Sport to`garaklari mashg`ulotlarida sport turlari bo`yicha mutaxassislikka erishib boradilar. Talabalar sport musobaqalari va sport bayramlarida jismoniy, texnik va taktik tayyorgarliklarini namoyon etadilar.

Shuningdek talabalarni turizm mashg`ulotlarida tabiat omillari suv, quyosh va havo ta'sirida chiniqtirish muolajalarini qabul qilish uslublari o`rganildi. Talabalarni jismoniy tarbiya va sport, sog`lomlashtirish ishlarida ishtirok etish jarayonlarida jismoniy rivojlanishini tibbiy nazorat qilish va jismoniy tayyorgarlik darajasini amaliy test sinovlari bilan baholash tashkil etildi.

Talabalarni ta'lim muassasalari va yashash joylarida tashkil etiladigan ertalabki badantarbiya mashg`ulotlari, jismoniy tarbiya darslari, sport to`garaklaridagi mashg`ulotlar, sport bayramlari va musobaqalari, dam olish kunlarida tashkil etiladigan sayyohlik yurishlari va turizm mashg`ulotlari, oilada olib boriladigan ijtimoiy foydali mehnat jarayonlari hamda sog`lom turmush tarzining organizmga ijobiy ta'sirlari beqiyos hisoblanadi.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan jismoniy tarbiya va sport, sog`lomlashtirish tadbirlari jismoniy tarbiya dasturi asosida tashkil etiladi. Jismoniy tarbiya dasturlari talabalar yosh va jins ko`rsatkichlari va organizmining jismoniy rivojlanishi darajalariga muvofiq takomillashtirilib boriladi. Jismoniy tarbiya dasturlarida talabalarni jismoniy tarbiya darslarining materiallari hamda jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari ishlarning mazmuni zamonaviy talablar asosida shakllantirilgan. Shu bilan birga talabalar jismoniy tarbiya va sport, sog`lomlashtirish tadbirlari jarayonlarida jismoniy tarbiya va sport mashg`ulotlarining organizmga ijobiy ta'sirlari hamda jismoniy mashqlar bilan

mustaqil shug`ullanish, tabiat omillari suv, quyosh va havo yordamida chiniqtirish muolajalari qabul qilish qoida va talablari xaqida nazariy ma'lumotlarga ega bo`lib boradilar. Bunday nazariy ma'lumotlarni berishda mamlakatimiz va horijiy mamlakatlarning etuk mutaxassisleri adabiyotlari va ko`rsatmalaridan hamda INTERNET materiallarida keng foydalanish maqsadga muvofiq bo`lib hisoblanadi. Talabalarning ta'lim muassasalari va yashash joylari hamda oilada jismoniy tarbiya va sport, sog`lomlashtirish ishlarini samarali tashkil etish mamlakatimiz kelajagi yosh avlodni jismonan barkamol va ma'naviy etuk inson qilib tarbiyalash hamda jamiyatimizning faol a'zosi bo`lishini ta'minlaydi.

Jismoniy tarbiya va sportning asosiy tushunchalari xaqida jismoniy tarbiya va sport bo`yicha zamonamizning etuk mutaxassislar ko`plab ta'limotini yaratganlar. Shundan professor A.Ashmarinning ta'limoti keng mazmunga ega.

Jismoniy tarbiya nazariyasi-jismoniy madaniyatning qonuniyatlarini tahlil etuvchi ilmiy amaliy fan. Jismoniy tarbiya nazariyasining asosiy tushunchalari: jismoniy rivojlanish, jismoniy tarbiya, jismoniy tarbiya tizimi, jismoniy kamolot va jismoniy madaniyat. Shu tushunchalar orqali jismoniy tarbiya nazariyasining mohiyati va asosiy qonuniyatlari o`rganiladi. Ular doimo o`zgarib kengayib va chuqur mazmun aks ettirib keladi.

Jismoniy rivojlanish-tarbiyaning ta'sirida organizmda biologik shakllar va funktsiyalarning vujudga kelishi, o`zgarishi va takomillashuvidir. Bu jarayon organizm va uning yashash muhiti tuzilishi, o`zgarishi hamda miqdor va sifat o`zgarishlar qonuniyatlariga bo`ysunadi. Ijtimoiy taraqqiyot natijasida jismoniy xususiyatlar ishlab chiqarish, madaniyat fan va sport sohasida yuksak natijalarga erishish imkoniyatini yaratdi. Nasldan naslga o`tadigan tabiiy xayotiy kuchlar va organizmlarning tuzilishi, inson jismoniy rivojlanishi uchun asos bo`ladi. Lekin jismoniy rivojlanishning yo`nalishi, uning harakteri, darajasi, shuningdek, inson o`zida kamol toptiradigan fazilatlar va qobiliyat turmush sharoitlari va tarbiyaga ko`p jixatdan bog`liqdir. Jismoniy rivojlanish qonunlarini egallash, ulardan jismoniy tarbiya maqsadlarida foydalanish-jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotining muhim vazifasidir. Kishilarning ijtimoiy xayot sharoitlari, jismoniy rivojlanishda

hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bular orasida jismoniy tarbiya eng muhim rol o`ynaydi.

Jismoniy tarbiya-aniq bir maqsadni ko`zlab inson jismoniy holatini o`zgartirilishi jismoniy tarbiyaning asosiy vazifasidir. Jismoniy tarbiya-pedagogik jarayon, inson organizmini takomillashtirishga, harakat malakasini va ko`nikmasini, mahoratini shakllantirishga qaratilgan. Jamiyat xayot sharoitlari, ov jismoniy tarbiya vujudga kelishining asosiy sababi bo`lgan. Insonning ibtidoiy jamoa davridanoq yashash uchun kurashga, jamoada o`z o`rnini topishga hamda ov qilishda jismoniy harakatlar qo`l kelgan. Ongsiz ravishda bo`lsa ham odamlar o`zlarining jismoniy sifatlari tezkorlik, kuchlilik, chidamlilik, chaqqonlik, botirlik xislatlarini rivojlantirishga harakat qilganlar. Ko`rinib turibdiki, jismoniy tarbiya insoniyat jamiyati shakllanishi bilan birga vujudga kelgan.

Odamning xayot faoliyati onglidir, uning harakatlarida ma'no, maqsad bor. Yangi avlod faoliyatni o`zidan avvalgi avloddan o`rgangan bo`lib, ularning o`rtasida bilimlarni, mahorat va malakalarni o`rgatishdan iborat aloqa va davomiylikni o`rnatiladi. Jismoniy tarbiyani o`ziga hos xususiyatlarini nuqtai nazaridan bir biriga singib ketgan ikki guruhga bo`lish mumkin.

1. Jismoniy tarbiya-salomatlikni mustahkamlash maqsadida jismoniy kamolotga ta'sir o`tkazish, jismoniy sifatlarga ega bo`lish va ularni takomillashtirish.

2. Jismoniy ta'lim-maxsus mahorat, ko`nikma va bilim beradigan ta'lim.

Jismoniy tarbiyaning o`ziga xos hususiyati jismoniy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi vosita sifatida xizmat qilishidir, shu bilan birga ma'naviy kamolotga ham kuchli ta'sir etadi.

Jismoniy barkamollik-har tomonlama rivojlanishning, harakatlarga tayyorgarlikning oliy darajasi bo`lib, ishlab chiqarish va harbiy hamda turmush sharoitlariga moslanish imkoniyatini, yuksak ish qobiliyatini ta'minlaydi. Jismoniy barkamollik tushunchasini yana shunday izohlash mumkinki, bu insonni har qanday sharoitda ham og`ir jismoniy yuklamalar bajara olish qobiliyati bilan birga o`zida ahloqiy sifatlar, insonparvarlik, onglilik hamda jamoatchilik xislatlarini o`zida mujassam bo`lishidir. Jismoniy barkamollik har bir inson orzu qilgan va unga



intilgan tushuncha bo'lishi zarur. Shuning uchun, bu tushunchani ta'riflash va izohlash cheksiz harakterga ega.

Jismoniy madaniyat-umumiy madaniyatning ajralmas bir qismi, hamda jismoniy tarbiya vositalarini yaratish va foydalanishda jamiyat erishgan muvaffaqiyatlarning yig'indisidir. Millatning jismoniy madaniyat va sport sohasida erishgan yutuqlari, aholining ommaviy jismoniy tarbiya va sportga jalb etilishi, mamlakatda yoshlarni qolaversa aholini hamma qatlamini jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishini ta'minlovchi vositalar-sport inshootlari, jihozlari, jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi mutaxassis kadrlar etarliligi ham jismoniy madaniyat saviyasini belgilaydi.

Jismoniy madaniyat uzoq tarixiy davrlar mobaynida shakllanib keladi. Inson o'zini himoya qilish, yashash uchun kurash davrida jismoniy madaniyatning ilk kurtaklari vujudga kelgan bo'lsa, keyinchalik harbiy san'at, mamlakatni himoya qilishda qudratli armiya tuzish shaklida rivojlansa jamiyat taraqqiyotida inson o'zining organizmini sog'lomlashtirish, jismoniy barkamolligini ta'minlash qolaversa tinchlik elchisi vositasi sifatida shakllanib keladi.

Sport–inson jismoniy barkamolligini ta'minlovchi vosita bo'lib, bir xil shakldagi jismoniy mashqlar va harakatlar majmu'idir. Shunindek bir turdagi jismoniy harakatlar bo'yicha yuqori malakaga hamda yuqori natjalarga erishishga yo'naltirilgan faoliyat. Sportning maqsadi va vazifasi sportchilarni sport turiga muvofiq harakatlar texnikasi va taktikasini shakllantirish, umumiy va maxsus tayyorgalik, sport tayyorgarligi, jismoniy va nazariy tayyorgarlikni ta'minlash, hamda sport turi bo'yicha yuqori malakali sportchi tayyorlashdir.

Jismoniy mashqlar □ jismoniy rivojlantirish, harakat malaka va ko'nikmalarini shakllantirish, sport turi bo'yicha mutaxassislik harakatlariga o'rgatish yo'naltirilgan jismoniy harakatlar majmu'i. Ehtiyojga ko'ra qilingan harakatlar jismoniy rivojlanish, harakat malaka va ko'nikmalarini egallashga yordam bermaydi, aksincha rejalashtirilgan va dastur asosida bajariladigan jismoniy harakatlar-reglamentlashtirilgan ya'ni bir shaklga keltirilgan va ma'lum muddat davomida bajariladigan jismoniy mashqlar jismoniy rivojlantirish, sog'lomlashtirish

hamda harakatlar malaka va ko`nikmalarini shakllantirishga, texnik va taktik hamda jismoniy tayyorgarlik vositasi bo`lib xizmat qiladi. Jismoniy mashqlar umum rivojlantiruvchi, maxsus va yordamchi mashqlarga bo`linadi.

Umum rivojlantiruvchi mashqlar–ertalabki badan tarbiya mashg`ulotlarida organizmni sog`lomlashtiruvchi, jismoniy tarbiya mashg`ulotlarining tayyorlov qismida jismoniy yuklamalarga tayyorlovchi mashqlar bo`lib hisoblanadi.

Maxsus mashqlar□sport turiga xos harakatlardan iborat bo`lgan harakatlar, yugurish, sakrash, uloqtirish, to`p olib yurish, to`pni urish yoki tepish va h.k. yoki shu harakatlarning biror qismlari.

Yordamchi harakatlar–maxsus mashqlarni bajarish texnika va taktikasini egallashga yordam beruvchi, sun'iy tashkil etilgan, yoki shaklan o`zgartirilgan mashqlar jumlasini.

Jismoniy tarbiya tamoyillari. Jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotida bir qator tamoyillar mavjud. Ulardan jismoniy tarbiyaning umumiy tamoyillari, uslubiy tamoyillari, sport turlarining xususiy tamoyillarini ko`rsatib o`tish mumkin. Jismoniy tarbiya tizimining umumiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

Jismoniy tarbiyaning mehnat va harbiy amaliyot bilan aloqasi.

Shaxsni har tamonlama kamol toptirish.

Jismoniy tarbiyaning sog`lomlashtirish vazifasi.

Jismoniy tarbiyaning mehnat va harbiy jismoniy tayyorgarlik bilan aloqasi: Bu tamoyil jismoniy tarbiyaning asosiy qonuniyatini, odamlarni faoliyatga, xayotga tayyorlashdan iboratligini ifodalaydi. Jismoniy tarbiyaning barcha sistemalarida bu qonuniyat o`ziga xos ifodasini topadi. Jismoniy tarbiyaning bu tamoyilini amalga oshirishda jismoniy tarbiya va sport bilan qayerda, qanday sharoitda shug`ullanganda ham shug`ullanuvchilarni mehnatga va mudofaaga tayyorlash ta'minlanish kerak. Bizga ma'lumki, jismonan yaxshi rivojlangan insongina samarali mehnat qila oladi shu bilan birga u o`zini, oilasini, yashash joyini qolaversa Vatanini himoya qilishga tayyor bo`ladi. Jismonan rivojlangan o`smir har qanday sharoitga moslasha oladi. Harbiy xizmatda yoki favqulodda hodisalarda jismoniy tayyorgarlikka ega bo`lgan, jismoniy fazilatlarini rivojlangan inson o`ziga va o`zgalarga ham yordam bera oladi.

Kuchli, chidamli va chaqqon hamda harakat malaka va ko`nikmalari etarli darajada shakllangan kishilar boshqalarga qaraganda yangi mehnatni harakatlarni tez o`zlashtiradilar. Hozirgi davr harbiy tayyorgarligi yuqori jismoniy tayyorgarlikni talab etadi. Bu talablar yoshlarni maxsus harbiy amaliy tayyorgarlik mashg`ulotlar bilan shug`ullanishni bosh omili deb belgilaydi.

Jismoniy tarbiyaning mehnat faoliyatiga tayyorlash tamoyili jismoniy tarbiyani yangi va xilma-xil amaliy mehnat bilan uzviy bog`liq ravishda takomillashayotganini ko`rsatadi. Ishlab chiqarishni va qishloq xo`jaligini zamonaviy texnika bilan ta'minlanishi ishchilarni og`ir mehnatdan halos etib ularni o`zlarini sog`lomlashtirish ustida ko`proq shug`ullanishga imkoniyat yaratdi. Mehnat qanday shaklda bo`lishidan qat'iy nazar u jismoniy harakatni va jismoniy tayyorgarlikni talab etadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, to`g`ri tashkil etilgan mehnat ham insonni jismoniy barkamolligi omilidir.

Jismoniy tarbiyaning amaliy ahamiyati hayotda bevosita qo`llaniladigan harakat ko`nikmalarini hosil etishdan iborat. Jismoniy mashqlar bilan shug`ullanish natijasida ko`nikma amaliy bo`lsa, ya'ni sport yoki gimnastika mashg`ulotlari sharoitlaridan mehnat va harbiy vaziyatga ko`chiriladigan bo`lsa, unday jismoniy tarbiya amaliy tarbiya bilan bog`langandir.

Hozirgi kunda zamonaviy harbiy texnika taraqqiyoti inson aralashuvisiz ham juda katta imkoniyatlarga ega edi. Endilikda urush tahdidlari bartaraf etilayotgan davrda har bir inson o`zini, oilasini qolaversa jamiyatini o`z kuchi va matonati bilan himoya qilishga qodir bo`lishi kerak. Shuning uchun maxsus xizmat qismlarida sport tayyorgarlik mashg`ulotlariga katta e'tibor beriladi. Mashg`ulotlar yakka kurashlar, har qanday sharoitda yashab qolish hamda har qanday joylarda harakatlanish qobiliyatlarini shakllantirish va takomillashtirishga qaratilgan bo`ladi.

Jismoniy tarbiyaning shaxsni har taraflama kamol toptirish tamoyili: Jismoniy tarbiya jarayonida aqliy, ahloqiy va estetik tarbiya vazifalarini hal etish uchun juda katta imkoniyatlar bor. Bu vazifalarni hal etish shaxsni har taraflama kamol toptirish omili sifatida jismoniy tarbiyaning rolini kengaytirib, bevosita jismoniy tarbiyaning o`z muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Ma'naviy va jismonan har tomonlama kamol topgan

kishilargina takomillashgan jamiyat quruvchilari bo`lishi mumkin. Barkamol insonni tarbiyalash jismoniy tarbiya to`g`ri tashkil etilgan sharoitda amalga oshadi. Har tomonlama rivojlangan shaxs bo`lib, etishish biologik hamda ijtimoiy qonuniyatlar talabidir. Insonning jismoniy barkamolligi uning ruhiy kamoloti bilan uzviy bog`liqdir. Odamning ruhiy dunyosi tashqi ta'sirlar, ijtimoiy muhit hamda insonning atrofidagi sharoitlarni o`zgartirishga qaratilgan harakati tufayli shakllanadi. Ko`rinib turibdiki, jismoniy tarbiya jarayoni shartli reflekslarni shakllanishi va bog`lanishi uchun fiziologik poydevordir.

Insonning jismoniy tarbiya va sportdagi yutuqlari, rekordlari, oliy darajadagi harakat va ko`nikmalari shakllanishi sportchining aqliy, axloqiy, ma'naviy estetik va g`oyaviy-siyosiy shakllanishi bilan uzviy bog`liq bo`lganda qadr-qimmatga ega bo`ladi. ijtimoiy faoliyat ixtisoslashgan ko`rinishda bo`lib, ishlab chiqarish va harbiy jismoniy tayyorgarlikka bog`liqdir, ya'ni ixtisoslashuvning muvaffaqiyati ta'lim va jismoniy tayyorgarlik asosida yaratiladi. Har tomonlama umumiy jismoniy tayyorgarlik inson kamolotining asosiy qonuniyatlaridandir. Jismoniy fazilatlarining takomillashuvi oliy darajadagi harakat malaka va ko`nikmalarini shakllanganligi maxsus jismoniy va sport tayyorgarligini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Sportda rekordlar ketidan quvish yoki shuhratparastlik xislati jismoniy tarbiya va sportning shaxsni har tomonlama rivojlantirish tamoyilini buzadi, va natijada jamiyat uchun hos bo`lmagan axloqsiz sportchilar shakllanadi.

Jismoniy tarbiya sog`lomlashtirish tamoyili: Bu tamoyildan quyidagi qoidalar kelib chiqadi: Jismoniy tarbiya bilan shug`ullanuvchilarning sihat-salomatligini mustahkamlash.

Jismoniy madaniyat tashkilotlari, jismoniy tarbiya o`qituvchilari, trenerlar sog`lom kishilar bilan ish ko`radilar. Ular gimnastika, sport, o`yinlari va turizm bilan shug`ullanuvchilarning sihat-salomatligini saqlash uchungina emas, balki ularning sog`ligini mustahkamlash uchun ham javobgardirlar. Jismoniy mashqlar to`g`ri qo`llanilgan sharoitlarda sog`lomlashtiruvchi samara beradi. Jismoniy mashqlarni noto`g`ri qo`llash sihat-salomatlikka putur etkazishi mumkin. Jismoniy mashqlari

bilan shug`ullanuvchilarning yoshi, jinsi, biologik xususiyatlarini va calomatligini hisobga olish zarur.

Muntazam ravishda olib boriladigan vrach va pedagog nazorati ularning ana shu xususiyatlarini qat'iy hisobga olib borishni ko`zda tutadi. O`qituvchi ham, mashg`ulotlarda qatnashuvchining o`zi ham jismoniy mashqlarning ta'siri ostida kishining organizmida yuz beradigan o`zgarishlarni o`z vaqtida sezmasligi mumkin. Unga vrach yordam beradi. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari mashg`ulotlarni tashkil etishda qatnashuvchilarni doimiy tibbiy nazoratdan o`tkazib turishlikni ta'minlash kerak. Tibbiy nazorat yordamida mashg`ulotlar ta'sirini holisona baholash imkonini beradi. Bu bilan jismoniy mashqlarning salbiy va ijobiy ta'siri, mashg`ulotlar tashkil etish uslublarini muvaffaqiyati va samarasi, shug`ullanuvchilarning jismoniy rivojlanishlarini nazorat qilish mumkin. Jismoniy rivojlanish davomida organizmda ijobiy o`zgarishlar bilan birga salbiy-patologik o`zgarishlar ham bo`lishi ular yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu jarayonni faqat mutaxassis vrach aniqlay oladi. Bu holda u sportdan chetlashishi va davolash jismoniy mashqlar bilan shug`ullanishi kabi tavsiyalarni vrach tavsiya etadi. Shuning uchun, mashqlarni organizmga ta'sirini doimo nazorat qilib borish kerak.

Tibbiy nazoratning maqsadi va vazifasi: talabalari sog`ligining xususiyatlari: sog`ligi zaif talabalarni sog`lomlashtirishda jismoniy tarbiyaning ahamiyati: sog`ligi zaif talabalar jismoniy tarbiyasining mazmuni va uslubiyotining xususiyati; tayyorlov va maxsus tibbiy guruhlarda jismoniy tarbiyaning mazmuni, uslubiyoti, vositalarini o`rganish va tahlil etish.

Vrach nazoratining ma'lumotlari jismoniy tarbiya amaliyotida o`z ifodasini topib, jismoniy tarbiyani to`xtovsiz takomillashtirishga yordam berishi kerak. Vrach o`z ishini vrach xonasidagina emas, balki asosan gimnastika zalida, stadionda, suzish basseynlarida amalga oshirishi kerak. U o`zining kuzatishlarini jismoniy mashq mashg`ulotlari jarayoni bilan bevosita bog`lab o`tkazishi kerak. Jismoniy tarbiya tizimining sog`lomlashtirish tamoyili vrach, tarbiyachi, murabbiylar bilan shug`ullanuvchining doimiy hamkorligini talab qiladi.

**Xulosa:**

Ta'lim muassasasida olib boriladigan jismoniy tarbiya va sport, sog'lomlashtirish ishlaridan jismoniy tarbiya darslari, sport to'garaklaridagi mashg'ulotlar, sport musobaqalari va sport bayramlari hamda ommaviy tashkil etiladigan turizm mashg'ulotlarini kiritish mumkin.

Ta'lim muassasasidan tashqari jismoniy tarbiya tadbirlariga bolalar va o'smirlar sport maktabidagi sport to'garaklarida sport tayyorgarliklari mashg'ulotlari xamda yashash joylarida, mahallalarda va oilada jismoniy tarbiya tadbirlari kiritildi. Sport to'garaklaridagi mashg'ulotlar sport turlari bo'yicha yuqori malakali sportchi tayyorlash vazifalarini hal etadi. Yashash joylarida va oilada tashkil etiladigan jismoniy tarbiya tadbirlari talabalarni jismoniy rivojlantirishga ma'naviy va ahloqiy barkamol inson qilib tayyorlashga xamda mehnat faoliyatiga tayyorlashga qaratilgan bo'ladi.

Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya o'qituvchilari va sinf rahbarlari rahbarligida tabiat qo'yniga sayrlar uyushtirildi. Bunda talabalarni jismoniy harakat malaka va ko'nikmalarini shakllantirish, tabiat omillari yordamida chiniqtirish, jismoniy fazilatlarni rivojlantirish amalga oshirildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Физкультура ҳаракатини кенгайтириш. Абдумаликов Р. Тошкент 1988
2. Коробейников Н. Физическое воспитания. Москва. 1989
3. Зацюрский Ю. М. Физическая культура. Москва. 1989
4. Теория и методики физического воспитания. Ашмарин В.В  
Москва.1990
5. Вопросы теории и практики физической культуры и спорта Муаллифлар.  
Белоруссия. 1990
6. Вишняков Т. А. Массовая физическая культура в ВУЗе Москва. 1991  
Методика физического воспитания с основами теории. Матвеев, А. П.  
Москва. 1991

**TALABALAR JISMONIY TARBIYA, SPORT SOG`LOMLASHTIRISH  
MASHG`ULOTLARINI TASHKIL ETISH TA'LIM USLUBLARI VA  
TAMOYILLARI**

*Satimov A'zamjon Ikromovich*

*Namangan muhandislik-qurilish instituti, Jismoniy madaniyat  
kafedراسi katta o'qituvchisi*

*Ortiqov Umidjon Xudoyberdiyevich*

*Namangan muhandislik-qurilish instituti, Jismoniy madaniyat  
kafedراسi katta o'qituvchisi*

*Ortiqov Sirojiddin Xoldorjon o'g'li*

*Namangan shaxar 18-o'rta maktab jismoniy tarbiya o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Talabalar jismoniy tarbiya, sport sog`lomashtirish mashg`ulotlarini tashkil etish ta'lim usullari va tamoyillari, maqsad va mazmuni, malakalar hosil qilish, tarbiyaning turlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Talabalar, jismoniy tarbiya, sog`lomashtirish, pedagogik tizim, ahloqiy sifatlar, estetik tarbiya, jismoniy tarbiya tamoyillari.

O`qitish sog`lomashtirishning muvaffaqiyati, uning maqsadlari va mazmunini, shuningdek, ushbu maqsadlarga erishish vositalari ya'ni, o`qitish usullarini to`g`ri belgilab olishga bog`liq. O`qitish usullari deganda o`qitish sog`lomashtirishning pedagogik maqsadlarini amalga oshirishni ta'minlovchi o`qituvchi va talaba o`rtasidagi muayyan tartibli, maqsadli munosabatlar tizimini tushuniladi.

Jismoniy tarbiya jarayoni ko`p qirralidir. Bu jarayonda ta'lim ham, tarbiya ham beriladi. Jismoniy tarbiya jarayonida ta'lim berish harakat ko`nikmalari, malakalarini hosil qilish, takomillashtirishga qaratilgan bo`ladi. Shu bilan birga, shug`ullanuvchilarni jismoniy rivojlanishiga ta'sir ko`rsatiladi. Tarbiyaning hamma turlarining birligi, ularning o`zaro bir-biriga ta'sir o`tkazishi tub pedagogik qonuniyatlaridan biridir. Aqliy, ahloqiy va estetik tarbiyaning ma'lum tomonlari

jismoniy tarbiya jarayoniga uzviy qo`shilib ketgan. Jismoniy tarbiyaning insonni mehnat va harbiy tayyorgarlik, sog`lomlashtirish hamda har tomonlama rivojlantirish tamoyillari jismoniy tarbiyaning umumiy tamoyillari hisoblanadi. Shu bilan birga jismoniy tarbiya jarayoninig ta'lim va tarbiya tamoyillari ham qabul qilingan. Jismoniy tarbiyada harakatlarni birlashtirish va ularni mashq uslublari bilan yaxlit tartibda qo`llash hollari bo`ladi.

Ta'lim va tarbiya qonuniyatlarini ifodalovchi eng muhim boshlang`ich qoidalar tarbiya tamoyillari deb ataladi. Jismoniy tarbiya jarayonida umumiy pedagogik tamoyillar tadbiq qilinishi mumkin, chunki bu jarayon ta'lim va tarbiyaning xususiy hodisasidir. Jismoniy tarbiya sohasida xususiyatini aks ettirib, alohida ahamiyat kasb etadi.

Onglilik va faollilik tamoyili Har qanday ta'lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyati, tarbiyalanuvchilarning o`zining bu ishga qanchalik ongli va faol munosabatda bo`lishlariga ham bog`liqdir. Jismoniy tarbiya jarayoni vazifalarini to`g`ri tushunish, ularni qiziqish bilan faol bajarish tarbiyaning borishini tezlashtiradi, hosil qilingan bilim, malaka va ko`nikmalarni chuqur takomillashtirish va ulardan xayotga ijodiy ravishda foydalanishga imkon beradi. Bu qonuniyatlar eng avvalo onglilik va faollilik tamoyilining asosini tashkil etadi.

Jismoniy tarbiya jarayonida onglilik va faolilik tamoyili quyidagi asosiy yo`nalishlar bo`yicha qo`llaniladi. Mashg`ulotlarning umumiy maqsadi va konkret vazifalariga nisbatan tushungan holda munosabatda bo`lishni va muhim qiziqishni tarkib toptirish. Onglilik va faollilik tamoyili jismoniy tarbiya mashg`ulotlarining maqsadini tushunish va jismoniy barkamollikning istiqbolini anglash va unga etishni maqsad qilib belgilash bilan ifodalanadi.

Jismoniy tarbiya jarayonida beriladigan vazifalar ma'lum jismoniy mashqlar tarzida bajariladi. Maqsad va vazifalarni qanchalik tushunib olish shug`ullanuvchilarni yosh imkoniyatlariga va tayyorlik darajasiga bog`liqligi o`z-o`zidan ravshandir. Shug`ullanuvchilarning harakatlari bajarilishini o`qituvchi va murabbiylar nazorat qiladilar, baholaydilar va xatolarni tuzatib boradilar. Shunga qaramay shug`ullanuvchilarni o`z harakatlarini o`zlari baholashi va nazorat qilish



qobiliyatini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bunda harakatlarni oldindan xis qilish va sinash qo'llaniladi. Shug'ullanuvchilarning faolliliklarini oshirishda ularning erishgan yutuqlarini muntazam ravishda baholab va rag'batlantirib borish muhim rol o'ynaydi.

Ko'rsatmalilik tamoyili Pedagogika tajribasida ko'rsatmalilik tarbiyalanuvchilarning ko'rish eshitish va idrok etish tuyg'ulariga ta'sir etib tarbiya vazifalarini amalga oshirish tushuniladi. Jismoniy tarbiya jarayonida ko'rsatmalilik muhim rol o'ynaydi, chunki shug'ullanuvchining faoliyati asosan amaliy harakterda bo'ladi va sezgi organlarini har tomonlama rivojlantirishdek o'zining maxsus vazifalaridan biriga egadir. Jismoniy tarbiya jarayonida bevosita ko'rsatmalilik jismoniy mashqlarni namoyish qilib ko'rsatish, shuningdek, bu mashqlarni shaxsiy tajribada "his etish" dan iboratdir. Bevosita ko'rsatmalilikka jismoniy mashqlar va harakatlarni amalda bajarib namoyish qilishni kiritish mumkin. Bavosita ko'rsatmalilikka esa birinchidan, rasm, sxema, maketlardan, kinogramma, videofilmlar va boshqa ko'rsatmali qurollardan, shuningdek, harakatlarning ayrim tomonlarini ko'rsatuvchi va ularning bevosita idrok etishni osonlashtiruvchi har xil maxsus texnik vositalardan foydalanish, ikkinchidan, obrazli so'z kiradi.

Jismoniy harakatlarni o'rganishda quyidagi uslubiyotga amal qilish kerak. Buning uchun mashq haqida to'liq tushunchaga ega bo'lish va uni amalda bajarish his etish lozim. Shuning uchun mashq haqida tushunchaga ega bo'lishda ko'plab ko'rgazmali vositalardan foydalanish mumkin. Harakatlarni amalda bajarishda esa murabbiy tavsiyasi va yordami bilan bajarish kerak. hamda xatolarni o'z vaqtida to'g'rilab borish zarur.

Jismoniy tarbiya jarayonida ko'rgazmalilik tamoyili tarbiyaning umumiy shartlaridan hisoblanadi. Ko'rgazmalilikning hilma-xil shakllaridan foydalanish mashg'ulotlarga qiziqishni oshiradi, mustahkam bilim, mahorat va malaka hosil qilishga yordam beradi.

Bajara bilish va individuallashtirish tamoyili Bajara bilish va individuallashtirish tamoyili tarbiyalanuvchilarning xususiyatlarini hamda ularga berilayotgan topshiriqning qanchalik qiyin yoki engilligini ham hisobga olishni

ifoda etadi. Jismoniy tarbiyada ta'lim va tarbiya jarayonini shug`ullanuvchilarning imkoniyatlarini, yosh va jins xususiyatlarini tayyorgarlik darajasini shuningdek jismoniy va ma'naviy qobiliyatlaridagi individual farqlarni ham hisobga olgan holda tashkil qilish lozimligini bildiradi.

Jismoniy mashqlarni bajara olish, bir tomondan, shug`ullanuvchilarni imkoniyatlariga bog`liq bo`lsa, ikkinchi tomondan, ularning o`zlari uchun xos bo`lgan xususiyatlarga biror mashqni bajarish paytida sodir bo`ladigan obektiv qiyinchiliklarga bog`liq bo`ladi. O`qituvchi bajara olish me'yorini belgilar ekan, avvalo ilmiy ma'lumot va umumlashgan amaliy tajribalar asosida shug`ullanuvchilarning biror bir kontingenti uchun belgilanadigan dasturlarga va normativ talablarga asoslanadi. Shug`ullanuvchilar imkoniyatlari jismoniy tayyorgarlik mezonlari orqali sinash, tibbiy nazorat va pedagogik kuzatishlar bilan aniqlanadi.

Bajara bilish tamoyilini ko`pincha oddiydan murakkabga, osondan qiyinga degan qoidalar bilan ifoda etiladilar. Mashg`ulotlarni individuallashtirish yoki mashqlarni shug`ullanuvchilarning yosh, jins va jismoniy tayyorgarlik hamda imkoniyatlariga muvofiq o`rgatish jarayoni o`ziga xos vosita va uslublarni talab etadi. Organizmning funktsional imkoniyatlari doimo bir xil bo`lmaydi. Shuning uchun harakatlarni o`zlashtirishda tafovutlar Bu tafovutlarning barchasi jismoniy tarbiyada harakat malaka va ko`nikmalarini shakllantirish, jismoniy mashqlarga o`rgatish jarayonlarini qat'iy moslashtirish ya'ni individuallashtirishni talab etadi.

Muntazamlilik tamoyili Muntazamlilik tamoyili jismoniy tarbiya va sport mashg`ulotlarining shuningdek, jismoniy yuklama bilan dam olishni almashtirib turishning muntazamliligida namoyon bo`ladi. Muntazam ravishda mashq qilishning samarasi beqiyos katta bo`ladi. Jismoniy tarbiya jarayonining muntazamliligi asosan yuklama bilan dam olishni eng qulay navbatlashuviga qay darajada bog`liq ekani xususiyati bordir. Uzluksizlik-jismoniy tarbiya inson xayotining barcha davrlaridan uzluksiz davom etadigan jarayondir.

Jismoniy mashqlar bilan shug`ullanish tufayli organizmda sodir bo`ladigan funktsional va tarkibiy o`zgarishlar ziddiyatga uchrashi, paydo bo`lgan shartli

reflektorli bog`lanish so`na boshlaydi, funktsional imkoniyatlarning erishilgan darajasi pasaya boradi va hatto ba'zi regressiv o`zgarishlar 5-7 kun mashq qilinmagandayoq bilinib qoladi.

Jismoniy tarbiya jarayonida ixtisoslashtirilgan mashg`ulotlar muhim ahamiyatga ega bo`ladi. Dastlab zaruriy harakatlar, xususan qo`l harakatlari malaka va ko`nikmalar shakllantiriladi, keyinchalik oyoq va gavda harakatlari bo`lgan asosiy malakalar takomillashtiriladi. Bu bilan tanlangan sport turi bo`yicha ixtisoslashish yuzaga keladi. Jismoniy tarbiya jarayonida harakat malaka va ko`nikmalarini ijobiy ko`chishidan maksimal foydalanib salbiy ko`chishini esa imkoniyat boricha bartaraf etish zarur. Jismoniy yuklamalarni samarali natija berishi muntazamlilik tamoyilining bosh omillari hisoblanadi. Shuningdek, bunday mashg`ulotlardan so`ng aktiv va passiv dam olishning tashkil etish zarur. Mashg`ulotlar va mashqlar izchilligi shug`ullanuvchilarning shaxsiy xususiyatlariga, mashg`ulotlar yo`naltirilishiga, hamda jismoniy yuklamalarning miqdori va tarkibi shuningdek ta'sir kuchiga bog`liq bo`ladi.

Taraqqiyot tamoyili Bu tamoyil jismoniy tarbiya jarayonida shug`ullanuvchilarga qo`yiladigan talablarning umumiy yo`nalishini ifoda etadi va qiyinlashib boruvchi yangi-yangi vazifalarni qo`yish va bajarishni, shular bilan bog`liq bo`lgan yuklamalar xajmi va intensivligini asta-sekin oshirib borishni o`z ichiga oladi. Jismoniy tarbiya ham mashg`ulotdan-mashg`ulotga, bosqichdan-bosqichga uzliksiz o`zgarib borish yo`li bilan doimiy harakatda, o`shishda bo`ladi. Bunda mashqlarning murakkabligi ortib, taosir kuchining pasayib borishi harakterli belgi hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya jarayonida talablarni oshirishning asosiy shartlari engillik, individuallashtirish, tizimlilik tamoyillarini tahlil qilish ularning o`zaro muvofiqdalgini ko`rsatadi. Talablarni oshirib borish yangi topshiriqlar va yuklamalarni bajarishga shug`ullanuvchilar tayyorgarligi muvofiq kelsa topshiriq va yuklamalar organizmining funktsional imkoniyatlariga mos kelsa, yosh, jins, individual xususiyatlarga mos bo`lsa ijobiy natijalarga olib keladi. Mashqlarning almashinishi va o`zaro aloqada bo`lishi bilan bog`liq bo`lgan izchillik,

mashg`ulotlarning muntazamliligi yuklama va dam olishning optimal almashinuvi ham asosiy shartlardan hisoblanadi. Organizm yuklamaga birdan, bir paytda ko`nikib qolmaydi, har xil muddatlar talab qilinadi. Yangi yuklamalar ta'siriga moslashish uchun hammavaqt ma'lum muddat talab qilinadi. Yuklamalarning haftalik, oylik, yillik to`lqinsimon tebranishi shakllarning konkret vazifa va sharoitlariga bog`liqdir. Yuklamalarni to`g`ri chiziqli ortishi ularning umumiy darajasi baland bo`lmagan holda foydalaniladi. Yuklamalarning bosqichma-bosqich orttirishda esa jismoniy tayyorgarlik yoki mashq ko`rganlikni kuchaytirish vazifasi bajariladi.

Jismoniy tarbiya uslublari. Jismoniy tarbiya jarayonini amalga oshirish uchun ta'lim va tarbiyaning o`rgatish kabi pedagogik uslublardan keng foydalaniladi. Jismoniy tarbiya jarayonida hilma-xil uslublari qo`llaniladi. Bu uslublari bevosita, his-tuyg`u bilan idrok etishdan yoki so`zdan, yoki amaliy harakat faoliyatidan foydalanishga asoslanadi. Yuklama va dam olish jismoniy tarbiya uslublari o`ziga xos tarkibiy qismi hisoblanib, tarbiya jarayonida foydalaniladi. Yuklamani tashkil qilish va uni dam olish bilan qo`shib bajarishning tartibi jismoniy tarbiya uslublari tuzilishining asosi bo`lib hisoblanadi. Yuklama samarasi uning hajmi va intensivligiga bog`liqdir

Qat'iy reglamentlashtirilgan mashq usulublari harakatli mashqlarni qat'iy reglamentlashtirilgan sharoitlarda ko`p marta qayta takrorlashdan iborat. Belgilangan harakat dasturida; yuklamaning qat'iy normalashtirish va mashq jarayonida uning dinamikasini to`la boshqarishda; dam olish intervalini qat'iy tartibga solish va ularni belgilangan tartibda yuklama bilan navbatlashishida qat'iy reglamentlashtirilgan mashqlar foydalaniladi.

Harakatli mashqlar dastlab yaxlit va qismlarga bo`lib o`zlashtirilishi mumkin. Harakat amallarini qismlarga bo`lib o`zlashtirishda harakatlar tarkibiy elementlarga bo`linadi va ular navbat bilan o`zlashtiriladi. Qat'iy reglamentlashtirilgan mashq usuli ikki asosiy shaklga bo`linadi.

- 1) mashqlarni qismlarga bo`lib, so`ng izchillik bilan birlashtirib bajarish
- 2) qismlarni tanlab chiqarib yuborish bilan bajariladigan yaxlit mashq.

O`rganilgan harakatlardan takomillashtirish uchun foydalanish har xil bo`ladi.

O`yin uslubi Jismoniy tarbiya uslublarining samarali shakllaridan biri o`yin uslubidir. Jismoniy tarbiyaning o`yin uslubi quyidagi ko`rinishlarda bo`ladi. Faoliyatni taqlid asosida tashkil etish, bunda vaziyatning doimiy va ko`proq darajada bexosdan o`zgarishi bilan maqsadga erishish. O`yin syujeti atrof-muhitdan olingan biror tomoni obrazli ifoda etishdan iborat bo`ladi yoki jismoniy tarbiya talablariga asoslanib o`ynovchilarning harakat qilishlarining maxsus syujeti shakllanadi. Bunday holat ko`proq sport va harakatli o`yinlarda uchraydi.

Maqsadga erishish usullarining hilma-xilligi va faoliyatning kompleks karakterda bo`lishi. O`yinda g`alaba qilish mumkinligi bir harakatlarga bog`liq bo`lmaydi. Jismoniy tarbiya jarayonida o`yinlar faoliyati kompleks shalda bo`ladi. Ya'ni o`yin jarayonida yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, itqitish kabi halma hil harakatlar bajariladi. Shuning uchun g`alabaga erishishda xilma-xil usullar va harakatlarning shakllari qo`llaniladi.

Shug`ullanuvchilarning bemalol mustaqil harakat qilishi, ularning tashabbus va chaqqonlik ko`rsatishlariga va o`z harakat faoliyatlariga talablar qo`yish. O`yinlar qoidasi o`yin yo`nalishini belgilaydi, vazifalarni hal qilishda imkoiniyatlar yaratadi, o`yin davomida vaziyatni doimiy va birdan o`zgarib turishi harakat qobiliyatlarini to`la ishga solishga majbur qiladi. Shug`ullanuvchilar harakatining bir-biriga bog`liqligi, yorqin emotsionallik. O`yinlarda ishtirokchilar o`rtasida aloqa o`rnatiladi, o`zaro hamkorlik va bir-biriga qarshi raqiblik ruhida bo`lish mumkin, qarama-qarshi fikrlar qiziqishlar to`qnashganda ziddiyat vujudga keladi. Bu bilan o`yin maqsadi hal etiladi. Yuksak hissiy holat paydo bo`lib, ahloqiy fazilatlarni namoyon qilish imkoniyati yaratiladi.

**Xulosa:**

Kollejda jismoniy tarbiya darslariga talabalarning 98,9% jalb etilgan, qolgan talabalar jismonan zaif va kasalligi munosabati maxsus tibbiy guruhga kiritilgan. Maxsus tibbiy guruh talabalarini davolovchi jismoniy mashqlar va engil harakatli o`yinlar hamda sayrlar bilan shug`ullanadilar.

Talabalar bilan jismoniy tarbiya darslari, sport to'garaklaridagi mashg'ulotlar oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tamonidan tasdiqlangan jismoniy tarbiya dasturi asosida tashkil etiladi. Sport musobaqalari va bayramlari kollej ma'muriyati hamkorligida ishlab chiqilgan reja asosida tashkil etiladi.

Ilmiy tadqiqot uslublaridan tibbiy biologik tahlilda kasb-hunar kollejida talabalar jismoniy rivojlanishini tibbiy nazorat qilish tashkil etildi. Tibbiy nazoratda talabalar sog'ligi darajasi, kasalliklar tashxisi xamda kasalliklarning turlari, xususiyatlari o'rganildi. Talaba va talabalar tibbiy guruhlariga ajratilishi va ular bilan davolash jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish jarayonlari tashkil etilishi o'rganib chiqildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Вопросы теории и практики физической культуры и спорта Муаллифлар. Белоруссия. 1990
2. Вишняков Т. А. Массовая физическая культура в ВУЗе Москва. 1991
3. Методика физического воспитания с основами теории. Матвеев, А. П. Москва. 1991
4. Теория и методика физической культуры. Матвеев, Л.П. Москва 1991
5. Наглядность в работе учителя физической культуры. Черник Е. С. Москва. 1991
6. Хужаев Ф. Ўзбекистонда жисмоний тарбия. Тошкент. 1997
7. Жисмоний тарбия. Нормуродов А.Тошкент 1998
8. Абдуллаев А., Хонкелдиев Ш.Х. Жисмоний тарбия назарияси ва усулияти. 2000 й. Тошкент.
9. Ахматов М.С. Узлуксиз таълим тизимида оммавий спорт-соғломлаштириш ишларини самарали бошқариш. 2001 й. Тошкент.
10. Жисмоний тарбия ва спорт. Солиев Х. Андижон. 2001.
11. Кошбахтиев И. А. Валеология асослари. 2001 й. Тошкент.
12. Шарипова Д.Д. Формирование здорового образа жизни. 2001г. Ташкент.
13. Саломов Р.С., Керимов Ф.А. Жисмоний тарбияда педагогик технологиялар. 2002 й. Тошкент.
14. Шарипов Т.Ю., Усмонходжаев Т.С. Жисмоний тарбия. Дарс ишланмалари ва харакатли ўйинлар.2005 й.

## ЭГРИ ЧИЗИҚЛИ ШТАМП МАСАЛАЛАРИНИНГ ЕЧИМЛАРИ

*Алмардонов Ойбек Махматқулович*

*Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти катта ўқитувчиси*

**Аннотация:** Егри чизиқли штамп масалаларини ечишдан асосий мақсад турли хил чегаравий шартлар асосида штамп остидаги кучланиш ва кўчишларни аниқлашдан иборатдир. Деформацияланувчи қаттиқ жисмларни ўзаро контакт муаммолари механиканинг энг долзарб соҳаларидан бири бўлиб бу муаммоларнинг пайдо бўлиши, асосан машинасозлик, кончилик, материалларни қайта ишлаш соҳаларининг ривожланиши билан боғлиқ. Ушбу мақолада эластиклик назариясининг асосий тенгламалари ва аралаш чегаравий шартлар ва классик усуллардан фойдаланилган.

**Калит сўзлар:** штамп, эластик ярим текислик, интеграл тенгламалар, яримтекислик, нормал кучланишлар, кўчиш, деформация, кучланиш.

Маълумки эластиклик назариясининг штамп масалаларида асосан тўрт хил турдаги чегаравий шартлар кўрилади ва олиндиган асосий аналитик натижалар Фламан томонидан олинган аналитик ечимга асосланади. Умумий назарияга асосланган ҳолда, штамп формасининг аниқ кўринишларида ярим текисликни кучланганлик ҳолати ўрганилган ва олинган аналитик ифодалар сингуляр интегралларга тегишли бўлиб, ҳар доим ҳам аналитик ечимни олиб бўлмас экан. Олинган интеграл тенгламаларнинг аналитик ечимлари элементар функцияларда ифодаланмаганлиги туфайли, бу тенгламалар сонли усул ёрдамида, Maple 7 программалаш пакети ёрдамида ечилган ва аниқ натижалар олинган.

Техник масалаларда кўп учрайдиган, геометрик профили  $z = Bx^{n+1}$  кўринишдаги штампни эластик ярим текислик билан ўзаро таъсири масаласини кўриб чиқамиз [1].

Бунда чегарадаги кўчиш ва деформация компоненталари куйидагича аниқланади:

$$\bar{u}_z = -Bx^{n+1}, \quad \frac{\partial \bar{u}}{\partial z} = -(n+1)Bx^n, \quad (1)$$

Умумий назарияга кўра, ярим текисликни  $-b \leq x \leq a$  оралиғида кучланиш билан кўчиш компоненталари орасида куйидагича боғланиш мавжуд ва чегаравий шартлар кўчишларда берилган бўлса

$$\int_{-b}^a \frac{q(s)}{x-s} ds = \frac{\pi(1-2\nu)}{2(1-\nu)} p(x) - \frac{\pi E}{2(1-\nu^2)} \bar{u}_x'(x),$$

$$\int_{-b}^a \frac{p(s)}{x-s} ds = \frac{\pi(1-2\nu)}{2(1-\nu)} q(x) - \frac{\pi E}{2(1-\nu^2)} \bar{u}_z'(x). \quad (2)$$

Чегарадаги берилган кўчишларга кўра, бу муносабатлар  $p(x)$  ва  $q(x)$  нормал, урунма кучланишларга нисбатан интеграл тенгламаларни ташкил қилади. Интеграллаш соҳасида  $s=x$  махсус нукта бўлгани учун бу интеграл тенгламалар сингуляр интеграл тенгламалар дейилади.

Агар чегаравий шартлар 2-турга тегишли бўлса, у ҳолда юқорида келтирилган интеграл тенгламалар системаси

$$\int_{-b}^a \frac{F(s)}{x-s} ds = g(x), \quad (3)$$

кўринишга келади. Бунда  $g(x)$ - чегарадаги кучишга боғлиқ бўлган функция.

Бу интеграл тенглама, биринчи тур сингуляр тенгламадан иборат бўлиб, кўпгина контакт масалалари айнан шу кўринишга келади. (2) тенгламанинг аналитик кўринишдаги умумий ечими адабиётларда [2,3] келтирилган бўлиб,

$$F(x) = \frac{1}{\pi^2 [(x+b)(a-x)]^{1/2}} \int_{-b}^a \frac{[(s+b)(a-s)]^{1/2}}{x-s} g(s) ds + \frac{c}{\pi^2 [(x+b)(a-x)]^{1/2}},$$

$g(x)$  функцияга боғлиқ бўлар экан.



Агар координата боши чегарадаги кучланишлар қўйилган соҳанинг ўртасига қўйилган бўлса, у ҳолда  $F(x)$  функциянинг кўриниши соддалашади.

$$F(x) = \frac{1}{\pi^2(a^2 - x^2)^{1/2}} \int_{-a}^a \frac{(a^2 - s^2)^{1/2}}{x - s} g(s) ds + \frac{c}{\pi^2(a^2 - x^2)^{1/2}}.$$

Бунда:  $c = \pi \int_{-b}^a F(x) dx.$

Юқоридаги келтирилган интеграллар хос интеграллардан иборат бўлиб:

$$\int_{-b}^a \frac{f(s) ds}{x - s} = \lim_{\varepsilon \rightarrow 0} \left[ \int_{-b}^{x-\varepsilon} \frac{f(s) ds}{x - s} + \int_{x+\varepsilon}^a \frac{f(s) ds}{x - s} \right], \tag{4}$$

лимит кўринишида ҳисобланади (Коши интеграл).

Бу интеграл тенгламанинг ечими (координата системасини марказга келтирадиган бўлсак)

$$p(x) = \frac{1}{\pi^2(a^2 - x^2)^{1/2}} \int_{-a}^a \frac{(a^2 - s^2)^{1/2}}{x - s} \frac{\pi E B S^n}{\alpha(1 - \nu^2)} ds + \frac{c}{\pi^2(a^2 - x^2)^{1/2}},$$

яъни яримтекислик сиртида (штамп таъсиридаги) нормал тарқалган кучни ифодаси келиб чиқади.

Шундай қилиб, чегарадаги нормал кучланишнинг тақсимоми

$$\int_{-1}^1 \frac{(1 - s^2)^{\frac{1}{2}} s^n}{x - s} ds = I_n \tag{5}$$

интегралга боғлиқ бўлар экан.

Келтирилган интегралнинг қиймати устида тўхталиб ўтамиз.

$$\begin{aligned} I_0 &= \int_{-1}^1 \frac{(1 - s^2)^{1/2}}{x - s} ds = \pi x, \\ I_1 &= x I_0 - I_0 = (x - 1) I_0, \\ &\dots\dots\dots \\ I_n &= x^n I_0 - x^{n-1} I_0 - x^{n-2} I_1 - \dots - x I_{n-2} - I_{n-1}. \end{aligned} \tag{6}$$

Бунга кўра, штамп остидаги кучланиш қуйидагича кўринишда бўлар экан:

$$p(x) = -\frac{E(n+1) B a^{n+1}}{2(1-\nu^2)\pi} \frac{I_n}{(a^2-x^2)^{1/2}} + \frac{P}{(a^2-x^2)^{1/2}} \quad (7)$$

Иккинчи масала сифатида, штамп сиртини ярим текислик билан ҳосил қиладиган контакт сирти  $\bar{u}_z = d \cos x$  кўринишида бўлган ҳолни кўриб чиқамиз [4].

У ҳолда  $(\bar{u}_z)' = -d \sin x$  ва штампни абсолют силлиқ ( $q(x) = 0$ ) деб қарасак

$$\int_{-a}^a \frac{p(s)}{x-s} ds = \frac{-\pi E}{2(1-\nu^2)} d \sin x . \quad (8)$$

Бу тенламанинг ечими юқорида келтирилгандек

$$p(x) = -\frac{Ed}{2(1-\nu^2)\pi(a^2-x^2)^{1/2}} \int_{-a}^a \frac{(a^2-s^2)^{1/2}}{x-s} \sin s ds + \frac{c}{\pi^2(a^2-x^2)^{1/2}} \quad (9)$$

муносабат орқали аниқланади.

Олинган нормал кучланишларни

$$\sigma_x = -\frac{2z}{\pi} \int_{-b}^a \frac{p(s)(x-s)^2 ds}{[(x-s)^2 + z^2]^2},$$

$$\sigma_z = -\frac{2z^3}{\pi} \int_{-b}^a \frac{p(s) ds}{[(x-s)^2 + z^2]^2},$$

$$\tau_{xz} = -\frac{2z^2}{\pi} \int_{-b}^a \frac{p(s)(x-s) ds}{[(x-s)^2 + z^2]^2},$$

муносабатларга қўйиб, ярим текисликни ички нуқталаридаги кучланишларни аниқлаймиз.

Лекин кўрилган масалада интегралларни элементар функцияларда ифодалаб бўлмайди. Бу масалани ҳал қилиш учун сонли интеграллаш усулидан фойдаланган маъкул. Юқорида келтирилган масалаларга тегишли ярим текисликни кучланиш ва деформация компоненталари системанинг аниқ қийматларида Maple 7 программалаш пакети ёрдамида сонли натижалар олиш мумкин.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Алмардонов О.М. “Қаттиқ штампнинг эластик яримтекисликка босими ҳақида масала”. Математика, механика ва информатика фанларининг ривожига истеъдодли ёшларнинг ўрни илмий амалий тезислари тўплами. Тошкент-2013. 8-бет.
2. Галин А.А. Контактные задачи теории упругости и вязкоупругости. М.: Наука. 1980.
3. Тимошенко С.П., Гудьер Дж. “Теория упругости” М.: Наука. 1979.
4. Джонсон К. “Механика контактного взаимодействия”.; Москва. МИР.1989.

## КОНЦЕПЦИЯ ГЕРОЯ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ СОВРЕМЕННОЙ РУССКОЙ ПРОЗЫ

*Искандарова Насиба Искандар кизи*

*Магистрант 2 курса, Узбекский государственный университет*

*Мировых языков*

**Аннотация.** В статье, на материале анализа современных художественных произведений русской прозы, выявляются некоторые типы литературного героя. Выбор произведений основывается на принципах официальной номинации – произведения, ставшие лауреатами крупных российских литературных премий и конкурсов (признание профессиональным сообществом), а также удерживающие первые позиции в рейтинге продаж (востребованность аудитории).

**Ключевые слова:** современная литература, культурный герой, ценностные ориентиры времени, социокультурная диагностика действительности.

**Abstract.** Based on the analysis of modern Russian prose, several types of literary character are identified. The choice of works is based on the principles of the official nomination – the works which have become winners of large Russian literary awards and competitions (recognition by professional community) and also holding the first positions in the rating of sales (demand of audience).

**Key words:** Modern literature, cultural character, value reference points of time, sociocultural diagnostics of reality.

*Общество находит в литературе свою действительную жизнь, возведенную в идеал, приведенную в сознание.*

**В. Г. Белинский**

Современный литературный процесс – явление сложное, не поддающееся логике линейнопоступательного развития, совмещающее подчас противоречивые и многоплановые смысловые и ценностные конструкты – что во многом препятствует однозначности трактовки исследовательской диагностики и рефлексии.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada IEA tashkiloti tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar bo'yicha qisqacha ma'lumot berilgan. Xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS, PIRLS) ga o'quvchilarni tayyorlash uchun asosan nimalarga ahamiyat berish kerakligini va bu borada mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha fikr- mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** PISA , PIRLS, TIMSS, IEA, nazoratga olish, mantiqiy fikrlash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi farmoni bilan tasdiqlangan "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiya"sida uzluksiz ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, jahon ta'lim reytinglarida mamlakatimizni yuqori pog'onalariga olib chiqish kabi bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish bu - ta'lim tizimimizning juda muhim ekanligini anglatadi. IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tashkiloti tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning aksariyati o'quvchilarning akademik faoliyatini bir yoki bir nechta fanlardan yoki fanlararo uyg'unlik asosida baholashni o'z ichiga oladi, bu esa dunyo bo'yicha umumiy va har bir mamlakat kesimida ta'lim jarayonlarini chuqur tahlil qilishga yordam beradi.

O'quvchilarning erishgan yutuqlarini o'rganishda barcha o'quvchilarning emas, balki ushbu qatlamning vakili sifatida tanlab olingan o'quvchilarning obyektiv testlarni o'tkazish orqali baholanadi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalar o'tkazilib, maktabdagi ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatkichi omillar, jumladan, maktab resurslari, o'quvchilarning ta'lim olishga oid qarashlari, o'qitish usullari hamda uy sharoitida o'quvchilarning bilim olishi qanchalik darajada qo'lab-quvvatlanayotganligiiga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi. O'qituvchilarning va o'quvchilarning PISA va PIRLS tadqiqotlari haqidagi tasavvurlarini boyitish, xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik darajasini oshirish, o'quvchilarning ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida Ta'lim inspeksiyasi, uning huzuridagi Milliy markaz hamda xalq ta'limi tizimidagi mutaxassislar bilan hamkorlikda qator ishlar amalga oshirildi. Lekin o'quvchilarni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashda muammolar to'laligicha bartaraf etilgani yo'q. Xalqaro baholash dasturlari haqida barcha pedagoglar umumta'lim muassasasi o'qituvchilari to'liq ma'lumotga ega bo'lishlari kerak. Bu borada yaratilgan qo'llanmalar ta'lim muassasalariga yetkazilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Shuningdek, xalqaro baholash dasturlari haqida o'quvchilar ham batafsil ma'lumotga ega bo'lishlari, bu dasturlarning ahamiyatini anglab yetishlari muhim masalalardan biridir. Buning uchun darsliklarga xalqaro baholash dasturlari ( PISA, PIRLS, TIMSS) haqidagi ma'lumotlar shu dasturlar uchun tayyorlangan topshiriqlar kiritilishi kerak, deb o'ylayman. Darslikdagi yangi ma'lumotlar o'quvchining dunyo miqiyosida o'z tengdoshlari bilan raqobatbardosh bo'la olishi uchun imkon yaratadi. O'quvchilarning xalqaro PISA, PIRLS, TIMSS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etishi uchun maktablarda alohida to'garaklar tashkil etilishi, bu to'garaklar, albatta, tajribali pedagoglar tomonidan o'tilishi maqsadga muvofiq. O'quvchilarning ma'lum bir vaqt orasida ( masalan bir oyda bir marta) imtihon topshirishlari va bu doimiy ravishda nazorat qilinsa, xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarga erishishimiz uchun sharoit yaratilgan bo'ladi.

Bundan tashqari, Xalqaro baholash dasturlarida belgilangan topshiriqlar, masalan, PISA topshiriqlari yetuk tajribaga ega bo'lgan xalqaro ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bunga o'xshash topshiriqni ishlab chiqish uchun tizimli va maxsus bilim talab etiladi. PISA talablariga rioya qilmasdan tuzilgan topshiriqlar o'quvchilarga yordam berish o'rniga ularni chalg'itib qo'yishi ham mumkin. Shuning uchun e'tiborimizni o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qaratishimiz kerak bo'ladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'quvchilarning dunyo miqyosida yetakchi o'rinlarni egallashlari uchun tinmay izlanish, yuksak bilim va mahoratga ega bo'lish va bu bilimimizni yoshlar ongiga singdirishimiz darkor. Shubhasiz, globallasuv sharoitida shiddat bilan rivojlanayotgan davr talabiga mos ravishda birgalikda harakat qilaylik!

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5712- sonli farmoni
2. A.B.Radjiyev, A.A Ismoilov, J.R Narziyev, H.P Tog'ayeva "O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dastur", Qo'llanma, 2019- yil
3. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarini amalga oshirish milliy markazi veb sayti [www.markaz.tdi.uz](http://www.markaz.tdi.uz)
4. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019- yil. 92- bet

## AVESTODA MIFOLOGIK TASAVVURLAR BAYONI

*Norpayev Hosilbek*

*O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi, Islomshunoslik yo'nalishi,*

*Dinshunoslik fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Yaxshilik va yovuzlikning asotirlarda ifodalanishi. Ma'lumki, dunyoda juda ko'plab dinlar mavjud bo'lib, ularning e'tiqod asoslari turlichadir. Dinshunoslik fanida ushbu dinlarni muayyan tarzda tasniflash qabul qilingan: politeistik (kupxudolik), monoteistik (yakkaxudolik), dualistik dinlar shular jumlasiga kiradi. Dualizm – bu ta'limot olamni yaratilishida ikki ibtido qatnashganligi hamda bu dunyo ular o'rtasida azaliy kurash maydoni ekanligiga ishonadi. Bu ta'limotga ko'ra, insonlar ongida dastavval yoru'lik va qorong'ulik, issiq va sovuq, hayot va o'lim, sog'lik va kasallik kabi tushunchlar paydo bo'lgan. Keyinchalik bu tushunchlar ta'sirida dunyodagi barcha yaxshi narsalarni yaxshi ilohlar va barcha yomonliklarni yovuz devlar yaratgan degan qarashlar paydo bo'lgan.

Dualizm yorqin namoyon bo'lgan mavzulardan yana biri – borliq yaratilishida egizaklar roli haqidagi qadimiy tasavvurlardir. Umuman, dunyoning ikki egizak aka-uka orasidagi kurash asnosida paydo bo'lishi haqidagi afsonalar ko'plab ibtidoiy elatlarda mavjud bo'lib, dunyoning narigi burchagida joylashgan Amerikadagi irokez qabilalari bilan zardushtiylikda bir xil asosda namoyon bo'lishini B.Taylor aytib o'tgan.

Ma'lumki, zardushtiylik mifologiyasining asosida ezgulik va yovuzlik kurashi, ya'ni dualistik tasavvurlar yotadi. Ana shu tasavvurlarga ko'ra kun bilan tunning kurashi va unda Quyoshning g'olib chiqishi dualistik motivlar asosida tasvirlanadi. "Xurshed yasht" tarkibiga kirgan alqovlar orasida aslida ana shu mifik

motivli bandlar ham bo‘lgan va keyinchalik unutilib yoki yo‘qolib ketgan bo‘lishi kerak<sup>1</sup>.

Avesta avval boshida dunyoni faqat ezguliklar majmuyi va mutanosibliği sifatida tasvirlaydi. Unda yovuzliklar, o‘lim yo‘q, kasalliklar yo‘q. Dunyo azal va abad porloqliklardan iborat – qorong‘ulik yo‘q, yoz bor, qish yo‘q, ezgu niyat bor, yovuz o‘y, yomonlik haqida o‘ylash yo‘q. Chunki, yovuzlik hali Ma‘lumki, dunyoda juda ko‘plab dinlar mavjud bo‘lib, ularning e‘tiqod asoslari turlichadir. Dinshunoslik fanida ushbu dinlarni muayyan tarzda tasniflash qabul qilingan: politeistik (kupxudolik), monoteistik (yakkaxudolik), dualistik dinlar shular jumlasiga kiradi. Dualizm – bu ta‘limot olamni yaratilishida ikki ibtido qatnashganligi hamda bu dunyo ular o‘rtasida azaliy kurash maydoni ekanligiga ishonadi. Bu ta‘limotga ko‘ra, insonlar ongida dastavval yoru‘lik va qorong‘ulik, issiq va sovuq, hayot va o‘lim, sog‘lik va kasallik kabi tushunchlar paydo bo‘lgan. Keyinchalik bu tushunchlar ta‘sirida dunyodagi barcha yaxshi narsalarni yaxshi ilohlar va barcha yomonliklarni yovuz devlar yaratgan degan qarashlar paydo bo‘lgan.

Dualizm yorqin namoyon bo‘lgan mavzulardan yana biri – borliq yaratilishida egizaklar roli haqidagi qadimiy tasavvurlardir. Umuman, dunyoning ikki egizak aka-uka orasidagi kurash asnosida paydo bo‘lishi haqidagi afsonalar ko‘plab ibtidoiy elatlarda mavjud bo‘lib, dunyoning narigi burchagida joylashgan Amerikadagi irokez qabilalari bilan zardushtiylikda bir xil asosda namoyon bo‘lishini B.Taylor aytib o‘tgan<sup>2</sup>.

Ma‘lumki, zardushtiylik mifologiyasining asosida ezgulik va yovuzlik kurashi, ya‘ni dualistik tasavvurlar yotadi. Ana shu tasavvurlarga ko‘ra kun bilan tunning kurashi va unda Quyoshning g‘olib chiqishi dualistik motivlar asosida tasvirlanadi.

“Xurshed yasht” tarkibiga kirgan alqovlar orasida aslida ana shu mifik motivli bandlar ham bo‘lgan va keyinchalik unutilib yoki yo‘qolib ketgan bo‘lishi kerak<sup>3</sup>.

Avesta avval boshida dunyoni faqat ezguliklar majmuyi va mutanosibliği sifatida tasvirlaydi. Unda yovuzliklar, o‘lim yo‘q, kasalliklar yo‘q. Dunyo azal va abad porloqliklardan iborat – qorong‘ulik yo‘q, yoz bor, qish yo‘q, ezgu niyat bor, yovuz o‘y, yomonlik haqida o‘ylash yo‘q. Chunki, yovuzlik hali tug‘ulmagan. Rostlik, chinlik bor, lekin barcha yovuzliklarning bosh manbayi yolg‘on yo‘q. Imonli inson bor, imonsizlikning o‘zi ham yo‘q. Zardushtiylikda imonli, e‘tiqodi butun va mustahkam qavm *artabon*, ya‘ni yaratgan borligiga ishongan odam, Haqning qo‘riqchisi deb ataladi. Xullas, Avesta borliq dunyoni dastlab ana shunday bir jannatiy tusda ta‘riflaydi va insonni shunga munosib bo‘lishga chorlaydi<sup>4</sup>.

Shuningdek, zardushtiylik ta‘limoti bo‘yicha dunyo ikki qarama-qarshi, o‘zaro dushman qutb orqali tasvirlanadi. Borliq ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash maydoni deb hisoblanadi. Dastlab Ahura Mazda faqat ezgu borliqni yaratgan. Biroq yovuzlikning bosh sababchisi Axriman barcha ezguliklarning ziddi uchun son-sanoqsiz yovuzliklar qiyofasida namoyon bo‘laveradi. Axriman yovuzliklarni umumiy tarzda o‘zida mujassam etgan tushuncha Avestada Duruj(Drauga) – “Yolg‘on” devi sifatida ta‘riflanadi. Yolg‘on(Duruj) Arta(Asha) – Haq(Haqiqat)ga qarama-qarshi qo‘yiladi. Cheksiz, poyonsiz kurashlar oqibatida Axriman(uning universal qiyofasi Yolg‘on) yo‘q qilinadi. Haqiqat g‘olib chiqib, borliqdagi barcha imonlilar behishtga(jannatga) doxil bo‘ladilar. Avestadagi bu optimistik g‘oya zardushtiylik dinining ideali hisoblanadi<sup>5</sup>.

Yovuz asoslar boshida faqat yomonlik haqida o‘ylaydigan Axriman – Axra Maynyu – *Angxramaynyu* turadi. U Ahura Mazdaning teskarisi. Axriman har bir yaxshilikka qarama-qarshi yomonlik bilan javob beradi: Arta (haqiqat) – Drauga (yolg‘on), Yorug‘lik (rauchax) – zimiston (tarik), yaxshilik-yomonlik. Drauga (durug) “yolg‘on” yomonlikni keltirib chiqaruvchi ayol sifatida namoyon bo‘ladi. Axrimanning yovuzliklari qatorida Nasu o‘lim va yomonlik timsolidir. Axriman jangchilari orasida asosiy rolni devlar o‘ynaydi. Bular Zardusht inkor etgan qadimiy xudolardir. Masalan, Araska – hasad devi, Zarvan – qarilik ko‘rinishidagi kasallik,

Varena – xirs, Azy – ochko‘zlik, Apausha – qurg‘oqchilk devi, yana Bushyasta – dangasalik devi bo‘lib, u insonni ezgulik va din yo‘lidagi harakatlaridan chalg‘itadi, Ayshma – g‘azab devi, u insonni yovuz niyatlarga chorlaydi. Axriman jangchilari qatoriga zardushtiylik e‘tiqodiga qarshilar ham kiradi<sup>6</sup>.

Zardushtiylik negizida olamning qarama-qarshiliklar kurashi asosiga qurilganligi turadi: yaxshilik va yomonlik, yorug‘lik va qorong‘ulik, hayot va o‘lim o‘rtasida abadiy kurash davom etadi. Barcha yaxshiliklarni Ahura-Mazda va barcha yomonliklarni Anxra Maynyu (yoki Axriman) ifodalaydi.

Ahura Mazda insonlarga ezgu ishlarni bayon etib ularga amal qilishni buyuradi, yomon ishlardan saqlanishga chaqiradi. Zardushtiylikda imon uchta narsaga asoslanadi: fikrlar sofliigi, so‘zning sobitligi, amallarning insoniyliigi. Har bir zardushtiy kuniga besh marta yuvinib, poklanib, Quyoshga qarab, uni olqishlab, sig‘inishi shart. Zardushtiylik ibodatxonalarida doimiy ravishda olov yonib turadi. Ularda dunyodagi to‘rt unsur – suv, olov, yer va havo ulug‘lanadi.

Zardusht ta‘limotida bu qarama-qarshi qudratlar dunyoning paydo bo‘lishidan boshlab mavjud deb tushniladi.

Avesta kitobi Yasna qismining XXX bobida Zardusht oddiy xalq va zadogonlarga Hukmdor Vishtasp oldida tashviqot qilib aytgan gaplari sof holda saqlanib qolgan. Unda shunday satrlarni uchratamiz.

3. “Dastlab mohirlik bilan ikkita ruh egizaklar yaratildi – ezgulik va qabohat ularga fikrda, amalda, va so‘zda aqli rasolikni baxsh ayladi, so‘ngra o‘ylab tanlash buyurildi.

4. So‘ngra bu ikki ruhning roziligi ila barcha mavjud narsalarning vujudga kelishi va o‘tkinchligi (hayot va o‘lim)ni ta‘sis qildi va Yolg‘onga ergashuvchilarga (Drug‘vand, ya‘ni yolg‘onchilarning yetakchisi, yolg‘on e‘tiqod qiluvchilar) eng yomon hayot kechirishga, Haqiqat (Ashavan, ya‘ni, haqiqiy e‘tiqodga sajda qiluvchilar)ga ergashuvchilarga esa ruhan xotirjamlik, farovon hayot in‘om etishga qaror qilindi” va h.k.

Bu qisqa satrlarning o'zidanoq shu narsa ma'lum bo'ladiki, Avesta ta'limoti ko'pxudolik(politeizm)dan yakka xudolik (monoteizm)ga o'sib o'tish evolutsiyasini o'zida aks ettiradi. Ahura Mazda olamdagi mavjud o'tkinchi vaqt oqimi tomonidan yaratilgan ikkita egizak ruhlarning biridir. Ahura Mazda olamdagi barcha ezgu ishlarni, yaxshilik, yorug'likni o'zida mujassamlashtiruvchi tangri qiyofasida gavdlantiriladi. Egizak ruhlarning ikkinchisi Anxra Maynyu esa o'zida zulmat, qabohat, jaholat kuchlarini mujassamlashtiruvchi qudrat timsolida namoyon bo'ladi<sup>7</sup>.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, dunyo sinovlardan emas, balki yovuzlikka qarshi kurashdan iborat, xolos. Ta'limotda insoniyat yashayotgan dunyo muhim hisoblanadi. Shuning uchun unda dunyoviy lazzatlardan oxirat uchun voz kechish masalalari ilgari surilmaydi.

Zardushtiylikka ko'ra, ezgu amallar qilish orqali yovuzlikni yengish mumkin. Har bir zardushtiy hayotini ezgu fikr – xumata, ezgu so'z – xuxta, ezgu amal – xvartsha asosiga qurishi hamda yovuz fikr – dujvartshta, yovuz so'z – dujuxta, yovuz amal – dujmatadan saqlanishi zarur.

Har bir inson vijdon amriga binoan ezgulik va yovuzlik orasidagi farqni topa olishi lozim. Har kim Anxra Maynyu va uning tarafdorlariga qarshi kurashishi zarur. Jumladan, Anxra Maynyu yaratgan chayon, ilon va boshqa turli yirtqich hayvonlar *xrafstra* (jirkanchli) deb atalib, ularni o'ldirish mumkin.

Zardushtiylik dini aqidalariga ko'ra Quyosh botgach, yovuz kuchlar ta'siri ostida qolgan zaminda Axriman yaratgan devlar hukmronlik qiladi. Ular borliqni g'orat qilish payida bo'ladilar. Faqat tong otib, ularning manfur rejasi amalga oshmay qolaveradi. Tun qorong'uligi Axriman yaratgan yovuz kuchlarga taalluqli bo'lganligi uchun yer yuzidagi suv havzalari ham kechasi devlar xuruji tufayli bug'lanar emish. "Xurshed yasht" da Quyosh chiqishi bilan "Mazda yaratgan yer balqib", tirik (oqadigan, ya'ni daryo, ariq, buloq va jilg'lar suvi) va o'lik (oqmaydigan, dengiz va ko'l) suvlar ham yorilishi aytiladi. Bizningcha, alqovning



bu bandida Quyosh nurlarining poklash xususiyatiga ega deb tasavvur qilinishi haqidagi mifologik qarashlar o'z ifodasini topgan.

Xulosa: Yuqorida o'rganilgan ma'lumotlar asosida quyidagicha xulosa qilish mumkinki, avvalo, Avesta mifologiyasining shakllanishi juda uzoq tarixiy jarayonda sodir bo'lganligi undagi mifologik abrazlar murakkab tizimni tashkil qiladi. Ibtidoiy davrdan boshlab insonlar tafakurida shakllangan asotirlar zardushtiylik diniy tizimiga kirib borgan. Shuningdek, tabiat bilan bog'liq ayrim kultlar bilan zardushtiylik ilohiyoti tizimidagi ma'budlarning mujassamlashgani ayrim muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Avesta kitobi mifologik qatlamlari ezgulik va yovuzlik kuchlari o'rtasidagi qarama-qarshilikning albatta ezgulik g'alabasi bilan tugashi kabi optimistik ruh bilan sug'orilgan. Ayni mana shu hol nafaqat zardushtiylik diniy tizimi, balki mifologik qatlamlar orqali ramziy umumlashmalarga aylangan axloqiy-falsafiy dunyoni ham qarama-qarshi qutbga, ya'ni yaxshilik va yomonlik timsollariga ajratgan. Zardushtiylik ta'limotining asosini insonni qurshab turgan olam – ikki ibtido – yaratuvchi va buzg'unchi ruhlarning kurash maydoni ekanligi yotadi. Demak har qanday yomonlik jazosiz qolmasligi, oxir oqibat ezgulik dunyodagi barcha yovuz kuchlarni mahv etishi zardushtiykdagi bosh g'oyalardandir.

#### **Foydalangan ma'lumotlar:**

1. Mirziyoyev SH. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.
2. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Tanlangan asarlar: T.I. – T., Fan, 1968. - 488 b.
3. Avesta: "Videvdot" kitobi. / M.Is'hoqov tarjimasini. – T.: TDSHI nashriyot – bosmaxona bo'limi, 2007. – 96 b.
4. Avesta: Tarixiy-adabiy yodgorlik // Asqar Mahkam tarjimasini. – T.: Sharq, 2001. – 384 b., 16 b. zarvaraq.
5. Avesta: Izbranniye gimni: Iz Videvdata/ Per. s avest. I.M. Steblin Kamenskogo. M., 1993. – 298 s.
6. Boys Meri. Zaroastriytsi. Verovanie i obichai. – M.: Nauka, 1988. – 364 s.

**ТЕХНОЛОГИЯ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА ДЛЯ  
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ АНТИКОРРУПЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ  
СТУДЕНТОВ**

*Хайдаралиев Хуршид Хамидуллаевич*

*Зав.кафедры (Phd) Факультета Физической культуры Ферганского  
Государственного Университета*

**Аннотация**

В статье анализируются основные условия и задачи образовательного учреждения высшего образования в сфере противодействия коррупции, рассматривается идея формирования антикоррупционной компетентности студентов средствами социально-культурной деятельности.

**Ключевые слова**

Комплекс, эффект, формирование, образовательная среда, антикоррупционная компетентность, противодействие.

В настоящее время коррупция как негативное и массовое явление превратилась в угрозу для всего нашего общества, стала нормой общественного поведения и является наследием всех государств. Вопрос эффективного предотвращения и противодействия коррупции является одной из важнейших проблем, которую пытается решить государство, а также одним из приоритетных направлений государственной политики. Противодействие коррупции предполагает комплексное воздействие, которое включает в себя совершенствование антикоррупционного законодательства, антикоррупционное образование и просвещение, пропаганду, а также создание действенной системы стимулов антикоррупционного поведения граждан.

Невзирая на принимаемые меры, коррупция продолжает оставаться одной из актуальных проблем общества. Коррупция начинает сдавать свои позиции тогда, когда воздействие закона подкрепляется нравственным осуждением, моральной нетерпимостью к тем, кто использует свое служебное положение для извлечения личной выгоды. В связи с этим целесообразно усилить роль общества в противодействии. В современных условиях одной из определяющих сторон образования является фундаментальность теоретической и прикладной подготовки будущих специалистов, подразумевающая их готовность к эффективной профессиональной деятельности, которая сегодня не представляется возможной без сформированной в процессе обучения профессиональной компетентности, оказывающей влияние как на уровень работоспособности, так и на профессиональное долголетие специалистов, а также на повышение качества образования посредством повышения правовой компетентности обучаемых умению реализовывать знания при решении возникающих задач антикоррупционного характера в ходе профессиональной деятельности, поэтапную адаптацию, а также обладание правовым сознанием, нетерпимостью к коррупционному поведению, компетентностью в сфере противодействия коррупции.

Актуализируется потребность в формировании правового сознания, в том числе антикоррупционного мировоззрения студентов, педагогической подготовки к предупреждению коррупционного поведения, что требует системных и эффективных изменений в содержании образования. Необходимость формирования компетентности современного специалиста подчеркивается в трудах С.И. Архангельского, В.В. Краевского, Н.В. Кузьминой, А.В. Морозова и др.; формирование правовой культуры в процессе профессиональной подготовки и воспитательные аспекты – в трудах К.Ф. Амирова, В.А. Анучкина, С.В. Воронкова, Е.А. Рассоловой и др.

Проблемы профессиональной социализации студентов рассмотрены в работах Л.В. Будкиной, И.Ш. Мухаметзянова, Н.И. Никитова и др.; вопросы

предупреждения отклонений в поведении, общей превенции, преодоления негативных склонностей в поведении личности рассмотрены в исследованиях представителей превентивной педагогики и психологии И.А. Алехина, В.Н. Гетманского, А.Д. Глоточкина, Ю.М. Кудрявцева и др.;

Практическая значимость проведенного исследования состоит в том, что нами разработан и внедрен в общий процесс формирования компетентности в сфере противодействия коррупции ряд специальных компетенций, среди которых: общекультурная специальная компетенция «иметь нетерпимое отношение к коррупционному поведению, уважительно относиться к праву и закону», которая позволяет активизировать процесс усвоения студентами правовых знаний; общепрофессиональная специальная компетенция «способность повышать уровень своей компетентности в сфере противодействия коррупции», выполняющая мотивирующую функцию, побуждая студентов к самостоятельной работе; профессиональные специальные компетенции «способность осуществлять консультирование в сфере законодательства по противодействию коррупции», позволяющая студентам проводить тренинговые занятия во внеаудиторный период, и «способность осуществлять мониторинг в сфере противодействия коррупции», которая позволит студентам-бакалаврам синтезировать знания и умения в сфере тенденций и оценки состояния противодействия коррупции в обществе.

Современное узбекское гражданское общество стоит перед лицом серьёзных опасностей и угроз, одной из которых является высокий уровень коррупции. Коррупция в Узбекистане становится явлением, которое определяет состояние и порядок развития государства во многих сферах общественной жизни. В мировом рейтинге высокая устойчивость к коррупции считается проявлением зрелости государства, его способности к само рефлексии. В определённом смысле именно наличие само рефлексии отличает зрелые социальные организмы от восторженно переживающих первые опыты само идентичности молодых государств.

Сегодня тема противодействия коррупции становится одной из наиболее обсуждаемых, но это не является показателем повышения коррупционной составляющей в обществе, а скорее, указывает на то, что власть пытается переосмыслить угрозу, стоящую на пути развития и продвижения страны. Государство пытается вовлечь в процесс формирования коррупционной устойчивости всё узбекское сообщество. «Чтобы бороться с коррупцией во всех сферах нужно сделать всем антикоррупционную вакцину – подчеркнул Президент Узбекистана Ш. Мирзиёев. В самом деле, коррупция характерна едва ли не для любого государственного устройства практически с момента зарождения, и ещё ни одной стране не удалось полностью избавиться от неё. Результаты исследований постоянно указывают на то, что среди наиболее подверженных коррупции сфер общественной жизни выделяются те, в которых активность государства объективно ограничена. Это формы социального бытия, в которых наиболее эффективно могли бы действовать институты и университеты гражданского общества, способствуя таким образом формированию его структуры – фундамента демократии в стране. На первый план здесь выходят высшие учебные заведения, которые могут и должны решить ряд задач по формированию личности, устойчивой к коррупционной среде в современном обществе, прежде всего – к коррупционным правонарушениям в академической среде.

Систематические проявления коррупции в высшем учебном заведении способны негативно повлиять на престиж учебного заведения и стать препятствием для поддержания приемлемого уровня его конкурентоспособности.

Для эффективной деятельности необходимо сформировать комплексное воздействие, которое объединит правовое воспитание, антикоррупционное просвещение и пропаганду, а также позволит создать стимулы для формирования устойчивого антикоррупционного поведения – словом, позволит создать антикоррупционную компетентность.

Следует обозначить обязательные условия эффективности работы в сфере противодействия коррупции в вузовском сообществе:

- 1) любая деятельность по противодействию коррупции в вузе не должна вести к ограничению академических свобод;
- 2) мероприятия должны иметь характер открытости, не вызывать опасений и недоверия.

Любые злоупотребления или тотальный контроль могут отразиться на имидже вуза, нанести серьёзный урон морально-психологической обстановке. Все мероприятия в сфере противодействия коррупции в высшей образовании должны быть легитимными и информационно доступными. Основной целью проводимых мероприятий должно стать формирование антикоррупционной устойчивости обучающихся.

Анти коррупция в вузе представляет собой комплекс взаимосвязанных принципов, процедур, стандартов и мероприятий, направленных на профилактику и пресечение коррупционных правонарушений в вузе и воспитание коррупционной устойчивости. Ключевыми целями антикоррупционной политики вуза являются:

- 1) недопущение предпосылок, исключение возможности совершения коррупционных правонарушений в вузе;
- 2) обеспечение выполнения антикоррупционных мероприятий;
- 3) обеспечение защиты прав и законных интересов граждан от проявлений коррупции, формирование эффективного имиджа вуза;
- 4) воспитание неприятия коррупции в сознании всех участников образовательного процесса.

К основным принципам деятельности по противодействию коррупции в вузе необходимо отнести:

1. Принцип соответствия антикоррупционной политики вуза
2. Принцип личной ответственности руководства вуза. Данный принцип играет организующую роль в формировании основ нетерпимости к

любым проявлениям коррупции и в создании внутри вузовской системы предупреждения и профилактики коррупции.

3. Принцип осознанной вовлеченности профессорско-преподавательского состава, сотрудников, аспирантов и студентов в реализацию антикоррупционной политики вуза.

4. Принцип соразмерности антикоррупционных процедур коррупциогенной ситуации в вузе. Содержание данного принципа включает в себя разработку и выполнение комплекса мероприятий, позволяющих снизить возможность вовлечения профессорско-преподавательского состава, сотрудников, аспирантов и студентов вуза в коррупционную деятельность. Данный принцип реализуется с учётом существующих в деятельности вуза коррупционных рисков.

5. Принцип эффективности антикоррупционных мероприятий. Реализация данного принципа указывает на осуществление в вузе антикоррупционных мероприятий, способных заинтересовать вузовское сообщество и вовлечь в их реализацию наибольшее количество участников.

6. Принцип открытости. Реализация принципа открытости означает информирование общественности о принятых в вузе антикоррупционных стандартах и процедурах, а также о проводимых антикоррупционных мероприятиях.

7. Принцип поэтапного контроля и постоянного мониторинга. Содержанием данного принципа является реализация комплекса мер по мониторингу эффективности внедрённых антикоррупционных стандартов и процедур, а также по контролю за их исполнением.

Антикоррупционная политика вуза может быть реализована в рамках специального плана (программы) мероприятий по предупреждению коррупционных правонарушений. Основным инструментом достижения целей противодействия коррупции является студенческое сообщество вуза.

Мероприятия плана по противодействию коррупции в вузе среди студентов ориентированы:

- на предупреждение коррупционных проявлений;
- на формирование антикоррупционного имиджа; в) на совершенствование антикоррупционной базы вуза;
- на выявление и устранение причин и условий, способствующих коррупции;
- на обеспечение мониторинга коррупционной среды;
- на обеспечение эффективной работы по формированию кадрового состава вуза;
- на развитие существующей системы противодействия коррупции; з) на профилактику конфликта интересов;
- на формирование личности, нетерпимой к коррупционным проявлениям.

По итогам года был проведён мониторинг, в котором обучающихся просили обозначить наиболее интересные и эффективные мероприятия года в сфере противодействия коррупции.

Таким образом, наибольший интерес и результативность показали мероприятия, выходящие за рамки классических вузовских лекций и семинаров и относящиеся, скорее, к культурно-досуговой деятельности вуза.

Именно эти свойства могут помочь эффективно, открыто, соразмерно и в соответствии с законодательством решать задачи по противодействию коррупции среди студентов в вузе. При этом в решении задач антикоррупционного просвещения и пропаганды мероприятия культурно-досугового характера могли бы занять ведущую позицию. Используя безграничные возможности форм и методов культурно-досуговой деятельности, можно достичь определённых результатов в формировании антикоррупционной компетентности студентов. Следует отметить, что работа в данном направлении уже ведётся в ряде вузов Узбекистана, однако она ограничена проведением определённого спектра мероприятий.



## Литература

1. Жарков А. Д. Теория и технология культурно-досуговой деятельности : учебник : для студентов высших учебных заведений по специальности «Социально-культурная деятельность». Москва : Изд. дом МГУКИ, 2007. 479 с. : табл.
2. Калимуллина О. А. Формирование творческой направленности студенческой молодёжи в условиях досуговой деятельности: синергетический подход : дис. на соиск. учён. степ. доктора педагогических наук : 13.00.05 / Калимуллина Ольга Анатольевна. Казань, 2014. 488 с. : ил.
3. Рыбалкин Д. А. Социально-педагогические условия формирования антикоррупционной позиции курсантов вузов МВД России средствами социально-культурной деятельности // Вестник Казанского государственного университета культуры и искусств. 2014. № 4 – 2. С. 80 – 84.
4. Sidikova, G. S., & Ibrahimovich, T. A. (2021). FORMATION OF CHILDREN'S HEALTH CULTURE AS A SOCIAL AND PEDAGOGICAL PROBLEM. Conferencea, 71-74.
5. Шамсутдинова Д. В. Компетентностный подход к формированию социально-культурного пространства вуза // Вестник Челябинской государственной академии культуры и искусств. 2012.
6. Жарков А. Д. Теория и технология культурно-досуговой деятельности : учебник : для студентов высших учебных заведений по специальности «Социально-культурная деятельность». Москва : Изд. дом МГУКИ, 2007. 479 с. : табл.
7. Калимуллина О. А. Формирование творческой направленности студенческой молодёжи в условиях досуговой деятельности: синергетический подход : дис. на соиск. учён. степ. доктора педагогических наук : 13.00.05 / Калимуллина Ольга Анатольевна. Казань, 2014. 488 с. : ил.
8. Шамсутдинова Д. В. Компетентностный подход к формированию социально-культурного пространства вуза // Вестник Челябинской государственной академии культуры и искусств. 2012.
9. Джалолов, Ш. В. (2019). Возрастная динамика скоростно-силовых способностей у детей младшего школьного возраста. In *НАУКА СЕГОДНЯ: ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ* (pp. 72-73).
10. Сидикова, Г. С. (2022). ФОРМИРОВАНИЕ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ У ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. *Таблим ва Ривожланиш Таҳлили онлайн илмий журнали*, 2(1), 6-11.
11. Ashurova, O. (2021, December). THE IMPORTANCE OF AESTHETICITY OF ECOLOGICAL CONSCIOUSNESS AND CULTURE IN

THE ACTIVITIES OF PRESCHOOL EDUCATIONAL PROFESSIONALS. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 88-90).

12. Abdumalikovna, M. S. (2021). BASIT KORIEV'S LIFE BECAME A MILESTONE IN THE DEVELOPMENT OF MUSICAL AND THEATRICAL EDUCATION. *Conferencea*, 52-54

13. Ubaydullaev, R. M. (2021). MONITORING THE PHYSICAL FITNESS OF GIRLS IN GRADES 8-9 OF RURAL SECONDARY SCHOOLS. *Herald pedagogiki. Nauka i Praktika*, 1(2).

14. Usmonov, Z. N. (2020). MONITORING OF PHYSICAL AND HEALTH WORKS IN RURAL COMPREHENSIVE SCHOOLS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(3).

15. Hamrakulov, R. (2021). THE IMPORTANCE OF THE ORGANIZATION OF PHYSICAL CULTURAL ACTIVITIES BASED ON ADVANCED PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(05), 114-119.

16. Xaydaraliev, K. (2019). THE EXPERIENCE OF CHARGES AND FACULTIES USING THE NEW MODERN INFORMATION DISTRIBUTION SYSTEM IN TRAINING. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(6).

17. Madaminov Oribjon Nishanbayevich. (2022). Outdoor Games in The System of Physical Culture and Sports in Higher Education. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 5, 18–20. Retrieved from <http://zienjournals.com/index.php/tjm/article/view/718>

18. Anvarjonovna, A. O. (2021). AESTHETIC CULTURE OF THE EDUCATOR. In *Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences* (pp. 253-255).

19. Kholbekova Matlyuba Abdufattoevna, & Kholbekova Dildora Akhatjon kizi. (2022). GAME METHODS OF TEACHING ENGLISH AT UNIVERSITY. *Euro-Asia Conferences*, 23–28. Retrieved from <http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/595>

**ОИЛА ВА МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИ ДОИРАСИДА ГЕНДЕР  
ТЕНГЛИКНИ ТАЪМИНЛАШГА ДОИР БИЛИМЛАРНИ  
РИВОЖЛАНТИРИШ ЗАРУРАТИ**

*Икромжон Юлдашов*

*ФарДУ Жисмоний маданият факультети декани, педагогика фанлари  
бўйича фалсафа доктори (PhD)*

**Аннотация:** Мақолада ўқувчиларда гендер тенгликни таъминлашга доир билимларни шакллантириш, уларда жинслараро хулқ, мулоқот маданиятини шакллантиришда оила ва мактаб ҳамкорлигини такомиллаштириш, мазкур жараёнда оила олдидаги педагогик вазифалар, таълимга гендер ёндашув орқали мактабда ўқувчиларда гендер тенглик кўникмаларини ривожлантиришда эътибор қаратилиши лозим бўлган педагогик жиҳатлар таҳлил қилинган.

**Калит сўз ва иборалар:** ўқувчи, оила, мактаб, гендер таълим, гендер тушунчаси, гендер тенглик, жинс, жинслараро мулоқот, гендер маданият, оила ва мактаб ҳамкорлиги.

Янгиланаётган Ўзбекистонда гендер тенгликни таъминлаш борасида олиб борилаётган ижобий ишларни таҳлил қилиш ва гендер тенгликни таъминлашда ёшлар масалаларига алоҳида эътибор қаратиш бугуннинг асосий долзарб вазифаларидан бири эканлиги ҳаммамизга маълум. Мамлакатимизда гендер тенгликни таъминлашга доир 2019 йил 2 сентябрда қабул қилинган “Ҳотин-қизлар ва эркеклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлар тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг қонуни хотин-қизларнинг жамиятдаги ўрнига қаратилган ҳуқуқий ҳимоя, ҳуқуқий кафолат сифатида маъқулланган.

Кейинги йилларда гендер тенгликни таъминлаш, аёлларнинг ижтимоий ва сиёсий ҳаётдаги ролини ошириш бўйича кўпгина ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, аёллар ҳуқуқлари тўғрисида бир нечта норматив ҳужжатлар қабул қилиниб, уларга Президентимизнинг хотин-қизлар ҳуқуқларини таъминлаш, хусусан, гендер тенглиги ва аёлларни зўравонлик, зулмдан ҳимоя қилиш, аёллар тадбиркорлигини ривожлантириш мақомини кучайтириш тўғрисидаги фармон ва қарорларини кўрсатиш мумкин.

Сенатидаги нутқида таъкидлаганидек, “Мени кишиларимизнинг онгида пайдо бўлган стереотип кўп ўйлантиради. Одатда биз аёлни авваламбор она, оила қўрғонининг қўриқчиси сифатида хурмат қиламиз. Бу, шубҳасиз, тўғри. Аммо бугун ҳар бир аёл оддий кузатувчи эмас, балки мамлакатда амалга оширилаётган демократик ўзгаришларнинг фаол ва ташаббускор иштирокчиси ҳам бўлиши керак”<sup>1</sup>.

Сўнги йилларда Ўзбекистонда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохотлар тизимида гендер масалалари, хотин-қизларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш, уларнинг турмуш шароитларини яхшилаш, қобилиятларини эркин амалга оширишлари учун қулай шарт-шароитларни яратиш, қўллаб-қувватлаш билан боғлиқ норматив-ҳуқуқий база янада такомиллаштирилди. “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги (2019), “Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги (2019) Ўзбекистон Республикасининг қонунлари қабул қилинди. Ўзбекистонда жамиятнинг барча соҳаларида аёл ва эркаклар тенг ҳуқуқ-лигини таъминлашни мақсад қилувчи 2020–2030 йилларда Гендер тенгликка эришиш стратегияси<sup>2</sup> қабул қилинди. Стратегиядан кўзланган асосий мақсад – барча аёллар ва қизлар, эркаклар ва болалар учун уларнинг ирқи, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди,

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис йигирманчи ялпи мажлисидаги нутқи. 22.06.2019 00:44:50

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/5466673>. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг қарори. 2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқлаш ҳақида. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 2021 йил 28 майдаги СҚ-297-IV-сонли [Қарори](#).

ижтимоий мавқеидан қатъи назар ижтимоий, иқтисодий, сиёсий ҳаётдаги фундаментал инсон ҳуқуқларининг таъминланишига эришиш ҳисобланади.

Бундан ташқари, фақатгина норматив ҳужжатлар қабул қилиниши билан чекланмасдан, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати таркибида аёллар ҳуқуқларини таъминлаш ва камситишнинг ҳар қандай шаклига барҳам бериш бўйича миллий қонунчиликда халқаро стандартларни уйғунлаштириш билан шуғулланувчи “Хотин-қизлар ва гендер тенглик масалалари қўмитаси”, меҳнатга оид ҳуқуқларнинг кафолатлари ва қўллаб қувватлашни янада кучайтириш, уйдаги зўравонлик қурбонларига ёрдам бериш мақсадида “Зўрлик ишлатишдан жабр кўрган шахсларни реаблитация қилиш ва мослаштириш ҳамда ўз жонига қасд қилишнинг олдини олиш Республика маркази” ва “Хотин-қизлар тадбиркорлиги маркази”, ҳукумат ҳузуридаги “Оила” илмий-амалий тадқиқот маркази каби янги тузилмалар ташкил этилди.

Аслида эса гендер тарбиянинг асоси оиладан бошланиши барчамизга маълум албатта. Бу масалада маърифатпарвар бобомиз Абдулла Авлоний ўзининг “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ” номли асарида шундай дейди: “Тарбияни кимлар қилур? Қаерда қилинур?” деган саволга келадур. Бу саволга биринчи уй тарбиясидир. Бу она вазифасидир. Иккинчидан мактаб ва мадраса тарбияси. Бу ота муаллим, мударрис ва ҳукумат вазифасидир, деб жавоб берса бу киши деюрки “қайси оилаларни айтарсиз билимсиз боши пахмоқ, қулоғи тухмоқ оналарни? Ўзларида йўқ тарбияни қандай олиб берурлар” дер. Отасига нима дерсиз, десак “Қайси ота? Тўйчи улоқчи, базмчи, дўмбирачи, карнайчи, сурнайчи илм қадрини билмаган илм учун бир пулни кўзлари қиймаган замондан хабарсиз оталарни айтирурсиз? Аввал ўзларини ўқитмоқ, тарбия қилмоқ лозимдир”<sup>3</sup> деб таъкидлайди. Ҳақиқатдан ҳам кўп нарса катта авлод ибратига боғлиқ. Чунки ёшларни фазилатларга бой шахс сифатида камол топтиришнинг асосий омилларидан бири ибратдир.

<sup>3</sup> А.Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: “Ўқитувчи”, 1992. –Б. 11.

Оилаларда маънавий-ахлоқий муҳитни барқарорлаштириш ва гендер тенгликни таъминлашда эркакнинг ҳам, аёлнинг ҳам ўз ўрни бор. Оилавий ҳаёт масалаларида эркак ва аёл жамиятдаги меъёрларга амал қилиши, зиммасидаги бурч ва вазифани қонун доирасида, адолат тамойилларига риоя қилган ҳолда бажариши, оила бошқаришни билиши, ёшларни ўз ортидан эргаштира оладиган, турли ишларга чиройли тарзда сафарбар эта оладиган салоҳиятга эга бўлиши, нафақат оила аъзоларига, балки жамиятнинг барча аъзоларига ибрат бўлиши зарур. Эр ва хотиннинг гендер тенглик масаласида бир-бирларини тушуниши, ҳурмат қилиши оилавий масалаларни биргаликда ҳал қилишга ҳаракат қилиши оилада юзага келадиган ҳар қандай низо, ихтилоф ва муаммоларни тинч йўл билан бартараф қилишга имконият яратади. Сабаби, ота-она, келажак авлод эгалари – ёшлар учун ибрат кўзгусидир.

Таълим тизими жамиятда нафақат технологик ва ижтимоий-иқтисодий тараққиёт омили, балки маънавий ва иқтисодий ривожланишнинг муҳим стратегик воситаси сифатида алоҳида аҳамият касб этади. Шу боис мустақил мамлакатимизда таълим соҳасига йил сайин катта эътибор қаратилмоқда. Мазкур вазифа таълим тизимининг барча босқичлари: мактабгача таълим муассасаларидан тортиб олий таълимнинг юқори босқичларигача бўлган бўғинлар зиммасига юклатилган. XXI асрнинг ахборот асри дея эътироф этилаётганлиги бежиз эмас. Негаки, жамият шахсининг билимдонлиги ва тадбиркорлигига таяниб ривожланади ҳамда тараққий топади. Гендер фарқлар ва тенглик асосида ташкил этилган таълим жараёни эса жамият тараққиётига муҳим ҳисса қўшиб, ўқувчи шахсининг маданий, ижтимоий-иқтисодий ва экологик жиҳатдан барқарор ривожланиши учун зарур таркибий қисм сифатида майдонга чиқади. Мазкур мақсадни амалга ошириш жараёнида мавжуд ўқув дастурларини янги педагогик технология ва замонавий усулларни қўллаган ҳолда такомиллаштириш энг биринчи вазифа ҳисобланади. Такومиллаштирилган ўқув дастурларида ўғил ва қиз болалар тенглиги, қолаверса, барча фанлар бўйича ўқув материалларининг гендер

тенглик ва фарқлар асосида белгилаб берилиши муҳим аҳамият касб этади. Бундай таълим жараёни янги ўқув воситалари – методик материаллар ва дидактик ишланмалар яратишни талаб қилади. Ўз навбатида, ўқув-методик материаллар назорат воситалари билан боғлиқ равишда танланиши лозим.

Шуни таъкидлаш лозимки, истиқболда ўқувчиларнинг билим, кўникма ва малакаларини назорат қилиш нафақат ўзлаштириш, балки ўғил ва қиз болаларнинг ҳар бирига хос бўлган тушуниш, билимларни амалий қўллаш ва ижод кўникмаларини аниқлаш асосида ҳам амалга оширилиши лозим. Бу ҳолат ўқувчиларнинг билим даражасига ижобий таъсир кўрсатибгина қолмай, янги сифатга эга бўлган ақл-заковат эгасини тарбиялайди, яъни у ўзига хос шахсни шакллантириб, улар онгини ўстириш, шунингдек, дунёнинг ижтимоий, инфорацион, технологик ва иқтисодий ўзгаришларига мослашишларига катта ёрдам беради.

Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги тизимидаги таълим муассасаларида таҳсил олаётган 6 119 440 нафар ўқувчилардан 2 968 471 (48,5%) нафарини қизлар ташкил этади.

Бевосита тизимда меҳнат қилаётган 481 604 нафар педагог ходимларнинг 332 909 (69,1%) нафарини аёллар ташкил этади. Тизимдаги раҳбар ходимларнинг орасида ҳам аёллар сони ҳақида айтадиган бўлсак, мавжуд 9925 нафар мактаб директорларидан 3689 (37,1%) нафари, 200 та туман (шаҳар) халқ таълими бўлими мудирларидан 35 (17,5%) нафари, шу йилдан эътиборан эса 14 та вилоят халқ таълими бошқармалари бошлиқларидан 2 (14,2%) нафари аёллар ҳисобига тўғри келмоқда<sup>4</sup>.

Халқ таълими вазирлигида Хотин-қизлар, гендер тенглиги ва ёшлар масалаларига масъул вазир ўринбосари тайинланган ҳамда алоҳида бошқарма ташкил этилган бўлиб, улар тизимда мазкур масалалар бўйича илғор тажрибаларни оммалаштириш, такомиллаштириш билан шуғулланади. Шунингдек, Халқ таълими вазирлиги тизимидаги барча таълим муассасалар,

<sup>4</sup> <https://www.uzedu.uz/uz/halk-talimi-vazirligi-tizimida-gender-tenglik>

ташкilotлар, туман (шаҳар) халқ таълими бўлимлари, ҳудудуий халқ таълими бошқарув идораларида, шу жумладан вазирликнинг марказий аппаратида ҳам Ўзбекистон Хотин-қизлар кўмитасининг бошланғич ташкilotларининг раҳбарлари сифатида фаолияти ташкilot этилган. Ҳозирда айнан улар орқали тизимдаги хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва имкониятларини кенг тарғиботи амалга оширилади.

Халқ таълими вазирлиги ривожланган давлатлар тажрибасидан келиб чиққан ҳолда гендер тенглиги масалаларини мактабдан бошлаб ёшларнинг онгига сингдириб боради. Бунда қизлар ва ўғил болаларга барча муассасаларда тенг шароитлар яратилганлигини алоҳида таъкидлаб ўтиш лозим. Мамлакатимизда мактабларда ўқувчиларга нафақат гендер тенглиги, жинсий тенг ҳуқуқлилиқ масалалари, балки хотин-қизларга бўлган шарқона ҳурмат, хотин-қизларни эъзозлаш, она мисолида аёлларни кадрлаш кўникмалари болалар онгига бошланғич синфлардан эътиборан сингдириб борилади.

Масалан, 1-4-синфларда “Ўқиш”, “Одобнома” ўқув дастурларида ўғил ва қиз болаларнинг тенг ҳуқуқлилиги, уларнинг жамиятда бир хил мавқега эга эканлиги тўғрисида тушунчалар берилган.

Шунингдек, 8-11-синфларда ўтиллаётган “Давлат ва ҳуқуқ асослари” фанларининг ўқув дастурларида гендер тенглик бўйича тегишли ҳуқуқий билимлар берилиши йўлга қўйилган.

2019 йилдан эътиборан алоҳида ўқувчи-қизлар билан ишлаш йўналишини ривожлантириш ва такомиллаштиришга қаратилган платформа вазифасини ўтовчи - ўқувчи-қизларнинг замонавий билим-кўникмаларини шакллантириш, уларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини, маънавий-ахлоқий тарбиясини юксалтириш, касб-маҳоратини ошириш мақсадида Республика, ҳудудлар ва барча туман (шаҳар)ларда “Қизларжон” ўқувчи-қизлар саммитлари ташкilot этилди.

Саммитларда 28 564 нафар ўқувчи-қизлар қамраб олинди. Халқ таълими вазирлиги ва Хотин-қизлар кўмитаси ҳамкорлигида ўқувчи-қизларда замонамиз қаҳрамонлари бўлган раҳбар аёлларнинг сиёсий портретларини



шакллантириш мақсадида тадбиркорлик ва ишбилармонлик соҳасида етакчилик қилаётган раҳбар аёллар, туман (шаҳар) ҳокимлари ўринбосарлари, Хотин-қизлар қўмиталари раислари лавозимида “Устоз-шогирд” анъанасида бир кунлик амалиёт дастурини ўтказиш бўйича “Дублёр” лойиҳаси Самарқанд вилоятида тажрибадан ўтказилди.

Алоҳида таъкидлаш жоизки, манфаатдор вазирлик ва ташкилотлар билан биркалиқда Халқ таълими вазирлиги томонидан мазкур соҳада қабул қилинган “Эркаклар ва аёллар учун тенг ҳуқуқлар ва имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги ҳамда “Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг қонунларини ижросини таъминлаш бўйича ҳамкорликдаги чора-тадбирлар режалари қабул қилинди ҳамда ижроси таъминланмоқда.

2019-2020 ўқув йили бошидаги ОТМнинг талабалар тўғрисидаги маълумотларига эътибор қаратадиган бўлсак, бу соҳада ижобий кўрсаткичлар қайд этилганини кузатишимиз мумкин. Республика бўйича олий таълимдаги талабаларнинг умумий сони 440991 нафарни ташкил этган бўлиб, шундан 202537 нафарини (46 %) хотин-қизлар ташкил этди. Ваҳоланки, 2014-2015 ўқув йилида эса бу кўрсаткич 38 %ни ташкил этган эди. Вилоятлар кесимида кузатадиган бўлсак, хотин-қизлар улуши Навоий вилоятида – 60 %дан, Сирдарё вилоятида – 56 %дан, Сурхондарё вилоятида – 55 %дан кўпроқни, Хоразм ва Фарғона вилоятларида эса 54 %ни ташкил этмоқда<sup>5</sup>.

Педагогика фанида гендер тенглик ва фарқларни ҳисобга олиш тамойили устувор бўлиши керак. Бу устуворликни таъминлашнинг ўзига хос жиҳатлари:

- ўқув материални танлашда ўғил ва қиз болалар орасидаги ўзига хосликни фарқлаш;
- ўғил ва қиз болаларнинг алоҳида ўзига хос фаолиятини ривожлантириш;
- муайян жинсга мос келадиган ўқув фаолиятини ташкил этиш;

---

<sup>5</sup> Қодиров А. Ўзбекистонда фозил жамият устунлари тикланыпти // “Янги Ўзбекистон” газетасининг № 17 (273), 2021 йил 26 январь сони.

– ҳар бир жинснинг ўзига хос фаолият тўрини шакллантиришга хизмат қиладиган ўқув материалларини танлаш;

– таълим жараёнида қатъи, дидактик жиҳатдан шаклланган гендер интерпретацияларини қўллашга йўналтирилган педагогик фаолиятни шакллантириш.

Таълим жараёнида ўғил ва қиз болаларга меҳнат таълими бериш ва уларни касбга йўналтиришнинг барқарор педагогик тизимини вужудга келтиришда ўқувчиларнинг гендер жиҳатдан ўзига хос бўлган шахсий сифатларини қарор топтириш муҳим аҳамиятга эга. Бунинг учун таълим жараёнида қуйидагиларга алоҳида эътибор бериш зарур:

– ўғил ва қиз болалар орасидаги фарқларни нейтраллаштириш ва интерпретациялашга қаратилган ўқув ҳаракатларини ташкил этиш;

– уларни гендер ўхшашликни намоён қилиш руҳида тарбиялаш;

– ўқув жараёнида ўғил ва қиз болаларнинг алоҳида-алоҳида фаолият кўрсатишини таъминлаш;

– ўғил ва қиз болаларнинг шахсий қизиқишларига мувофиқ келадиган ўқув фаолияти турларини ташкил этиш;

– аниқ ўқув вазиятини ҳисобга олган ҳолда фаолият кўрсатишни таъминлаш<sup>6</sup>.

Ўғил ва қиз болаларнинг ҳар бири қандай бўлиши, қандай фаолият тўрини эгаллаши таълим сифатига боғлиқ.

Кўриниб турибдики, ўқувчиларда гендер тенгликни таъминлашга доир билимларни шакллантириш оилавий ва мактабдаги ижтимоий-маънавий муносабатларнинг барқарор кечишини таъминлаш учун хизмат қила олади. Бу ўз навбатида жамият доирасида намоён бўлса, жинсий ва маданий белгилари бўйича юзага келиши мумкин бўлган ижтимоий мазмун касб этган

<sup>6</sup> Тилавова М. М. Таълим жараёнида гендер тенглик ва фарқларни ҳисобга олишнинг педагогик ва психологик имкониятлари. Таълим ва инновацион тадқиқотлар халқаро илмий-методик журнал, №1, 2020. – Б. 100-101

тушунмовчиликларни ифода этмаслигини таъминловчи “маданий куч” сифатида регулятив вазифани бажаради.

Умуман, ёшларда гендер маданиятини шакллантириш кўпроқ амалий мазмун касб этиб, уларни оила сарвари (бекаси), касбий жамоа аъзоси, тенгқурлари каторида тенг шахс бўлиб камол топишлари учун лозимдир. Шу сабабли, уларда гендер маданиятини шакллантириш учун мажмуавий ёндашиш мақсадга мувофиқдир, бунинг учун “оила – маҳалла – таълим муассасалари” тизимида амал қилиб келаётган ҳамкорликни мазмунан такомиллаштириш мақсадга мувофиқдир.

Назарий жиҳатдан ёшларда гендер тенгликка доир билимлар ифодаланганлигининг асосий белгилари сифатида қуйидагилар намоён бўлиши мумкин:

